

R. A. Qosimova

TURIZM VA UNI O'QITISH METODIKASI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**


uue. map - T

R. A. QOSIMOVA

TURIZM VA UNI O'QITISH METODIKASI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

капмат. 9/3



TOSHKENT – 2008

78.81
12-71

Qosimova R.A. Turizm va uni o'qitish metodikasi. (O'quv qo'llanma). – T., «Aloqachi» nashriyoti, 2008, 144 bet.

Mazkur o'quv qo'llanma hukumatimiz tomonidan turizm ishlari bo'yicha chiqarilgan farmonlari hamda qarorlari asosida davr talabiga mos ravishda yondoshib tayyorlangan.

O'quv qo'llanmaning birinchi qismida «O'zbekistonning ichki va xalqaro sayohatlari» ilk bor o'quv qo'llanmadan joy olgan. Unda «O'zbekiston – qadimgi ipak yo'lining markazi (I bob)», «Mustaqillik davrida qadimiy shaharlarga sayr-sayohatlar tashkil etish (II bob)», «Xalqaro sayohatlar (III bob)» mazmunan davr talablariga asosan ifodalangan.

Bu o'z navbatida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarning, talabalarning bilim saviyalari, Amaliy malakalarini yangi yo'nalishlar bilan boyitishga yo'llaydi. O'quv qo'llanmaning mazmuni va rangli tasvirlar (suratlar) deyarli barcha kishilarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortadi.

O'quv qo'llanmaning ikkinchi qismi «Ommaviy piyoda yurish sayohatlari»ga qaratilishi bilan ijtimoiy, tarbiyaviy xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirganligi muhim ahamiyatga egadir.

Yuqorida bayon etilgan yo'nalishlar bilan bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari qurollantirish, amalda faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassis xodimlar, jamoatchi faollarning malakalarini takomillashtirish va turizm bo'yicha mutasaddi xodimlarning ish faoliyatlarini yuritishda mazkur o'quv qo'llanma to'la xizmat qila oladi deb o'ylayman.

Mas'ul muharrir: **prof. J. E.ESHNAZAROV**

Taqrizchilar: **prof. R.N.ABDUMALIKOV;**
prof. E.N. NURITDINOV

ISBN 978-9943-326-22-4

© «Aloqachi» nashriyoti, 2008.

KIRISH

27 Turizm – sayohat qilish demakdir. Turizm lotincha «tur» soʻz oʻzagidan iborat boʻlib, uning lugʻaviy maʼnosi «aylanish» («Vals» raqsini doira shaklida aylanib bajarish va tugatish – bir aylanish), «oʻyin oʻlchovi» (sport oʻyinlari musobaqalaridagi bosqichlar), «Biron maqsad yoʻlida harakat qilish» (oʻrganish, izlanish va h.k.) kabi ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy jarayonlarni bildiradi. Uning asl mazmuni esa atrof-muhitlar, tarixiy va madaniy obidalarga sayr qilish, dam olish, oʻtmish hamda davr moʻjizalarini oʻrganishga qaratilgan. Oʻz-oʻzidan maʼlumki, mazkur harakatlar, tadbirlarni amalda bajarish uchun har bir inson faol harakat qilishi, yaʼni yurish, yugurish, yuk koʻtarish, toʻsiqlardan oʻtish kabi tabiiy jismoniy harakatlar qilishni taqozo etadi. Bu esa, eng avvalo, jismoniy rivojlanish, yuqori darajada faol harakat qilishni taʼminlaydi.

Demak, 1 hozirgi davr iborasi bilan aytilsa, turizm sayr (ekskursiya) – sayohat (turizm) yoʻli bilan tarixiy shaharlar, sanoat markazlari, ravnaq topayotgan madaniy hayotimizni koʻrish, tomosha qilish, maqsadli ravishda u yoki bu voqealarni oʻrganish, shu asosda dam olish, hordiq chiqarishni bildiradi. 1

1 Turizmning xalqaro miqyosda piyoda yurish, changʻida yurish, avto-moto, velosipedlarda sayr qilish kabi murakkab va qiziqarli turlari mavjud, yaʼni mamlakatlarning yer yuzida joylashishi, iqlim sharoiti, iqtisodiy va moddiy-texnik rivojlanishiga qarab turizmning turlari shakllangan boʻladi.

Oʻzbekistonning iqlim sharoiti, togʻlari, daryolari, oʻrmon xoʻjaliklari, tarixiy va zamonaviy shaharlari, yuksak darajadagi oʻziga xos milliy madaniyati sayohatbob hisoblanadi. Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlardagi tarixiy-madaniy obidalar faqat mamlakatimiz aholisinigina emas, hatto xorijiy mamlakatlarning ham sayohatsevar kishilari, olimlari, davlat arboblari ham oʻziga rom etmoqda. 1

O'zbekiston turizmining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, qadimgi Buyuk ipak yo'li aynan yurtimizdan, ya'ni Qashqar (Xitoy) orqali Farg'ona vodiysiga tutash bo'lgan. U yerdan Qamchiq dovoni orqali Ohangaron, Olmaliq, Pskent bo'ylab Toshkentga yetgan. Farg'ona vodiysidan boshlangan ikkinchi (asosiy) yo'l esa Xo'jand, Xovos, O'rtepa, Zomin, Jizzax, Sarbozor (G'allaorol), G'azara (Jomboy), Samarqand, Buxorogacha borib yetgan.

G'arbga cho'zilgan bu yo'l Ashxobod, Qobul, Damashq, Iroq, Tehron, Misr kabi davlatlarni tutashtirgan, ya'ni sharqdan g'arbga, g'arbdan sharqqa savdo yo'li mavjud bo'lgan. Shu asosda yurtimizda milliy madaniyat qadimdan ravnaq topib, u Sharq va G'arb mamlakatlarining ijtimoiy turmush va til boyligi bilan ancha kengaygan.

O'zbekistonning qadimgi madaniy yodgorliklari, xalqimizning ko'p qirrali turmush sharoiti, qurilayotgan sanoat hamda madaniy obidalarni tomosha qilish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish maqsadida turli sayr-sayohatlar uyushtirishni taqozo etadi. O'z navbatida esa xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurayotgan sayyohlar, mutaxassislar hamda davlat arboblari yuqori darajada madaniy xizmat ko'rsatish ham hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Ramazon va Qurbon hayiti arafalarida Islom dini olamidagi yurtdoshlarimiz. haj safarini maqsad qilib qo'ygan mo'min-musulmonlarimiz har yili Makka hamda Madinaga borib kelishmoqda. Shuningdek, ishbilarmonlar, savdo xodimlari, tijoratchilar va iqtidorli, aql-zakovatli yoshlar, talabalar ilg'or xorijiy mamlakatlarga sayr uyushtirmoqdalar, ba'zilar kasb-hunar yo'lida tahsil olmoqdalar.

Umuman olganda, mamlakatimizda turizm yangidan shakllanib, davr talablariga mos ravishda rivoj topmoqda.

Ta'kidlash lozimki, uzluksiz ta'limni ta'minlash, o'quvchi yoshlar va talabalarning jismoniy barkamolligini oshirishda davlat ta'lim standartlari, «Sog'lom avlod davlat dasturi», «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari mazmunidagi sayohat (turizm) muhim ahamiyatga egadir. Shu sababdan sayr (ekskursiya) bilan bir qatorda piyoda yurish sayohati (turizm)ni ham tashkil qilish ehtiyojlari mavjuddir.

O'quv qo'llanmani tayyorlashda Samarqand, Farg'ona, Jizzax oliy o'quv yurtlaridagi jismoniy tarbiya fakultetlari (1967–1995-yy.),

pedagogika bilim yurtlari va boshqa bir qator kasb-hunar kollejlarining turizm haqidagi ish tajribalaridan foydalanildi. Buning uchun I.Xolmurodov (Samarqand, marhum), R.Abdumalikov, V.Yu.Dourenov (Toshkent), T.X.Xoldorov, H.A.Meliyev (Jizzax), A.A.Abdullayev (Farg'ona)larga muallif o'z minnatdorchiliklarini chin dildan izhor etadilar.

BIRINCHI QISM

O'ZBEKISTONNING SAYR-SAYOHATLARI

I bob. SAYOHATLARNING TARIXIY RIVOJLANISH

YO'LLARI

1.1. Sayohat haqida umumiy tushuncha

Tarixiy manbalar, turli xil ilmiy tadqiqotlar, arxeologik qazilmalarning natijalari shuni ko'rsatadiki, deyarli yer yuzining barcha joylarida qadimgi odamlar ov qilish maqsadida tog'lar, cho'llar, o'rmonlar, daryolar, ko'llar bo'yicha joylashgan va istiqomat qilishgan. Bunda ov qurollarini yasash, yovvoyi hayvonlar bilan olishish (jang qilish) asosiy faoliyat hisoblangan. Ularning mazmunida esa yurish, sakrash, yuk ko'tarish, tirmashib chiqish, ulotqirish, suvda suzish, olishish (kurash, mushtlashish va h.k.) kabi murakkab amaliy faoliyatlar ustuvor turgan.

Jamiyatning taraqqiyoti ijtimoiy madaniy turmush kechirish, uzoq umr ko'rish, doimiy ravishda tetik, bardam, sog'lom bo'lishni taqozo etgan. Bunda jangovar tayyorgarliklar ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Qadimgi rivoyatlarga qaraganda podsholar o'z oldilariga ikkita asosiy maqsadni qo'yganlar, ya'ni turli yo'llar bilan boylik orttirish va sayr-sayohatlar uyushtirib jismonan chiniquish, ov orqali hordiq chiqarishdan iborat bo'lgan. Buning mazmunida esa uzoq umr ko'rish, kasal bo'lmaslik sirlarini bilish hisoblangan. Lekin bu sirlar mo'jiza va sir bo'lib qolavergan.

Ba'zi bir sehrgarlar, tabiblar, din peshvolari qayerdadir umrni uzaytiruvchi va yashartiruvchi shifobaxsh buloqlar borligi haqida bashorat qilishgan. Bu jarayonlar hazrati Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» qissasida ham donishmandlik bilan talqin qilingan.

Aytishlaricha, Aleksandr Makedonskiy (Saddi Iskandariy) shifobaxsh buloq suvini qidirib Sharqqa safar uyushtirgan. Uning yo'llarida qarshilik qilgan davlatlar, xalqlarni ta'qib ostiga olgan.

Ularning moddiy boyliklari, mol-mulklari va oziqalaridan foydalangan. Kerakli joylarda qaqshatqich zarba bergan va shiddatli jang uyushtirgan. Shu tariqa u yangi eradan avvalgi 327-yilda yurtimizga bostirib kirgan. Lekin hech yerda shifo bulog'ini topa olmagan, oqibatda mahalliy din ulamolari va tabiblar baland qorli tog'larda shifobaxsh buloqlar borligini eslatadilar. Buni eshitgan Aleksandr Makedonskiy sharqqa tomon yurishini davom ettiradi va Spitamen boshchiligidagi (hozirgi Panjakent shahri) xalq qo'zg'oloniga duch keladi. Tog' sharoitlari va xalq qo'zg'aloni tufayli Aleksandr Makedonskiy o'z yurishini to'xtatib, shu yerda istiqomat qiladi. Askarlarning bir qismini esa eshitgan shifobaxsh buloqlariga safarbar qiladi, ya'ni buloqni topish va uning suvidan keltirishni buyuradi. Lekin bu maqsadga erisha olmagan Aleksandr Makedonskiy Hindiqush tog'lari orqali Hindistonga yurishini davom ettiradi.

Pomir tog'lari orasida joylashgan ko'l Iskandar nomi bilan ataladi. Rivoyatlarga ko'ra, Aleksandr Makedonskiy shifobaxsh suv izlab bu yerlarga sayohatga kelgan. Shu sababdan ko'lni uning nomi bilan atashgan. Bunda qanchalik haqiqat borligi yoki afsonaviyligi tarixga ma'lum. Nima bo'lganda ham sog'liqni mustahkamlash, chiniqish va umrni uzaytirish g'oyasi, ya'ni turizm eng ustuvor tadbir sifatida yuqori qo'yilgan, bu esa ijtimoiy-tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk sarkarda Amir Temurning hayoti va jangovarlik faoliyati («Temur tuzuklari» asari asosida) sayohatlarga boy. O'zining guvohlik berishicha, mintaqalarda Islom dinini targ'ibot qilish, uni hayotga singdirish maqsadida g'arb mamlakatlariga yurish (sayohatning bir turi) qilgan. Unga qarshilik qilgan, itoat etmagan mamlakatlar va xalqlarni zo'ravonlik bilan bo'ysundirgan. Bu faoliyatlarda jangovarlik ustun turgani albatta sir emas. Lekin qaysi maqsad bo'lmasin yurishlarda ot, tuya, xachir, eshak, sol (qayiqqa o'xshash), mesh (havo to'ldirilgan teri) va boshqa ulovlar hamda vositalardan foydalanganliklari ma'lum. Uzoq yurish va safarlar, qidiruv, izlanish sayohatlarida kun va tun bo'yi yurish, yalanglik va tog'u sahrolarda tunash, ovqatlanish, dam olish hamda turli xil o'yinlar (kurash, qilich, nayzalarda jang qilish, arqonlarda osilib chiqish, suvda suzish, otda poyga va h.k.lar) va mashqlar bajarishgan.

Bu o'z navbatida esa yurish sayohatlarning mazmunida muhim ahamiyat kasb etgan. Zahiriddin Bobur ham yoshligidanoq ixtiyoriy va majburan turli sayohatlarni boshdan kechirgan. Andijondan to Hindiston o'lkasiga yetguncha otlarda, piyoda yurish va sollar (qayiq)da suzishga to'g'ri kelgan. Ayniqsa, O'ratepa, Zomin tog'larida piyoda yurish, kechalarni uyqusiz o'tkazishda gulxan yoqish, ovqat pishirish kabi amaliy faoliyatlarini bevosita boshqargan. Ayniqsa, Zarafshon, Amudaryolarning boshlanish joylaridagi torroq o'zanlar, daryolar ustidan otni sakratib o'tganligini «Boburnoma»da bayon etilgani ma'lum.

Aytish mumkinki, Bobur bir umr sayr-sayohatda kunlarni o'tkazgan. Qaysi maqsad bilan qayerda bo'lmasin otlar, fillardan ulov sifatida foydalangan. Daryolardan o'tishda meshlar, sollar, turli xil vositalardan unumli foydalangan. O'zi qidirgan bog'lar, xiyobonlar, ko'llar, daryo sohillarida piyoda yurib, hordiq chiqargan. O'zi tug'ilib o'sgan Andijonni his qilgan va shu asosda «Boburnoma»sini yaratgan.

Shuni ham eslash lozimki, ulug' allomalar Ibn Sino, Forobiy, Beruniy, al-Xorazmiy, Imom al-Buxoriy va boshqalar ijtimoiy turmush sharoitlari, aql-zakovatlari, izlanishlari tufayli Osiyoning ko'pchilik mamlakatlarini (Afg'oniston, Eron, Suriya, Iroq, Misr, Saudiya Arabiston va h.k.lar) piyoda kezganlar. Savdogarlar, sayyohlar hamkorligida aniq maqsadlariga yetishish yo'lida tinmay mehnat qilganlar.

Xonliklar, Rossiyaning zulmlari (1865–1917-yy.) va undan keyingi davrlarda (sobiq SSSR hukmronligi, 1917–1991-yy.) sayohatlarning maqsadi, mazmunlari va shakllari davr talablari asosida shakllangan hamda taraqqiy etgan.

Semen Tyanshanskiy (Prjevalskiy), M.Vyatkin, A.Lomakin va boshqa ko'pgina olimlar, harbiy generallar o'lkani o'rganish, tabiiy boyliklarni topish, tarixiy yodgorliklarni izlash, arxeologik qazish ishlari va boshqa maqsadlar yo'li bilan turlicha sayohatlar uyushtirishgan. Bunda mahalliy millat vakillaridan o'z maqsadlari asosida unumli foydalangan. Ularning qoldirgan ilmiy tadqiqot natijalarining ijobiy tomonlari bugungi kunda ham xizmat qilmoqda.

Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarining tarixi va Amir Temur haqidagi ba'zi bir qimmatli ma'lumotlar Ispaniya, Fransiya, Rossiya

va boshqa davlatlarning elchilari, tarixshunos olimlari tomonidan yozib qoldirilganligi tarixiy jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

1.2. O'zbekiston ipak yo'lining markazi

O'zbekiston sayohatining tarixiy manbayi sifatida qadimgi buyuk ipak yo'li asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Bu to'g'rida B.M.Husanboyev, L.A.To'laganov, V.G.Razinalar tomonidan yaratilgan ilmiy-ommabop risolada (8) aniq ma'lumotlar berilganligini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Ularning ba'zi bir diqqatga sazovor dalillarni keltirishni ma'qul ko'rdik.

Ipak ishlab chiqarish va uni bozorga chiqarishning asl vatani Xitoydir. Eramizdan avvalgi XV–XI asrlarda yovvoyi ipak qurtlaridan foydalangan holda ipakni yaratish yo'llaridan unumli foydalanilgan. Eramizdan avvalgi X–III asrlardan ipak ishlab chiqarish Sharqiy Turkistonga tarqalgan (yetib kelgan). VI asrda esa bu ishlar Hindistonda ham qo'llanilgan.

Eramizdan avvalgi II asrda ipak ishlab chiqarish Xitoyda keng tarqalgan. Xitoy imperatori U-Di «Ipak yo'li»ni ochish to'g'risida dovonliklar (Farg'ona) bilan shartnoma tuzib, buyruq chiqargan. Eramizdan avvalgi I yillarda ipak ishlab chiqarish Koreya, Yaponiya va keyinchalik Sharqiy Turkistonda ham ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ipak va undan yasalgan shoyilar bilan savdo qilish, mamlakatlar o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarni almashish va rivojlantirishga xizmat qilgan. Shu tufayli sharq va g'arb o'rtasida Ipak yo'li vujudga kelgan. Ipak yo'lining tarmog'i asta-sekin Vizantiya va boshqa Yevropa mamlakatlariga ham yetib borgan. Yangi Yevropa madaniyati (sivilizatsiya) Sharqqa qanday yetib borgan bo'lsa, ipak yo'li ham Sharq madaniyatining Yevropaga tarqalishida Movarounnahr xalqi asosiy vosita bo'lgan.

Demokratik asriniz va insonparvarligimiz qadimgi «Buyuk ipak yo'li»ga bo'lgan qiziqishni kuchaytirdi. Shunga qaramasdan sobiq sovetlar mamlakati chetga chiqish va xorijdan yurtimizga kelishini ancha chegaralab qo'ygan edi. Xorijiy mamlakatlarning bir qator olimlari tomonidan 1989-yilda XX asr boshlarigacha davom etgan karvonlarning yo'llarini o'rganishga dovrug' (sensatsiya) solishdi. Bundan avvalgi vaqtlarda ham mazkur muammoni o'rganishga arxeologlar, turistlar, madaniyat xodimlari qiziqish uyg'otganlar.

Hatto, kosmik texnika vositalari orqali «Buyuk ipak yo'li»ning suratlari olishgan. Lekin karvon yo'llari, ayniqsa, Markaziy Osiyo hududlari jiddiy o'rganilmasdan qolavergan.

1990-yillarda «Buyuk ipak yo'li»ni kosmos orqali tadqiqot qilish g'oyasi yuzaga keldi. Bunda YUNESKO boshchiligida Fransiya kosmik tadqiqot milliy markazi tashabbus ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi geografiya fanlari akademiyasi qator g'oyalarni ko'tarib chiqdi.

Mazkur akademiya fransuz olimlari bilan birgalikda «Buyuk ipak yo'li» atlasini yaratish rejasini ishlab chiqdi. Arxeologiya instituti esa qator loyihalarni taqdim etdi.

Qadimgi yo'llardagi madaniyat maskanlari haqida xorijiy mamlakatlarning turistik kompaniyalari katta qiziqish bildirdilar. Shu sababdan sovet madaniyat fondi «Buyuk ipak yo'li» nomli uzoq muddatli dasturni taklif etdi. Bu madaniy tarixiy meros sifatida xalqaro aloqalarni birlashtirish vazifasi qilib qayd etildi. O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston fanlar akademiyalari hamkorligida «Ipak yo'li»ning eng muhim joylari bo'ylab ilmiy sarguzashtlar (ekspeditsiya) o'tkazishni mo'ljallab yurishni (marshrut) boshladi.

YUNESKO «Ipak yo'li»ni kompleks (majmuyi) ravishda o'rganish uchun xalqaro dastur ishlab chiqdi. Bunda Gretsiya, Misr, Indoneziya, Italiya, Mongoliya, Yemen, Portugaliya, Shri-Lanka va sobiq SSSR mamlakatlari muallifdoshlik qilishgan. Bunda tarixiy shaharlar, diqqatga sazovor bo'lgan aholi turar joylaridan faqat zamonaviy ulovlar (samolyot, poyezd, avtomobil va h.k.) bilangina emas, hatto, tuya, ot, eshaklarda ham qadimgi sayyohlar, yo'lovchilar kabi yurish ko'zda tutiladi. O'z navbatida yo'llar, tarixiy obidalarni ta'mirlash masalalari ham asosiy vazifa qilib qo'yilgan. Ashxobod (qadimgi parilar markazi – Nisa), Mari (Merv), Chorjo'y (Amul), Buxoro, Samarqand (Maroqand), Panjakent (Zarafshon vohasi), O'ratepa (qadimgi Ustrushan) bo'ylab turistik yo'l mo'ljallandi. Qolgan ikki yo'nalishlar esa qadimgi davrlaridagidek mamlakatlarning holati, munosabatlariga qarab belgilanishi ko'zda tutildi, ya'ni Farg'ona vodiysi (qadimgi Parkan yoki Dovon) orqali Osh, Qashqar (shimoliy Xitoy), ikkinchi esa: Samarqanddan Toshkent orqali qadimgi Choch – eroncha, Binket – turkcha, Shosh – arabcha) Jambul (qadimgi Taroz), Chu daryosi vohasi, Frunze shahri

(Bishkek), Issiqko'l (qadimgi Barexon), Prjevalsk, Qashqarga o'tish edi.

Ko'pgina mamlakatlarning olimlari qadimgi yo'llarni bosib o'tishdi, Osiyo mamlakatlarining olimlari bilan yaqindan aloqalar bog'lashdi va kelajakdagi rejalarni tuzishdi.

1990–1992-yillarda xorijiy mamlakatlarning ommaviy axborot vositalarida ekspertizachilar tomonidan bir necha ma'lumotlar e'lon qilindi, o'zaro muloqotlar o'tkazildi.

O'zbek turizm kompaniyasi va uning joylardagi tarmoqlari yangi yo'nalishlar (marshrut) ishlab chiqdi. Bunda mehmonxonalar kompleksini tayyorlashga alohida e'tiborni qaratdi, ya'ni «Buyuk ipak yo'li» bo'yicha yuqori darajadagi turistik xizmatlarni boshqarish zarur edi. Shuningdek, «Xorazm oltin halqasi», Shoxruxiya, Kanka (Xonqa), Mozortepa va Qoshtepa kabi «Buyuk ipak yo'li» manzilgohlariga borish yo'llari ishlab chiqildi. «Farg'ona halqasi» Qamchiq dovoni orqali Toshkentga o'tish, Pop, Namangan, Andijon, Ershi (Marhamat qishlog'i), Marg'ilon, Qo'qon, Farg'ona vodiysi bo'ylab sayohat yo'llaridir.

O'zbekistonning mustaqilligi juda ko'p xorijiy mamlakatlar bilan turistik aloqalarni bog'lash va o'zaro hamkorlik qilish bo'yicha shartnomalar tuzishni taqozo etdi va bu yo'lda samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy hamkorlikni tashkil qilish (IHT-EKO) bo'yicha Afg'oniston, Eron, Pokiston, Turkiya, Xitoy va boshqa davlatlar bilan ulovlar (transport) orqali aloqada bo'lish shartnomalari imzolandi. Shuningdek, yuk mashinalari bilan aloqa o'rnatishda Germaniya bilan hamkorlik yaxshi natijalar bermoqda.

O'zbekiston Yaponiya, Germaniya, Turkiya firmalari bilan hozirgi zamon aloqalari tarmog'ini o'rnatish shakllaridan keng foydalanmoqda.

Respublika prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, Samarqand, Buxoro, Xiva «Buyuk ipak yo'li»ning asosiy manzilgohlari sifatida jahonga mashhurdir. Yurtimiz hududlarida 4000 dan ortiq arxitektura yodgorliklari joylashgan. Ularning ko'pchiligi YUNESKO nazoratida bo'lib, iqlim sharoitimiz sayyohlarni (turistlar) yil bo'yicha qabul qilishga qulaydir.

Xalqaro turizmni rivojlantirishda prezident I.A.Karimovning chet mamlakatlarga rasmiy tashrif buyurishi, juda ko'p sohalarida shartnomalar imzolashi buyuk burilish bo'ldi.

Altendorf shahrida (Shvetsariya) O'zbekistonning savdo uyi ochilishi, 1995-yil Muruntovda «Zarafshon – Nyumont» qo'shma korxonasining tuzilishi muhim voqea bo'ldi. Zarafshon vohasi va Qizilqum sahrolari bo'ylab o'tgan qadimgi «Buyuk ipak yo'li» hozirgi davrning asosiy manzillariga aylandi. Muruntovda O'zbekiston – Amerika qo'shma korxonasi 24 soat mobaynida 37 tonna qazilmalarni elab, yuvib ishlab chiqaradi. Undan esa xalqaro andozalardagi oltin, kumush ajratib olinmoqda. Mazkur tadbirlar va asosiy faoliyatlar qadimgi Sharq va G'arb o'rtasidagi bog'lovchi markaz sifatida «Buyuk ipak yo'li»ning hozirgi davr talablariga xizmat qilmoqda.

Mamlakatda turizmni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan Respublika Prezidentining farmonlari, hukumat qarorlarida (3, 4) aks ettirilishicha Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarida erkin savdo zonolari (shohobcha) tashkil etildi. Erkin savdo zonasi tushunchasi yangicha bo'lib, u xo'jalik faoliyatlarini tashkil qilish shakli hisoblanadi. Ular xalqaro miqyosda asosan, o'tgan asrning 50-yillarida, vujudga kelgan. 70-yillarda keng ravishda shakllanib, jahon miqyosiga aylangan. Hozirgi davrda jahon bo'yicha 700 dan ortiq erkin savdo zonasi mavjuddir. Bular Vengriya va Yugoslaviya bojxona zonasi, Osiyo va Afrika mamlakatlarining ustama narxsiz (безпошлинные) zonolari, Malayziya va Puerto-Riko ishlab chiqarish korxonalari, Braziliyaning chet elga chiqarish ishlab chiqarish korxonasi, AQSHning tadbirkorlik va texnologiya erkin zonasi, Angliyaning tadbirkorlik zonasi, Germaniyaning erkin portlari (suv yo'li), Lixtenshteyn, Shveysariya va boshqa mamlakatlarning bank zonolari kabilardir.

O'zbekistonda erkin savdo zonalarining tashkil qilinishiga asosiy sabablardan biri shundaki, chet mamlakatlarning yurtimizga qiziqishlari, ya'ni tashqi savdoni tashkil etish, faoliyat ko'rsatayotgan yoki tarmoqli (turizm ham) kompleks va boshqalar faoliyatlarining shakli hisoblanadi.

Turistik erkin zonalarining madaniy-tarixiy markazlarda tashkil etilishi chet mamlakatlarning maxsus firmalari va kompaniyalarini jalb etish yo'li bilan ularga ma'lum darajada imkoniyatlar yaratishga to'g'ri keladi.

Shu asosda qisqa vaqtlar ichida turizmning moddiy texnikasini yaratish va ularni xalqaro me'yorlar hamda andozalarga yetishtirishning muhim omili, bosqichi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa tariqasida ta'kidlash lozimki, XVII asrdan boshlab turli urushlar xalqaro miqyosdagi savdo hamda madaniy aloqalarni susaytirgan va batamom tugatgan. Bu yilda «Buyuk ipak yo'li» ham to'la yopilgan. Markaziy Osiyo davlatlaridan yetishib chiqqan va jahonga mashhur bo'lgan Ibn Sino, al-Forobiy, al-Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi buyuk siymolarning vatani XIX asr o'rtalariga kelib, o'z mavqeyini yo'qotdi.

Bugungi mustaqilligimiz, «Ipak yo'li»ning markazi sifatida uning mohiyatini qayta tiklamoqda. Bu orqali jahon xalqlarining o'zaro madaniy aloqalarini kengaytirish va rivojlantirish yo'lida ulkan tadbirlar amalga oshirilmoqda.

«Buyuk ipak yo'li» tarixini o'rganishda manzillarga bevosita sayohat qilishni davr taqozo etmoqda. Shu sababdan mamlakatimizda katta tadbirlar tashkil qilinmoqda.

O'zbek turizm kompaniyasining tashkil etilishi mamlakatda ichki va tashqi – xalqaro turizmni yangi talablar, davr talabi yuzasidan yuritishni taqozo qildi. Shuningdek, «Turizm to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi (1999-y) hamda turizm xizmatlari bilan bog'liq kadrlar tayyorlash, ularning faoliyatini maqsadli olib borish masalalari bilan bog'liq. Respublika hukumatining qarorlari (1999-y. iyun.) turizmning shakl va mazmunlarini xalqaro andozalar asosida sayr (ekskursiya) va sayohatlarga (путешествия) aylantirdi. Shu sababdan Toshkent iqtisodiyot universiteti qoshida (avval madaniyat instituti) turizm bo'yicha fakultet tashkil etildi. Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida turizm kasb-hunar kollejlari ishga tushirildi. Ularning asosiy vazifasi ichki va xalqaro turizm faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha malakalar bilan bo'lajak kadrlarni qurollantirishdan iboratdir. Bunda ekskursiya (sayr) va sayohatlarni tashkil qilishda mehmonlarni kutib olish, mehmonxonalarga joylashtirish, ovqatlantirish, ulovlar (mashina, poyezd va boshqalar) bilan ta'minlash hamda madaniy xizmatlar ko'rsatish kabi muhim hamda murakkab faoliyatlar mujassamlashgan. Mazkur xizmatlarga sarflanadigan moddiy texnik omillar (resurslar) davlat va o'z-o'zini boshqarish bilan yig'ilgan mablag'lardan foydalanish ko'zda tutilgan. Yana bir muhim jihati

shundaki, sayohatlar va ularga xizmat qiluvchilarning (mexanika, sayr manzillari, yo'llar va hokazolar) xavfsizligini muhofaza qilish ham alohida o'rin egallagan.

Demak, turizm xizmatlari va tashkiliy jihatlarini faqat joylardagi turizm kompaniyalari xodimlarining emas, balki davlat idoralari, jamoatchi tashkilotlar, xayriya jamg'armalari, fermerlar, homiylarning ham faol ishtirokini o'z ichiga olmoqda. Shu jihatdan olganda, barcha sohadagi kasb-hunar kollejlari, ayniqsa, turizm kollejlari hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o'quvchi yoshlar, talabalar turizmni tashkil qilish yo'llarini puxta egallashlari lozim bo'ladi. Buning uchun esa mazkur o'quv yurtlarida mutaxassis kadrlar faoliyatlarini kuchaytirish, o'quv va amaliyot (praktika) jarayonlarini maqsadli tashkil qilish kerak bo'ladi. Shu bilan birgalikda o'quvchi yoshlar va talabalarni dam olish kuni, ta'til paytlarida bir kunlik va ko'p kunlik (5-6 va undan ortiq kunlar) piyoda yurish sayohatlarini (paxod) ham uyushtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bo'lajak kasb-hunar egalari muhim bilimlar bilan birgalikda turizmning tashkiliy va amaliy xizmatlarini bilishlari zarurdir.

II bob. «BUYUK IPAK YO'LI»DAGI BA'ZI MANZILLAR VA FAOLIYATLAR HAQIDA

2.1. Manzillar haqida qisqacha bayon

«Buyuk ipak yo'li»ni o'rganish maqsadida olib borilayotgan qidiruv va sarguzashtlarda ishtirok etgan olimlar, mutaxassislarning (8) ta'kidlashicha, «Ipak yo'li» hamda ulardagi eng muhim manzillar haqida eng qadimgi olimlar ham ba'zi bir aniq ma'lumotlarni qoldirishgan.

Grek tarixchisi Gerodot (eradan avvalgi V asr) Yevropada karvon yo'llarining ochilishi haqida juda qimmatli dalillarni bayon etgan. U Axemenid mamlakatlarining yo'llarini shaxsan kezib o'tgan. O'zining ishlarida (yozma) «Shoh-roh» (Podsholar yo'li) haqida eslatgan. Demak, karvon yo'llari Axemenidlar davrigacha (eradan avvalgi VI asr) ham bo'lganligidan dalolatdir.

Gerodotning yozib qoldirishicha, qadimgi savdo karvon yo'llari, ya'ni «podsholar yo'li» Efesdan boshlanib, Egey dengizi qirg'oqlari orqali to qadimgi Lidiya Sardam markazigacha, undan esa qadimgi Elam (Eron) markazi Suzamga cho'zilgan. Gerodotning eslatishicha, Egey dengizidan fors (Persiya) ko'rfazigacha 14 ming stadiya (200 km.dan oshiq) masofa bo'lgan. Bu yo'lda «Shohlar mehmonxonasi va chiroyli qilib bezatilgan yotoqxonalar» mavjud bo'lgan. Boshqa yana bir grek tarixchisi Ksenafontning aytishicha, mehmonxonalar har 25–30 kilometrda qurilgan bo'lib, maxsus topshiriqlarni bajaruvchilar (elchi) hamda shaxsiy sayohatchilar, qidiruvchilar dam olishgan va hordiq chiqarishgan. Yo'lda boruvchilarning xavfsizligi davlat xizmatidagi kishilar tomonidan ta'minlangan.

«Podsholar yo'li»dan tashqari yana yaxshi qurilgan mahalliy yo'llar ham mavjud bo'lgan. Bular asosan «Podsholar yo'li»dan Markaziy Osiyogacha cho'zilgan.

Ptolomeyning «Jo'g'rofiy qo'llanma»sida yozilishicha, yangi eradan avvalgi III–II asrlarda Azov dengizidan quyi Povoljiya orqali

Xorazmga, undan janubiy Sharqqa Amudaryo bo'ylab, «Podsholar yo'li»ga tutashgan.

Hozirgi Turkmanistonning janubidan «Podsholar yo'li» Reydan (qadimgi fors shahri – Rag) Kasbiy darvozasi orqali Turkman–Xuroson markaziy vodiysiga (hozirgi Xirotda) va undan esa Baqtriya orqali Fors ko'rfaziga qo'shilgan.

Eng qadimgi mualliflarning guvohlik berishicha, Amudaryo bo'ylab suv yo'li va ikki qirg'oq bo'yicha quruqlik yo'llari mavjud bo'lgan. Bu to'g'rida Xitoy manbalarida ham qayd etilgan, ya'ni Guyjuy (Amudaryo) bo'ylab suv yo'li Parfin savdogarlari suzib o'tishgan.

Mazkur yo'llar orqali eradan avvalgi IV asrda Aleksandr Makedonskiy ham sharqqa yurish qilgan. Aleksandr Makedonskiyning Samarqandda bo'lishi va Panjakentda qattiq, shiddatli jang olib borganligi haqida yuqorida bayon etilgan edi. U 326-yilda (eradan oldin) kichik ko'llar orqali Termizdan Baqtriyaga va Hindiqush orqali Hindistonga yo'l olgan.

Eradan avvalgi 312–250-yillarda Baqtriya va So'g'diylarning hududlari keng doiradagi Slev hokimiyatiga qaram bo'lgan. Podshoh Selevkid va uning o'g'li Antiox Osiyo yerlariga greklarni olib kelib joylashtirgan. Ular urush va qo'zg'olonlarni bostirish yoki uning oldini olishga xizmat qilgan

Eradan oldingi II asrda savdo karvon yo'llari Baqtriya, So'g'diyona va Xorazmni Yevropa, Eron, Hindiston va Sibirni birlashgan. «Podshoh yo'llari» davlatlar o'rtasida savdo ishlarinigina yuritib qolmasdan, balki joylardagi qadimgi tabiiy boyliklarni topish, ulardan turli xil sopol, temir, tilla, zarli buyumlarni yasashga, ularni savdoga chiqarishga ham katta hissa qo'shgan.

Selevkid katta davlatni tuzib, Selevkidlar (312–64 eradan oldin) hokimiyatini uzoq vaqtlar ushlab turgan va «Tosh minora»ni (каменная башня) (Beruniy tasviri bo'yicha Choch, ya'ni hozirgi Toshkent) Qora dengiz va Hindistonni birlashtirish rejasini tuzgan. Bunda Amudaryo, Kaspiy dengiz va Hindiqush tog'laridagi daryolardan foydalanish ko'zda tutilgan. «Tosh minora» (Toshkent) o'sha davrlarda xalqaro savdo markazi va yarmarka o'tkazish manzili bo'lib hisoblangan. Chunki Baqtriya orqali Xitoyga, ya'ni Amudaryo orqali quyiga, Marv orqali Yevropaga, Taraz orqali shimolga, Sibirga kesib o'tish (chorroha) markazi hisoblanib, «oltin

yo'l»ni tashkil etgan, ya'ni oltin va boshqa qimmatbaho buyumlarni sotish, olib o'tishga bu joy qulayligi bilan xizmat qilgan.

Yangi eradan avvalgi II asrda Osiyo yo'llari Xitoy sayyohlarining (путишественник) diqqatini jalb etgan. Bunda sayyoh Chjan Syanning xizmatlari e'tiborga loyiqdir.

Bu davrga kelib, Selevkidlarning hukumronligi tugagan payt hisoblanadi. Uning o'rniga uchta katta hokimiyat: Parfiya davlati, uning tarkibida hozirgi Turkmaniston hududlari; Grek-Baqtriya podsholigi (царство), uning tarkibida hozirgi Tojikiston va janubiy O'zbekiston hududlari va nihoyat Kangyuy yoki Kangxa (qadimgi Xorazm) vujudga kelgan. Grek-Baqtriya podsholigi va Parfiya davlatlari o'rtasida doimiy ravishda kurashlar bo'lib turgan. Chunki, Yevropaga o'tuvchi savdo yo'lining shu yerlardan o'tishi unga sabab bo'lgan.

Grek - Baqtriya davlati Zarafshon vohasidagi yerlarga va Parkanaga (Dovon-Farg'ona) ham ko'z olaytirgan. Bu hududlar Sibir, Sharqiy Turkiston va Qashqarga o'tuvchi savdo yo'llarini o'z ichiga olgan. Shuningdek, uzoq muddatlar davomida Sug'diylar koloniyalari bo'lib hisoblangan.

Zarafshon va Dovon (Farg'ona) vodiylari shimoldan kuchli bo'lib hisoblangan Kongyuy (Xorazm) tomonidan nazoratda bo'lgan.

Turli xil urushlar natijasida Amudaryoning ikki qirg'og'i va suv yo'li bekitilgan. Shu sababdan shimolda yangi savdo yo'li ochilib, ko'proq xizmat qilgan. Eran avvalgi minginchi yilning oxirlarida Kangyuy orqali Yevropaga yo'l ochilgan. Bu yo'l savdo markazi va yo'llar kesishgan (chorroha) Shoshdan (Toshkent) boshlanib, shimolga Tarazgacha (Janbul) borgan. Bu joy sharqqa Chu vodiysi, shimolga va sharqqa yo'nalish beruvchi manzil bo'lgan. Sirdaryo qirg'oqlari orqali Emba daryosigacha, ya'ni janubdan Amudaryo orqali kelgan yo'lining tutashishi, Embadan esa Volga daryosi o'tish amalga oshirilgan. Shu tariqa Qora dengiz yo'llari, keyin esa Qora dengizdan Suriya, undan Bobil (Vavilon) va boshqa joylarga o'tish imkoni bo'lgan. Ko'proq harbiy yurishlarda bu yo'ldan janubda ko'proq foydalanishgan.

Qadimgi davrlarda Shosh (Toshkent) orqali Dovonga (Farg'ona vodiysi) o'tish savdo yo'llari va undan turtan, Sharqiy Turkistonga o'tishda Soymoyli tosh hududi, ya'ni Farg'ona tog'laridagi Qo'g'ot dovonida to'xtash, dam olishga to'g'ri kelgan. Shu sababdan bu

yerdagi qoya toshlarga turli yozuvlar, suratlar solinib, uzoq o'tmishdagi savdo yo'li haqida guvohlik bergan. Bu guvohliklar Turk – Qo'g'inot davridan oldin, ya'ni (II asr) «Buyuk ipak yo'li»ning boshlanishidan oldin yaratilganligini ba'zi mutaxassislar ta'kidlagan.

«Buyuk ipak yo'li» haqidagi ma'lumotlar I.O.Begurin va L.N.Guminevlarning «Хунну. Средняя азия в древние времена». (M.1960), nomli ilmiy tadqiqotida batafsil ifodalangan. Unda Xitoy «tarix otasi»ning muallifi Sima Syap esdaliklari asos qilib olingan.

Sima Syap Sima Tanning o'g'li bo'lib, uning otasi (Sima Tan) eradan avvalgi II asr oxiri va yangi davrning I asridagi Xitoy imperatori U-di saroyida astrolog (bashoratchi) bo'lib xizmat qilgan. Bu davrda Xitoy-Dovon (Farg'ona) urushi davom etgan. U «Shisan» (tarixiy yozma esdalik) kitobini yozadi va unda «Nima uchun Xitoyning g'olibona quroli ko'chmanchilar kuchini sindirolmadi?» – degan savolni birinchi bo'lib oldinga qo'ydi.

Xitoy imperatori U-di Xunlar bilan kurashish yo'lini topish va ittifoqchilarni izlash maqsadida Yuechji (Turklar qabilasi) botir va harbiy amaldori Chjan Syanni sayohatchi sifatida ularning yurtiga safarbar etadi. Lekin u Xunlarga asir bo'lib tushadi. Bu voqea taxminan eradan avvalgi 158–154-yillarga to'g'ri keladi. Chjan Syan Xunlarda 10 yil asr bo'lib turadi va keyin Dovonga (Farg'ona) qochib o'tadi. Dovonliklar uni yaxshi qabul qiladi. Undan Xitoy to'g'risida ma'lumotlar oladi. Keyin uni yo'lboshchi (проводник) qilib tayinladi va u So'g'diyona orqali Baqtriyaga (Yuechjilar yurti) o'tadi. Baqtriyaliklar Xunlar bilan jang qilish to'g'risidagi Xitoy taklifini qabul etmaydi. Keyin Chjan Syan qaytib keladi va Dovon orqali Xitoyga o'tishga urinadi, lekin Xunlar uni yana asirga tushiradi. Eradan oldingi 120-yilda u Xitoyga qochib o'tadi. Keyin imperator U-diga Dovon haqida batafsil gapirib beradi. Bunda tog'lardagi chorvafar, Mirzacho'ldagi ko'chmanchi Kangyuy mamlakati, Kaspiy dengizi atrofidagi Yansay (antax) aholisi, Ansi (Parfiya) – davlati (Markaziy Osiyo va boshqa) haqida hikoya qiladi. Dovon xalqidan Tyao-Chji (Mesopotamiya) – G'arbda va Shendu (Hindiston) – Janubiy Sharqdagi davlatlar borligini eshitadi va keyinchalik u o'sha yerlarga sayohat qiladi.

Bu voqealarni eshitgan Xitoy imperatori Ansi, Yansay (Sarmatiya) Tyao-Chji va Shendu, hatto Ligan (Rim) mamlakatlariga

elchilarni yuboradi. Bu to'g'risida rimlik tarixchi Lusiy Aney Flor (eradan oldingi II asrda yashagan) Serlar (Xitoy) elchisi haqida imperatori Augustga yozadi.

Xitoy savdo va aloqa yo'li shimolga ko'proq qaratilganligi sababli, janubiy yo'l asta-sekin o'z faoliyatini susaytiradi.

Chjan Syan Dovondan (Farg'ona) arpa, bodring urug'lari, uzum, anor, anjir, yong'oqlar keltiradi va bu donlar hamda mevalarni ekip, ular ko'paytiriladi.

Chjan Syan imperatorga Dovon va uning xalqi, ishlab chiqaradigan turli mahsulotlari haqida hikoya qilib beradi. Buyumlarni bezashda oltin va turmush sharoitida asaldan foydalanishlari, lekin temirmi bilmasliklari, shaxsiy puli (monet) yo'qligini aytadi. Dovonda 70 ta shahar borligini, ya'ni: Yu-gen yoki Gu-shan (Uzgan), Ershi (hozirgi Marhamat), Axsikent, O'ratega kabilar.

Chjan Syan 25 yildan keyin (eradan oldingi 123–119-y.). Dovonga yana qaytib keladi. Mahalliy xalq tinch ravishda savdo qilishga intilgan va «Ipak yo'li»ning o'tishi haqidagi xabarni eshitib g'oyat xursand bo'ladi. Shu tariqa II asrning (eradan oldin) 20-yillarida Farg'ona vodiysida «Ipak yo'li» ochiladi.

Xitoy bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni shakllanishi va rivojlanishi O'rta Osiyoning janubiy xalqi Grek-Makedonskiy hukumronligidan ozod bo'lish va mustaqil davlatlar tuzish davriga to'g'ri keladi.

Shu davrning madaniyati va san'atidagi xususiyatlar shundaki, mahalliy, greklarning to'qimachiligida Hindiston, Xitoy va Eron bezaklari, chizgilari paydo bo'la boshladi.

Eradan oldingi 105-yilda Xitoy elchisi Che Lin Dovonga keladi va oltin, kumushga bir necha otlarni sotib olmoqchi bo'ladi. Chunki, Dovon otlari chopqir, yuk tortuvchi, chiroyli bo'lgan. Xitoy imperatorining buyrug'i asosida bir nechta «samo otlari»ni (Небесный каней) va 3000 baytalni sotishlarini dav'at etdi. Lekin dovonliklar bunga rad javobini qilishadi. Natijada, elchi mahalliy oqsoqollarni so'kib, haqorat qilgan va «oltin otlarni itarib» qaytib ketgan.

Haqoratlangan dovonliklar Xitoy elchisining karvoniga hujum qilishgan, elchixonani vayronaga aylantirib, mol-mulklarini talon-toraj qilishgan.

Voqeadan xabar topgan Xitoy imperatori dovonliklarning kuchsizligidan foydalanib, 6 ming boshqa qabiladagi kishilar va bir necha o'n minglab yosh «Xitoy bezorilari»ni jangga yuboradi. Shu tariqa Xitoy-Dovon urushiga sabab topadi.

Eradan oldingi 104-yilda Xitoy dovonga qarshi harbiy yurish qiladi. Asosiy maqsad Dovon markazi Ershi shahrini egallash va arg'umoqlarga ega bo'lish edi. Urush ikki yil (104–103) davom etadi va «Ipak yo'li» yopiladi.

Xitoy jangchilari shimoliy «Ipak yo'li»ni to'la egallash va Xunlarni o'ziga qaratish uchun katta jang qilsada, ular maqsadga erisha olmaydi, juda ko'p mingli askarlari (170 ming atrofida) va otlaridan judo bo'lishadi.

Xullas, Xitoy imperatorlari o'z atroflaridagi mamlakatlar (Xun, Dovon) bilan uzoq vaqtlar jang qilishdi. Shuningdek, Kongyuy (Xorazm) bilan aloqalarini yaxshilay olmadi.

Eradan oldingi I asr oxirlari va yangi eraning I asr boshlarida Xitoyning «Ipak yo'li» So'g'dlar va Baqtriya vositachiligida G'arb bilan bog'landi. Bu davr butunlay boshqacha davr edi, ya'ni Markaziy Osiyoda Kushon podsholigi (hukmronligi) davlati vujudga kelgan edi.

2.2. Kushon podsholigi va Eftalitlar davlati davrida savdo hamda iqtisodiy-madaniy aloqalar

Tarixiy manbalar, xalqaro turizm ekspeditsiyalarining (8) ma'lumotlariga qaraganda Eradan avvalgi I asr oxirlaridan tortib, to Yangi eraning IV asrigacha Markaziy Osiyoda Kushonlar davri nomi bilan yuritilgan davlat vujudga kelgan. Qadimgi yuzchi (yuechji) qabilalari besh bo'lakka ajralgan, ya'ni: Xyuti, Shuanmi, Guyshuan, Xise va Dumlar (Xitoy manbalari o'z tillarida shunday ifodalangan). Yuzchilar birlashmasining to'xtalar qabilasidan chiqqan Kioszyukyu (Kadfiz) yuz yildan ortiq vaqt ichida o'zini Kushonlar podshosi deb e'lon qilgan. U Ansi (Parfiya) yerlarini bosib oladi, Hindiqush janubida joylashgan Puduni (Paropomisadlar) va Gibanni (Qobul) yakson qiladi. O'zining siyosiy markazini esa Hindistonning Shimoliy-G'arb tomoniga ko'chiradi.

Yangi eraning I asr boshlarida Kushonlar podshosi Kadfis I Xorazm va So'g'ddan tortib Hindgacha hamda Pomirdan

Parfiyagacha bo'lgan yerlarni o'ziga qo'shib olgan. Kangxa (Xorazm) davlati Xunlar va Xitoy bilan kurashlarda ancha kuchsizlangan bo'lsada mustaqil edi. Kadfis I ning vorisi Kadfis II (51–78-yy.). Hindistondan Banorasgacha bo'lgan yerlarni o'ziga qaratadi. Shu tariqa Hindistondagi Grek-Baqtriya hukmronligiga chek qo'yadi. Kushonlar podsholigining eng rivojlangan davri Kanishka (78–123-yy.) podsholigiga to'g'ri keladi. Siyosiy markaz Peshavar (Shimoliy Hindiston) bo'lib hisoblangan.

Kanishkaning Xitoy malikasiga uylanishi Kushonlar va Xitoy o'rtasida nizo chiqaradi. Kanishka quda-elchilarni asrga olish uchun Sharqiy Turkistonga 60 ming jangchilarni yuboradi. Lekin ular mag'lubiyatga uchraydi. Lekin, 105-yilda Xo'tan, Qashqar va Yorkent Xitoydan ajralib chiqadi, keyinchalik esa ular Kushonlar podsholigi tarkibiga qo'shiladi. Kushonlar juda katta kenglik yerlardagi «Buyuk ipak yo'li»ning ega bo'lib oladi.

Kanishka g'arb mamlakatlari bilan aloqa bog'laydi. 90-yilda Kushonlar elchixonasi Rimda tashkil etiladi. II asrda esa yangidan elchixonalar tashkil qilingan.

Xitoy bilan savdo aloqalarini o'rnatilishi (eradan oldingi II asr) Kushonlar podsholigi davrida ancha kengaytirilib, mustahkamlangan. Kushonlar savdo aloqalarini Sharqda-Xitoy, Janubda – Hindiston, g'arbda – Eron orqali Suriya, Rim va shimolda – Xorazm orqali sharqiy Yevropa yo'nalishlari bo'yicha olib borgan. Bu davrlarda savdoda asosan Xitoy shoyi-ipagi, matolarga gul soluvchi rangli bo'yoqlar, sopollardan yasalgan buyumlar, oltin, kumush, zar va turli xil buyumlar ko'p ishlatilgan. IV asrga kelib Kushonlar podsholigi yemirilib, uning o'rniga Massagetlar qabilasi hukmron doiraga aylangan. V asr oxiriga kelib esa, Kushonlar yeri Eftalitlarga birlashadi. Eftalitlar eng kuchli Massagetlar qabilasining bir bo'lagi bo'lgan.

Eftalitlar 457-yildan boshlab Chag'aniyon, Toxariston va Badaxshonni o'ziga birlashtirgan. Ularning podshosi Vaxshuvor Sosoniylar (Eron) shohi Peroz bilan jang olib boradi va uni asrga oladi. 484-yilda shoh Perozni asrdan qutqazib (sotib oladi). Uning o'rniga kichik o'g'lini Kavot asrga qoldiradi. Shu yili Vizantiya yordamida 3-marotaba harbiy yurish qiladi. Lekin o'z askarlari bilan qamalga tushib qoladi va halok bo'ladi. Shundan keyin Eftalitlar

Marvni istilo qilib oladi. Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkistonni birlashtirib, Markaziy Osiyoni hukmron doiraga aylantirgan.

Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, Eftalitlarning Gurgan (Eron chegaradoshlari bilan), Balx (Balxan) kabi shaharlari bo'lgan. O'sha davrlarda Eftalitlarning asosiy shaharlari So'g'dlarning joylarida bo'lgan, ya'ni: Samarqand, Kushaniya (Kattaqo'rg'on), Maymurg (Samarqanddan 7 kilometr narida) uning yonida Revad kabilar bo'lgan. Revad Samarqandga nisbatan mavqeyi baland bo'lgani uchun bu yerga Xitoy o'z elchini yuborgan.

Eftalitlar Kasbiy dengizi portlarida «Ipak yo'li»ning egasi sifatida Eron, Vizantiya, Hindiston va Xitoy bilan savdo aloqalarini kuchaytirgan. 516-yil So'g'ddan (maymurg) Xitoyga elchi yuborilgan. Kushonlar davridagidek Eftalitlarda ham Xitoy va Vizantiya o'rtasidagi Savdo aloqalarini yuritishda So'g'diyona asosiy manzil bo'lib hisoblangan. Lekin bu davrlarda Sosoniy Eronlari ham o'rtada vositachilikka tarafdor bo'lishgan. Xitoy va Vizantiya o'rtasidagi «Ipak yo'li»da asosan savdo shoyi (ipak), shisha, qimmatbaho toshlar, turli xil bo'yoqlar ishlatilgan.

Eftalitlar jahon savdo bozoriga chiqishga harakat qilgan. Lekin o'zining pullari (tanga) bo'lmagan. Shu sababdan Xorazm, Eron, So'g'd tangalaridan foydalangan.

Eftalitlar yozuvida Turklar, Eronlar va boshqa tillar ishlatilgan. Avvallari Rim va Suriyaning rangli shishalarini Xitoyga o'tkazgan bo'lsa, keyinchalik bu ishlarni Eftalitlar o'zlari ishlab chiqargan va Xitoyga sotgan. Xitoy imperatorlari rangli shishalarni o'zida ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan va ularni saroylar, savdo markazlarida devorga o'rnatib katta madaniyatga erishganlar. Shu tariqa xitoyliklar eftalitlardan rangli shishalarni ishlab chiqarishni o'rganganlar. Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy va savdo aloqalari ancha yuqori ko'tarilgan.

2.3. Turk qozonati davrida «Buyuk ipak yo'li»ning yo'nalishlari

VI asrning ikkinchi yarmiga kelib turli qabilalar va xalqlar negizida Oltoy va Yettisuv (Семиречие) davlati yuzaga kelib, ular

Turk qozonati nomi bilan yuritilgan va o'z hokimiyatini Markaziy Osiyo xalqlariga o'tkazgan. Bu Eftalitlar podsholigiga batamom chek qo'yilganligining dalolati bo'lgan. Bunda qo'shni Eron mamlakati hech qanday e'tiroz bildirmagan. 563–567-yillarda Eftalitlar tor-mor etilgan keyin esa Eron turli xil sabablar (vaj) bilan turklarning Markaziy Osiyoga o'mashib olishiga qarshiliklar ko'rsata boshladi. Bunda eng asosiy sababni Eron o'ziga Eftalitlarning ba'zi joylarini qo'shib olish va So'g'dlarning Vizantiya shoyi-ipak savdosiga xalaqit berishdan iborat edi.

Eftalitlarning qarshiliklarini yenggan turklar sahrolarni zabt etib Volgagacha yetib bordi va yana davom etishni hal qilishmadi. Shu tariqa cho'lni So'g'diyona bilan bog'lab eng muhim bo'lgan savdoning rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. Shuning uchun So'g'diyona savdogarlari turklarga yon bosdi, avvaldan egallab kelgan karvon yo'llarini o'zida saqlab qolishdi. Turklar Markaziy Osiyoni o'zlarining bir qismi sifatida savdo yo'lini bog'lovchisi qilib Sharq va G'arb savdo aloqalarini kuchaytirdi. Eftalitlar esa tog'larga qochib ketishdi. Ularning avlodlari pomir tog'larida yashab, abdel nomi bilan bizning davrimizgacha yetib kelgan.

VI asrda Turk qozonati Eftalitlar va shimoliy Xitoy podsholiklarini tugatib, Sharq va G'arb sado yo'liga hukmronlik qila boshladi. Bunda turklar shimol va janubda (Pomir orqali) Yangi karvon yo'llarini ochadi. Bu yo'llar juda qiyin va o'tish uchun murakkab bo'lgan. Markaziy Osiyo karvon yo'llarida esa dam olar edi.

Savdo yo'li sifatida Qizil dengiz va Hind okeani xizmat qilib Xitoy va Yevropa mamlakatlari o'rtasida savdo madaniy aloqalar o'rnatildi.

540-yillarda Vizantiya va Eron o'rtasida urush boshlanadi. Xomashyo yetishmasligi sababli Suriyada shoyi to'qish manufakturasini tarqalib ketdi. 570-yillarda Xisrav Anushervon Yemenni egalladi. Bu holat Vizantiyani Qizil dengiz va hind okeani orqali savdo yo'lini to'sib qo'ygan edi. Bu davrda Turk qozonati siyosiy mavqega ega bo'lib Xitoydan ipak-shoyini ola boshladi va o'z manfaatlariga ishlatdi. So'g'dlar eftalitlarning Turklar tomonidan tor-mor qilinishiga xursand edi. Chunki ularning Osiyo hududlarida erkin va to'siqsiz savdo qilishi ishlab chiqarishga sharoitlar vujudga kelgan edi. Shu tufayli So'g'dlar Xisrav Anushervonga elchi yuborib

savdo qilish va Yevropaga chiqishga imkoniyat so'ragan edi. Lekin Eron shohi buni ep ko'rmadi. Chunki Yefrat bo'yicha Vizantiyalik ko'p mingli askar turar edi. Ular savdo mollarini tortib olishi aniq edi.

Turklar Vizantiya bilan ittifoq tuzib 568–569-yillarda Eronga qarshi yurishni rejalashtiradi. Shu sababdan Konstantinopoldagi Yustin II saroyiga So'g'd savdogari Mannaxni elchi qilib yuboradi. Unda Vizantiya bilan vositachisizlik yo'li bilan (Eronsiz) savdo aloqalarini yuritishga erishish va'da qilib qo'yiladi. Monax Istam nomidan sovg'a salomlar va xat bilan Eronning qaramog'ida bo'lgan davlatlarni chetlab o'tadi. Monax shimoliy Kasbiy dengizini chetlab Kavkaz tog'lari bo'ylab o'tib oladi. Yustin II Turk elchisi bilan yaxshi muloqotda bo'ladi va Eftalitlar holidan so'raydi. Elchi Eftalitlar shaharlarda yashaydi, shaharlarni turklar boshqaradi, deb javob qiladi. Keyin Vizantiya ham o'z elchisini qo'shib Turkarga yuboradi va ular So'g'diyona yerlari orqali o'z yurtlariga qaytib keladi, ya'ni elchilar Kavkaz, Volga, Orol (Shimoliy Kaspiy dengizini chetlab) Xorazm, Sirdaryo yoqalab o'tishgan. Bu davrda Turk qozonati podshosi Istemining mahkamasi Tekes daryosi vohasida (kuchidan shimolroqda), ya'ni Sharqiy. Turkistonda joylashgan bo'lgan. Turk podshosi Vizantiya elchisi Zemarx bilan bo'lgan muloqotida ipak-shoyi savdosini vositachisiz amalga oshirish Eronga qarshi urush qilish masalalari aytiladi. Shoiy savdo masalasi hal bo'lmadi. Chunki bu vaqtlarda Vizantiya ipak-shoyini ishlab chiqarishga erishgan va vositachisiz savdo qilishga erishgan edi. Vizantiya turklardan faqat Eronga qarshi jang qilishda yordam so'ragan edi xolos.

VI asrning 70-yillarida Eron va Vizantiya o'rtasidagi urushlar yosh Turk qozonati davlatining erkin rivojlanishiga imkoniyat yaratgan edi. Xitoyda esa imperatorlik kuchaya boshlagan edi. Bundan turklar foydalanib qolishdi, ya'ni Xitoyga qarshi zarbalar bera boshladi. Har yili ming bo'lak shoyi va o'lponlar (soliq) to'lashni majbur qilgan. Xitoy hokimiyati tepasiga Suy sulolasi (dinastiya) kelganligi (589–617-yy.) sababli turklarning Xitoy bilan dastlabki janglaridayoq mag'lubiyatga uchradi. Ocharchilik va kasallik hukm surib Turklar Xitoy imperatori qaramog'iga o'tadi. Ular hatto o'z nomlarini Xitoyga yurita boshladi. Kambag'allar esa Buxoro vohasiga qocha boshladi. Ular mahalliy xalq bilan birlashib

turk shahzodasi Obro'yga qo'shiladi hamda Paykentdagi qo'zg'olonda ishtirok etib shaharni zabt etishadi.

2.4. Arablar istilosi davrida «Buyuk ipak yo'li»ning sayohat manzillari

813-yilda Xalif al-Mamun Xurosonning taniqli yer egasi Tohir ibn Husainni Xuroson va Movarounnahr hokimi qilib tayinladi. Tohir o'z hokimiyatini mustaqil davlat qilish edi. Lekin u favqulodda vafot etdi. Al-Mamun 822-yilda mazkur hokimiyatni Tohirning o'g'li Abul Abbos Abdullohga beradi. Shu tariqa Tohiriylar sulolasi boshqaruvi Hirotda boshlanadi.

Bu davrda Movarounnaharda Asad ibn Samon xalifati va uning o'g'illariga bo'linish bo'lgan edi. Ular Samarqandda xalifachilikka qarshi qo'zg'olon boshlagan va shaharni egallagan. Rofe ibn Laysga qarshi jiddiy tadbirlar ko'ra boshladi. 819–820-yillarda Xalif Somoniylarni ba'zi viloyatlar va Movarounnahr shaharlariga hokim etib tayinladi. Nuh ibn Asadga Samarqandni Ahmad ibn Asadga Farg'onani, Yahyo ibn Asadga Shosh va Ustrushanni bo'lib berdi.

Xuroson va So'g'd Xalifga ma'lum bir vaqtgacha soliq to'lab turdi. Keyinchalik esa mustaqil siyosat yuritib, o'zining harbiy qismini tashkil etdi va mustahkamladi. Shuningdek, ko'plab rabotlar (qasr) qura boshladi.

Bu sohada Ahmad ibn Asad Farg'onada (819–820, 864–865-yy.) ko'proq faollik qilib, Movarounnahrd katta va keng davlat tuzdi. Uning siyosatini o'g'li Nosir (864–892-yy.) Samarqandda turib davom ettirdi. 874-yilda Buxoro vakillari Nosirga murojaat qilib, uni o'z qaramog'iga olishni taklif etadi. Nosir Buxoro kichik ukasi Ismoil ibn Ahmadni (874–907-yy.) tayinladi. Movarounnaharni o'z qo'liga olishi uchun aka-ukalar o'rtasida nizolar paydo bo'ldi va 888-yilda o'zaro urush qilib, bunda Nosir mag'lubiyatga uchradi.

Ismoil cho'l va Eron bilan aloqani yaxshiladi va mamlakatning ichki qurilishlari bilan shug'ullandi.

Movarounnahrd bu davrda qishloq xo'jaligi va mayda hunarmandchilik rivojlanadi. Zandonda qog'oz, matolar ishlab chiqarish kuchaydi, bu xalqaro bozorda katta ehtiyojga ega edi.

Tarixchi Narshaxiyning yozishicha «Matolarni barcha viloyatlar olib chiqadi, ya'ni: Eron, Fors, Hindiston va boshqalar».

Eskijketda paxtadan ko'p matolar tayyorlanib, unga ham ehtiyoj kuchli edi. Buxoroning boshqa shaharlarida ham bu kabi ishlab chiqarish va savdo faoliyati ancha rivojlangan edi.

Markaziy Osiyo shaharlari, Eron, Movarounnahr va Xorazmdan juda ko'p xil buyumlar savdoga keltirilgan. Buxorodan esa qorako'l teri, yog', moy (sochni moylash uchun), yumshoq matolar, nomoz o'qish gilamlari, gilamlar, mehmonxonalarda to'shash uchun gilam, sholchalar, ot egarlari va Tabariston matolari savdoga chiqarilgan.

Samarqand katta hunarmandchilik-savdo markaziga aylangan. Bu yerdan «Samarqand matolari», kumushrang matolar, parcha, satin va boshqa rangdagi matolar turklarga, qizil, sariq, ola-bula matolar, ro'mollar, kiyimlar, qayish, belmog'lar, katta miss qozonlar, yong'oq va boshqa ko'p mahsulot bozorga chiqarilib turilgan.

Andijondan (Robijon) qizil jundan qilingan chakmonlar (plash), rangli idish-buyumlar, oltingugurt kabi buyum va ashyolar ishlab chiqarilgan. Dizakdan (Jizzax) yaxshi junlar, kiyimlar, mis hamda temirdan yasalgan buyumlar ishlab chiqarilib, savdoga qo'yilgan. Asbarda toshko'mir kovlab olingan. Farg'onada neft kovlab olinib, uni sopol ko'zalarga solib savdoga chiqarishgan. Bu esa Abbosiylarning harbiy kuchlarida ko'p ishlatilgan. Keyinchalik esa neftni qipchoqlar ham iste'molda qo'llashgan.

Savdo ishlarida Xorazm juda katta rol o'ynagan. Bolgarlardan turli xil kiyim, temir buyumlar, meva-sabzavotlar, ozuqalar, uy hayvonlari, parrandalar keltirilgan. Xorazmda esa quritilgan mevalar ko'p bo'lgan. Turli xil ozuqalar, kiyimlar, baliq va boshqa iste'mol mollari Termezdan keltirilgan. Somoniylar davrida Markaziy Osiyo savdo karvonlarining eng ko'p o'tishi va savdo markaziga aylangan. Sharq va G'arbni savdo bilan bog'lash, shuningdek, janubi-sharqiy Yevropa, Eron va Kavkazni Mo'g'ullar hamda Xitoyni bir-biriga bog'lashda xizmat qilgan.

Abbosiylar xalifaligi davrida (VIII–IX asr) savdo karvonlari ko'proq mol tashish bilan e'tiborga qaratilgan bo'lsa, Tohiriylar davrida esa kundalik ehtiyojga zarur bo'lgan oziq-ovqatlar, hunarmandchilik uchun xomashyolarni keltirish bilan faoliyat ko'rsatishgan.

Eng jonli savdo karvon yo'llari Osiyooldi mamlakatlaridan mo'g'ullar va Xitoygacha bo'lgan oraliq edi. Bu yo'l qadimdan Bag'doddan Hamadon, Nishopur, Marv, Amul, Buxoro, Samarqand,

Shosh, Binket, Tarozi, Qulan, Marki, Bolasog'un, Suyob, issiqko'ning janubiy qirg'oqlari, Sharqiy Turkiston orqali Xitoyga yetib borgan.

Savdo, sayohat va madaniy aloqalarga xizmat qilgan karmonlarning hajmi (miqdori) xilma-xil bo'lgan. 922-yilda al-Muqtadir xalifaligidan Bulg'or podsholigiga yuborilgan karvonlar tarkibida 3000 ot va tuyalar hamda 5000 odamlar bo'lgan (8-47).

2.5. XI – XIV asrlarda savdo va sayohat yo'llari

X asr oxirlarida Yettisuv va Sharqiy Turkistonda katta o'zgarishlar yuz berdi. Qarluq, Chichil, Argu, Yog'ma kabi ko'p qabilali turklar Buddist, Xristian, Shamanist va h.k. bo'lib, 960-yilda Islom diniga birlashdi. Uyushgan qabilalar va xalqlar Qoraxoniylar (Qora-xalq, xon- boshqaruvchi) davlatini tuzishga muvaffaq bo'ladi. Uning tepasida Xorun ibn Mussa ibn Sabuq (arabcha, turkcha nomi noma'lum) turadi. Xorun ibn Mussa (yoki Bog'ra-xon) Yettisuv va Qashqirni, Shosh, Farg'ona va Qadimgi So'g'd yerlarini boshqaradi. Somoniylar davlatida bu davrda Nuh II ibn Mansur (967-997-yy.) turar edi.

992-yil Xarjenga (Malik raboti yaqinida) tor-mor bo'lgach, jangsiz Buxoroni qo'lga oladi. Nuh poytaxtni tashlab, Samarqandga ketadi. Bog'ra-xon esa kasal bo'lib qolib, vatani Qashqarga qaytadi. Lekin u yo'lda vafot etadi. Qoraxoniylar harakatining boshida Nosir bo'ladi va 996-yil Buxoro bo'lgan hujumini qayta davom ettiradi. 999-yil Buxoroning yengilishi sababli Qoraxoniylar Movarounnahrni bosib olishni mo'ljalladi.

Bu vaqtda G'aznada Xurosonni boshqarish huquqini Bag'dod xalifaligidan Mahmud G'aznaviy olgan edi.

X asrda Somoniylar davlati o'rniga ikkita yangi davlat tashkil etildi. Uning biri Qoraxoniylar, ya'ni Qashqardan Amudaryo bo'ylarigacha; Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Shosh, Farg'ona va qadimgi So'g'd yerlari edi. Ikkinchisi esa G'aznaviylar – Shimoliy Hindiston chegaralaridan tortib, deyarli Kaspiyning janubiy qirg'oqlarigacha bo'lgan yerlar hamda Afg'oniston va Eronni o'z ichiga olgan edi.

Mahmud G'aznaviy o'z podsholigi davrida (998-1030-yy.) 17 marta Panjob, Kashmir va Hindlarning boshqa viloyatlariga

bosqinchilik va talon-torajlik yurishlari uyushtirgan. Ko'p miqdordagi qimmatli boyliklarni karvonlarga to'ldirib g'azna va boshqa shaharlarga keltirdi. U saroylar, masjidlar, madrasalar qurdir. G'aznaviy Qashqarda turgan Qoraxoniylar boshlig'ini e'tirof etar edi.

Qoraxoniylar Mahmud G'aznaviy bilan bir necha bor jangga kirishda, bunda Amudaryoda savdo yo'lini egallash asosiy maqsad qilib qo'yilgan edi. Bu harakatlar Sharq va G'arb savdo-iqtisodiy aloqalarga ancha putur yetkazdi. Shu sababdan sayyohlar, sarguzashtchilar, qidiruvchilar harakatini ancha pasaytirib yuborgan edi.

Bunday notinch paytlarda Xorazm Qoraxoniylarga ham G'aznaviylarga ham qo'shilmagan edi. Xorazm Volga bo'yidan Markaziy Osiyo orqali Mo'g'uliston va Xitoyga o'tishi va ikkinchi tomondan esa Eronga o'tishida o'rta-oraliq bo'lganligi uchun savdo ishlari ancha rivoj topgan. Bu vaqtda Gus cho'llaridan (Qoraqum, Qizilqum sahrolari) Xorazmning chegara bozorlariga mollar, go'sht, jun keltirib sotilgan.

G'aznaviyning harakatchanligi va diplomatik qabul qilishlari unga qo'l keldi. Ya'ni: 1017-yilda Xorazm mustaqilligini yo'qotib G'aznaviylar davlati tarkibiga kiritildi.

XI asrning birinchi yarmida turk saljuqiylar (turkman qabilalari) harakati boshlanadi. 1040-yilda Mahmud G'aznaviy turkmandan yengiladi, shu sababli vayronaga aylangan G'aznaviylar davlati o'rniga Saljuqiylar davlati paydo bo'lgan. Eronning shimoliy va shimoliy g'arb yerlarining ko'p qismini, shuningdek, Marv, Xurosonning ko'p joylari, Tusa viloyati, Hirot va Seystonni o'ziga qaratadi. Saljuqiylar davlatining boshlig'i To'g'rulbek (1038–1063-yy.) bo'lib, u tezda Iroq, Ajam (Fors irkom), Ozarboyjon, Kurdiston va Ko'zistonni bosib oladi. Bag'dodga kirib Xalifni uning nomiga Xutba o'qishni majbur etadi.

Qoraxoniylar va Saljuqiylar o'rtasida Balx va Toxaristonni egallash uchun kurashlar boshlanadi. Bu kurash XI asrning ikkinchi yarmida ham davom etgan.

So'g'dning g'arbida XI asrda Malik raboti qurildi. Bu karmanadan 26 km, Buxorodan esa 120 km uzoqda joylashgan. Bu rabot XVII asrgacha savdo yo'lida xizmat vazifasini o'tagan. U faqat XIX asrda qarovsiz qolgan.

G'arbiy So'g'dda tarixiy-madaniy joylar ko'p qurilgan. Ayniqsa, Buxoroda o'tgan podsholar, ulamolar va katta boylik egasi bo'lgan ishbilarmonlar juda ko'p qasrlar, masjidlar, madrasalar, mehmonxonalar, sayyohlar uchun dam olish maskanlarini qurdirgan.

1130-yilga kelib Qoraxoniylar Movarounnahrni boshqarib turib mustaqil bo'lsada o'z mavqeyi va boshqaruvchilik faoliyatini yo'qotgan edi. Chunki, diniy sadrlar sulolasiga. Buxoro din jamiyatiga ular bo'ysunar edi.

XII asrda feodal hukmronlik yemirilishidan foydalangan. Sharqdan kelgan Qoraxoniylar hozirgi Qirg'iziston yerlarini bosib oladi. Keyin ular Shosh, Farg'ona, Zarafshon vodiysi va Qashqadaryogacha yetib keladi. Samarqand yaqinida Qoraxoniylar podshosi Mahmudni taslim qiladi. Qoraxoniylar Samarqand va Buxoroni o'ziga qaratib oldi, lekin o'zlarining kuchini mustahkamlashmadi.

Bu jarayonlardan Xorazm shohi Otsiz foydalandi. U 1141-yili Marvni bosib oldi. Nishopurga kelib, o'z siyosatini o'tkazmoqchi bo'ldi va Saljo'qiylar sultoni Sanjarni pisand qilmadi.

1153-yili ko'chmanchi g'uzlar Sanjar Sultonning askarlarini tor-mor qildi va o'zini asrga oldi, lekin Otsiz o'zining safdosh sultoni Sanjarni asrdan qochishga 1156-yili yordam berdi. Ammo u Saljuqiylar davlatini tiklamasdan 1157-yili vafot etdi.

Otasining siyosatini davom ettirish uchun II-Arslon (1156–1172-y) Saljuqiylar va Qoraxoniylarning Xorazmdagi vayronaga aylangan davlatini qayta tiklamoqchi bo'ldi. Lekin 1172-yili Qoraxoniylarga qarshi jangda halok bo'ladi.

Xorazm shoxlarining kuchli va birlashgan katta davlatini tashkil qilish II-Arslonning o'g'li Tekash zimmasiga tushadi.

1175–76-yilida Tekash xurosonni egallash uchun jang olib bordi. Movaronnahrga yurish qildi, Buxoroni egalladi. 1187-yili Nisho-purni, 1192-yili Rey, 1193-yili. Marvni egalladi. 1184-yil G'arbda Saljuqiylarni tor-mor qilib, Abbosiylar xalifaligi (Iroq) chegarasiga yetib bordi. 1196-yilda xalifalikni yengib Iroqqa kirib bordi, lekin u 1200-yilda vafot etdi.

Xorazmga Muhammad (1200–1220-yy.) shoh bo'ladi. U katta kuch to'plab Qoraxoniylarni yengadi. Buxoro dehqonlarining qo'zg'olonlarini bostirib, ularni o'ziga qaratadi. Samarqand hokimi Osmon bilan Muhammad birgalikda Yettisuv va Sharqiy Turkistonga

yo'l olishadi va Gurxon kuchluk ustidan g'olib keladi. U o'zini «Ikkinchi Iskandar» (Aleksandr) yani «Sanjar Sulton» deb atadi va uzukka «Ollohning yerdagi soyasi» deb shakl solishni buyuradi.

1121-yilda u qizini Samarqand hokimi Osmonga yerga beradi. Samarqandliklarning to'y karvoni aholiga zarba bera boshladi. Samarqandliklar bunga chidolmay, qo'zg'alon ko'taradi va Osmonni asrga oladi. Buni eshitgan Muhammad harbiy kuch yuborib, Samarqandni uch kun ichida vayronaga aylantirishni buyuradi. Shunda 10 ming aholi va Osmon ham halok bo'ladi.

Xorazmshoh yerlarini birlashtirish uchun harakat qilib yurganda, uzoq Mo'g'ulistonda Chingizxon boshchiligida ko'chmanchi feodal davlat vujudga kelgan edi. U janubi-sharqiy Osiyo va uzoq sharqda kuchli davlat sifatida xalqni titratib turar edi. Bu voqealardan boxabar bo'lgan Xorazmshoh Chingizxonga elchi va sovg'alar yuboradi. Chingizxon uni qabul qilib, o'zining elchilari orqali sovg'alar bilan Xorazmshohga javob qiladi. Shu tariqa ular o'rtasida rasmiy aloqa boshlanadi. Lekin Chingizxon Xorazmshohning itoat etishini so'raydi. Xorazmshoh esa buni ep ko'rmaydi va elchilarni qaytarib yuboradi. Bunda Sulton Muhammad Chingizxonni o'g'li sifatida ko'rishni aytgan edi. Chingizxon esa o'z navbatida Xorazmshohni o'zining yordamchisi (vassal) o'rnida tan olishni bildirgan. Xorazmshoh Chingizxonning takliflarini qabul qilgan va shartnomalarni imzolashga rozi ekanliklarini bildirib, elchi yuboradi. Bunda Chingizxon xursand bo'ladi. Chingizxon 1218-yil 450 kishini 500 tuyaga ortilgan savdo mollari bilan Xorazmga jo'natadi. Chingizxon karvonboshisi musulmon savdogari edi. Shimoliy yo'l orqali karvon Xorazm poytaxti Urganchga yo'l oladi. Bu paytda Xorazmshoh chegaradagi O'tror shahridagi harbiy garnizon (Turkistonning g'arbidagi vayrona joy)da karvonlarni kutib turar edi. Tarixiy manbalarga qaraganda O'tror garnizonining komendanti Inalchiq 1218-yilda Karvonlarni tutish va mol-mulklarini tortib olishga buyruq bergan. Natijada barcha yo'lovchilar yanchib tashlangan. Faqat ulardan bittasigina qutilib Chingizxonga yetib borishga ulgurgan va voqeani aytib bergan.

Bu vahshiy voqeani eshitgan Chingizxon Xorazmshohga elchi yuborib, gunohkorlarni jazolash va Inalchiqni uning ixtiyoriga berishni talab qilgan. Lekin Xorazmshoh esa elchini o'ldirib, kuzatuvchilarining soqollarini qirdirib qo'yib yuborishga buyruq

beradi. Bu voqealar 1218-yilda jahonda eng kuchli bo'lgan ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarning batamom uzilishiga olib keldi. O'z davrining bironta ham kishisi bunday og'ir munosabatlar keltirishini tasavvur qilaolmaganlar.

O'trordagi karvonlarning yakson qilinishi Chingizxonning g'arbga yurishini tezlashtirdi. 1219-yilda Kuchluk davlatini istilo qildi, keyin Sirdaryo qirg'oqlari sari, ya'ni O'tror tomon siljidi. O'tror 6 oy davomida qarshilik ko'rsatib turdi. Chingizxon O'trorda harbiy kuchini uch qismga bo'ldi. Ulardan biri Sirdaryo bo'ylab yurdi, ya'ni Sig'noq. O'zgan Borchilikkent, Jend, Yorkent va keyin esa Urganchni egallash kerak edi. Boshqa bir bo'limi Sirdaryoning yuqorisiga qarab yo'l oldi, bunda Binkent, Xo'jandni bostirish ko'zda tutildi. Chingizxonning o'zi esa Buxoro tomon jo'nadi.

Chingizxon askarlari shafqatsiz va bosqinchi edi. Urganchni suv bilan bostirib, shaharni vayronaga aylantirdi. Madaniy yodgorliklar buzilib, suv tarmoqlari yo'q qilindi.

Buyuk ipak yo'lining markazi Marv shahri to'la buzib tashlandi va qumlar tagida qoldi. Keyinchalik Chingizxon avlodlari Marvni qayta tiklamadi. Urganch qisman qayta o'z holiga keltirildi.

Mo'g'ul josuslari tufayli Xorazmda aholi juda kam qoldi. Ko'pchiligi qirildi, bir qismi Samarqand va Farg'ona vodiysiga qochib ketdi.

Buxoro 1238-yil Chingizxon bosqinchiligi va 1273-yil Xulagidlar tomonidan vayronaga aylantirildi. Bu holat 1333-yilda ko'rgan ibn Botutiy tomonidan yozib qoldirilgani ma'lum.

XIII asrning birinchi yarmida Mo'g'ullar o'z aholisini Markaziy Osiyoga ko'chirmagan. Chig'atoy (Chingizxonning ikkinchi o'g'li) hukmdorlari Olmaliqdan to Amudaryogacha bo'lgan joylarni Kuljin viloyatiga aylantirdi, ya'ni Ili havzasi edi. Mo'g'ullar qurilish, madaniyat sohasida tajribalarga ega bo'lmaganligi uchun Musulmon savdogarlarini o'ziga jalb etadi. Movarounnahrni Xo'jandga to'la joylashib olgan Mahmud Yalavochga topshiradi. Mo'g'ullar musulmon savdogarlari va din fozillariga suyanadi.

1238-yil mo'g'ullarga qarshi qo'zg'olon payti Buxoroning hukmdori Mahmud Yalavochni bo'shatgan va uning o'rniga o'g'li Masudbek (1238-1289-yy.) tanlangan edi. Uning davrida Buxoroda juda ko'p yodgorliklar qurildi. Otasiga bag'ishlab Masudiya masjidini qurdirdi. Nasaf yonida Chig'atoy xoni Kebek (1318-

1326-yy.) Qarshi saroyini qurdi. Keyinchalik bu yerda Qarshi shahri qad ko'tardi. Shosh, Xo'jand, O'tror, Taras shaharlarida boshqaruv ishlarini mahalliy kishilar olib borganligi sababli ularning mo'g'ullar bilan hokimiyat uchun kurashi kuchaydi. Jangda Qozonxon o'ldiriladi. 1346–1358-yillarda Qozonxon hukmdor bo'ladi. U 1358-yil ov paytida o'ldiriladi. Qozonxondan keyin Movarounnahrni boshqaruvchi layoqatli kishi bo'lmaydi. Yer egalari doimo o'zaro urushlar qilib turdi va savdo ishlari deyarli butunlay to'xtadi.

Movarounnahrda Chingizxon va uning sulolalari hukmronligi davrida ularning ayollari faqat boshqa ayollarni cho'ri, enaga sifatida xizmat qildirgan. Erkaklari esa soliq, sovg'a, savdo va boshqa ishlar bilan mashg'ul bo'lib, mahalliy xalqni doimiy ravishda ta'qib ostiga olgan. Ulardan o'zlarining ulushlarini talab qilishgan.

Chingizxon va ularning vorislari davrida «Ipak yo'li»dan keladigan foyda va daromadlarning ko'pchiligi ularning qo'lga tushgan. Savdogarlar, sayyohlar, elchilar va ularga xizmat qiluvchilar ham moddiy jihatdan ancha chegaralab qo'yilgan.

2.6. Temuriylar davrida «Buyuk ipak yo'li»da savdo-iqtisodiy aloqalarning gullab - yashnashi

XIV asr o'rtalarida Movarounnahrda Barlos bekining o'g'li Temur Torog'ay alohida ajralib turar edi. U avval mo'g'ullarning shahzodasi To'qliq Temur bilan hamkorlikda ish tutdi. Shu sababdan uni Shahrizabz hokimi qilib tayinladi. Temur keyinchalik Amir Husayn bilan do'stlashib, mo'g'ullarga qarshi jang qila boshladi va ularni tor-mor etadi.

Ibn Arabshohning ma'lumotlariga qaraganda Temurning otasi Torog'ay va uning o'zi sof musulmon bo'lgan. Ular so'fi Shamsiddin Kular (Kulol)ga sig'inishgan. Uning qabri avval Qarshida bo'lgan keyin esa noma'lum kishilar tomonidan Amir Go'ri mavzoleyiga olib kelingan.

1370-yilda Temurning yangi diniy rahnamosi Said Baraka edi, u Makkadan yuborilib, Temurga hukmdor ramzini topshiradi.

Tarixiy manbalarga qaraganda Temur Fors tilini yaxshi bilgan, arabchani tushungan. Olimlar bilan tarix, jo'g'rofiya, astronomiya, qurilishni yaxshi bilganligi sababli bab-baravar suhbat qurgan.

Yaxshilikni qadrlagan, matematik hisoblarni qilgan. U shahmat o'ynashni yaxshi ko'rgan, islom dini yaxshi o'zlashtirgan va o'qilgan duolar mag'ziga tushungan. Harbiy san'atni to'la bilgan va o'zining askarlariga har tomonlama o'rnatgan bo'lgan.

Temurning taxti Samarqanddagi Ko'ksaroyda bo'lib, u Tepaqo'rg'onga joylashgan. Uning eshiklari aholi uchun ochiq bo'lgan. Shahar atrofi bog'zor bo'lgan. U ilmiy-madaniy, savdo-iqtisodiy va hunarmandchilik ishlab chiqarish faoliyatlariga katta e'tibor bergan.

Temur va uning avlodlari davrida juda ko'p madaniy obidalar qurilgan. Lekin tabiiy ofatlar, ko'plab urushlar natijasida ularning faqat bir qismigina saqlanib qolgan.

1371–1372-yillar Tepaqo'rg'on yaqinida So'fi Nuriddin Basir qutbi Chohar-Dahunga bag'ishlab mavzoley qurdirgan. U 1868-yilgacha turgan. Rus generali Kaufman Samarqandga bostirib kirganda uni portlatib yuborgan. Shuningdek, Ulug'bek madrasasi ham ancha shikastlangan. Uning bitta minorasiga pushka o'qi tegib, qiyshaytirilgan. Bibixonim madrasasini ham yakson qilgan. Uni XX asrda tikladi.

Temur davrining tarixchisi Ibn Arabshoh va Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo kabilarning eslatishlaricha, Amir Go'ri mavzoleyida oltin va kumushdan yasalgan osma yoritkichlar (lustra) bo'lgan, ularni Samarqand ustalari yaratgan.

Amir Temur davrida tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalar nihoyat darajada rivojlangan. Bunda faqat Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilangina emas, hatto, G'arb, ya'ni Ispaniya, Fransiya va Angliya bilan ham diplomatik aloqalar o'rnatishgan.

XIV asr oxirlari va XV asr boshlarida og'ir tarixiy davr bo'lgan. Turkiyaning harbiy kuchlari rivojlanib Serbiya, Bolgariyani bosib oladi, Vengriyaga tahdid soladi. 1396-yili g'arbiy Yevropa mamlakatlari hukmdorlarini yengadi, shu tariqa Konstantinopolni olishga tayyorlanadi.

Vizantiyaning imperatori Manuyel Paleolog diplomatik yurishlari bilan Yevropa mamlakatlari bilan muloqotda bo'ladi. Bunda turkiyaga qarshi birgalikda jang qilishni taklif etadi.

Bu davrda kutilmagan holatda Yevropa uchun Temurning mahobati (shaxsi) yuzaga keladi, ya'ni turk podshohi Boyazid bilan kelisholmay urush havfi tug'iladi. Temur Fransiya, Angliya va

boshqa Yevropa mamlakatlari bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'ygan edi. Ular Turkklarning harakatini to'xtatishda Temurdan iltimos qilgan.

1403-yilda Temurning elchisi va Vizantiya hukmdori Parijga kelib, Temurning Turkiya ustidan g'alaba qilganligi haqida xabar beradi. Temurning hayot sohasida Yevropada unga bag'ishlab yozilgan kitoblar chiqariladi.

Temurning Misr sultoni va keyinchalik Osmon hukmronligini tor-mor etgach (1402-y.), g'arbiy Yevropa tahdidlaridan ozod bo'ldi. Shu sababdan Sharqqa, shuningdek Temur davlatiga ixlos kuchaydi. G'arbda Temurning dong'i keng tarqaldi. Ayniqsa, 1582-yili. Seville Klavixonning (Temur davrida Ispan elchisi) 1403-yilda «Ulug' Temurning hayoti va faoliyati» nomli xati nashrda bosilib chiqdi. Bu 1782-yil Madridda qayta nashr qilingan.

Temur haqida birinchi marotaba rasmiy ravishda Nizomiddin Shomi tomonidan «Zafarnoma» kitobi chiqarilgan. Bu ikki qismdan iborat bo'lib o'sha davrdagi tarixiy jarayonlar, Chingizxonning to'rt ulusi (avlodi) va Amur Temur faoliyati to'la bayon qilingan. Bu kitob Yevropa mamlakatlarida keyingi davrlarda bir necha marotaba tarjima holda nashr etilgan. So'nggi yillarda tarjima va nashrlarda «Zafarnoma»ning muqaddimasi (5 dan 1 qismi) olib tashlangan. 1972-yilda A.O'rinboyev tomonidan tayyorlangan kitobda (Toshkent) mazkur mazmunlar to'lagicha berildi.

1405-yil Temur vafotidan keyin hokimiyat uchun shafqatsiz kurashlar boshlangan. Bu jarayonda uning o'g'li Shohrux g'olib chiqib, hokimiyatni ikkiga bo'ladi.

Shohrux o'ziga Xurosonni qoldirib Hirotni poytaxt qiladi. Movarounnahrda Samarqandni poytaxt qilib, katta o'g'li Ulug'bekka beradi. (Ulug'bek Gavharbegimdan tug'ilgan, ya'ni Chig'atoy ulusining taniqli vakillaridan biri G'iyosiddin Tarxon qizidan – 8,69). Iqtidorli, bilimli 17 yoshli Ulug'bek 1411-yilda mustaqil hukmdor bo'lgan. U to'g'risida ko'p kitoblar, dramatik asarlar, ilmiy kitoblar yozilgan. Shu sababli Ulug'bekning ilmiy faoliyati, madaniy meroslari, hukmdorlik ishlari, hayotiy oqibatlari to'g'risida bu joyda ma'lumotlar bermadik.

Ulug'bekning fojiaiy vafotidan keyin Samarqandda Abu Said (1457–1468-yy.), Hirotida esa Sulton Husayn (1469–1506-yy.) podsholik qilishdi. Abu Said Hirot orqali savdoni rivojlantirdi. Hirot

Husayn va Navoiy davrida mustahkamlandi. O'zaro urushlar, mojarolar sababli XV asr oxirida karvonlar savdosi to'xtab qoldi. Din sohasida katta obro'ga ega bo'lgan Xo'ja Ahrori Vali karvonlar savdosini yo'lga soladi va turli mamlakatlarning hukmdorlariga xat yuborib, karvonlarning xavfsizligini ta'minlashni so'raydi.

Xulosa qilib aytganda, Temur va uning avlodlari hukmronligi davrida savdo-iqtisodiy aloqalar ancha rivojlangan. Temurning ozodlik va tenglik uchun olib borgan urushlari, uning talablari natijasida Yevropa mamlakatlari turklar hamda Chingizxon hukmronligidan ozod etilgan.

Amir Temur, Ulug'bek Xo'ja Ahrori Vali va boshqa ulug' zotlar Osiyo va Yevropa mamlakatlari katta obro' bilan e'zozlangan. Ularning ulkan madrasalari, mustahkam saroylari, atronomiya ilmidagi faoliyatlari jahonga keng tarqaldi.

Sulton Husayn va Alisher Navoiylarning davlatni idora qilish, madaniyat va san'atni rivojlantirishdagi xizmatlari tarixda o'chmas iz qoldirdi. Sharq she'riyatining sultoni sifatida Navoiy hozirgi davrda ham milliy madaniyatimizda katta o'rin tutmoqda.

2.7. Movarounnahrda Shayboniylar hokimiyatining o'rnatilishi davrida savdo - sayohat yo'llari

XV asrda Dnepr va Qora dengizning shimoliy qirg'oqlaridan tortib to Irtish va Balxash ko'ligacha, Xorazmning janubidan va Sirdaryoning quyi qismi XI asrda Qipchoq dashti nomi bilan atalgan ko'chmanchi o'zbek davlati Abulxayrxonning nevarasi Shayboniynon boshchiligidagi vujudga keldi.

Turk tilida so'zlovchi Turoqli Xorazm xalqi va Qipchoq dashti xalqi orasida savdo aloqalari avj oladi, bunda: Turoqli aholi hayvonlar ozuqasiga muhtoj edi, ko'chmanchilar esa yerlarda ishlab chiqariladigan oziqalar, shahar hunarmandchilik mahsulotlariga muhtoj edi. Shu sababli ko'chmanchi xalq tinch-osoyishta yashashni ma'qul ko'rishgan. Bu holat Movarounnahr xalqining iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Sibirdan Bolgar orqali rusga o'tish shimoliy savdo yo'li ancha taraqqiy qilgan. Ular cho'l odamlari bilan qat'iy muhofaza qilingan.

Shayboniyga Dashti Qipchoq (Yairdaryodan, Yaik (Ural), irtish va Chu daryolari oralig'i) tegadi.

XIV–XI asrlarda Temur va Temuriylar davrida Oʻrda ulusi va Shaybon oʻtasida qatʼiy chegara boʻlmagan. Shu sababdan bu joylarda yashagan xalqni oʻzbeklar deb atashgan.

Shayboniy avlodi Abduxayrxon (1428–1468-yy.) Tangut, Qoʻngʻirot, Doʻrmon, Oʻtarchi, Qushchi, nayman, Jat, Tubay, Xitoy, Uygʻur, Qarluq, Uyshun, Mangʻit, Kurlachut, Yurchi, Qiyot, Burkut, Misit va boshqa qabila-urugʻlarni birlashtirdi. Koʻchmanchi qabilalar oʻrtasidagi kurashlar, ayniqsa, Temurning Oltinoʻrda davlatini bosib olinishi (XV asrning 90-y.) tufayli qabilalar boʻlinib mustaqil hokimiyatlarga erisha boshladi. Abulxayrxonning nevarasi Shayboniyxon bobosi (ona tomonidan) Astraxon qoʻlida tarbiyalangan va Buxoroda tahsil olgan. XV asr oxirida koʻchmanchi xalqni birlashtirib oʻzbek davlatini tuzgan. U turk va fors tillarida gaplasha olib, maʼlumotli boʻlgan. Mutaʼfakkir rassom Behzod uning suratini chizgan. Alisher Navoiy doirasidagi atoqli shoir Binoiy esa Shayboniyxon tarixini yozi, «Shayboniy noma» kitobini yaratgan.

Shayboniyxon 1501–1510-yillarda Movarounnahrni toʻla istilo qilib oladi. Bu davrlarda Xuroson va boshqa joylardan kelgan shoirlar, sayohatchilar, darveshlar Buxoro, Samarqand, Toshkent va boshqa savdo markazlarining iqtisodiy-madaniy taraqqiyoti, aholining zichligi, bozorlarda mahalliy va xorijiy mamlakatlarning mahsulotlari bilan toʻlib toshib yotganligi haqida esdaliklar, nomalar, kitoblar yozishgan.

1558–1560-yillarda Moskvadan Antoniy Jenkinson degan elchi Buxoro va Baqtriyaga yuborilgan. Bu janob bir vaqtning oʻzida Angliya va Moskva elchisi hisoblangan. Elchixona ikkita rus vakili: Richard Jonson va Robert Jonson boʻlgan. Shuningdek, tarjimon tatar kishi, savdogarlar ham xizmat qilishgan.

Bu holatlar shuni koʻrsatadiki, Shayboniyxon davrida Markaziy Osiyo shimol va gʻarb davlatlari bilan savdo yoʻllari orqali yaqin aloqador boʻlgan.

Jenkinsonning yozishicha XVI asrda Urganchda usti yopiq koʻchalar boʻlib, bu yerlarda turli xil savdo mollari sotilgan. Eng muhim mollar (tovar) Erondan keltirilib sotilganligi va ular ozchilikni tashkil qilganligini ham taʼkidlagan. Mazkur sarguzashtchi (ingliz) 1558-yilda Buxoroga keladi. U Buxoro haqida batafsil ravishda oʻz xotiralarini yozadi. Hatto, bu yerda Buxoro, Hindiston, uning yoʻlidagi mamlakatlar, shimolda Moskva va boshqa koʻp

shaharlar bilan savdo-sotiq qilgan. Shuningdek, Xitoy va ungacha bo'lgan oraliq savdo manzillarida ham Buxoro savdo karvonlari katta o'rinni egallagan.

Richard Jonson Jenkinson bilan birgalikda sayohatlarni o'tkazgan va juda ko'p xotiralarni yozib qoldirgan. Uning yozishicha:

Saroychadan Urganch shahrigacha masofa – 15 kun;

Urganchdan Buxorogacha – 15 kun;

Buxorodan Qashqargacha – 30 kun;

Qashqardan Xitoygacha esa – 30 kun yuriladi deyilgan.

Umuman olganda sayyohlar, sarguzashtchilar, solnomachilar o'sha davrlar haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirishgan.

Oltoyda (Tyumen) o'zbeklaridan bo'lgan xonlar hukmronlik qilgan. Ularning tili o'zbek-qozoq tili bilan aralash bo'lgan. Sibir va Uzoq Sharq, Xitoy va suv yo'li orqali Hindiston bilan savdo aloqalarini bog'lashda Oltoy o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. O'z navbatida Shimoliy karvon yo'llarini ochib, Moskva va g'arbiy Yevropaga savdo mollarini yetkazib turgan.

Xulosa qilib aytganda, Qipchoq dashti (Dashti qipchoq) mamlakati Markaziy Osiyo va uning atrofidagi mamlakatlar bilan savdo, madaniyat, sayyohlik aloqalarini mustahkamlab «Buyuk ipak yo'li»ning qadimgi mavqeyini tiklashda muhim o'rin tutgan.

2.8. Qadimgi karvon yo'llarida savdo-iqtisodiy aloqalarning susayishi

XVIII asrda Markaziy Osiyo turli xil urushlar, katta yer egalari (feodallar) o'rtasidagi kelishmovchiliklar, cho'l-sahrolardagi ko'chmanchi xalqlarning talon-torajlik harakatlari natijasida bir necha bo'laklarga ajralib ketdi. Bu xo'jalik faoliyatlar va madaniyatga katta ziyon yetkazdi.

XVIII asrda Balx, Xorazm Buxorodan ajralib chiqdi. Ikkinchi yarmida esa Farg'ona va Toshkent o'ziga asos soldi. 1740-yilda Nodirshohning (Eron) Movarounnahrda yurishi boshlandi. Keyin Afg'oniston bilan urush qildi. XVIII asr yarmi va oxirida vayron bo'lgan xarobalarni tiklash, yangidan rastalar, madaniy maskanlar qurishga moddiy manba, xomashyo, g'isht va boshqa zurur narsalar yetishmadi. 1712-yilda Buxoro Registonida bita Bolohovuz

arxitektura binosi qurildi, xolos. Bunday holat Xiva xonligida ham sodir bo'ldi.

XIX asrning birinchi yarmida Buxoro va Xiva xonligi o'rtasida janglar bo'lib o'tdi. Shuningdek, Buxoro-Qo'qon o'rtasida Jizzax, O'ratepa, Toshkent, Xo'jand uchun urushlar bo'ldi. Xiva va Marv o'rtasida va Orol hamda Xiva o'rtasida janglar bo'ldi.

Mayda hunarmandchilikdagi mollar (tovar) Rossiya sanoati bilan raqobatda teng emasdi. Bu vaqtda Buxoro Rossiya bilan savdo qilishda oldinga chiqib oldi. Buxoroga Orenburg, Sibir va Eron Karvon yo'llari faqat yozgi paytlardagina xizmat qildi.

Buxoroning Qo'qon, Toshkent, Qashqar, Yorkent, Xiva va Afg'oniston bilan savdo aloqasi yaxshi yo'lga qo'yildi. Barcha karvon yo'llarida iste'mol uchun eng zarur bo'lgan mollar Buxoroga keltirilgan. Qo'qon va Qashqardan ipak, shoyi, Baxmal, jundan yasalgan matolar va turli xil boshqa buyumlar keltirilgan. Chetdan keltirilgan savdo mollari Buxoro, Samarqand, Qorako'l, Qarshi, Chorjo'y kabi shaharlarda bozorlarga chiqarilgan. Bunda qullarni sotish yuqori darajada bo'lgan. Manbalarga qaraganda 10 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan o'g'il va erkaklar 35 dan 80 gacha Buxoro oltiniga (140–380 so'm oltinga), 10–40 yoshdagi ayollar 30–40 Buxoro oltiniga (120–160 so'm oltinga) sotilgan. Bunda ayollarning go'zalligi va qullarning jismoniy kuchiga qarab baholashgan (8,91).

Xivadagi bosh bôzorga Urganch, Qo'ng'iro't, Xo'jayli, Xonqa va boshqa shaharlardagi savdo ishlari yordam bergan. Shuningdek, Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi Sho'raxon va Shayx Abbos Vali tayanch bo'lgan.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida arxitektura qurilishida Xorazm birinchi o'rinni egallagan. Qo'qonda esa Xudoyorxon saroyi diqqatga sazovor bo'lgan.

XIX asrning 30-yillarida Rossiyaning Osiyodagi savdo bozori goh kamayib, gohida ko'tarilib turdi. Chunki, jahon bozoriga inglizlar qo'shilib, raqobatlasha boshladi.

1831–1833-yilda leytenant Ost-Indskoy Aleksandr Boris kompaniyasida hind bo'ylab sayohatga (путешествия) chiqib, Laxorga boadi va Qobul hamda Buxoroga yetib keladi. 1836–1838-yillara o'sha Boris Vud bilan Amudaryo yoqalariga kiradi. U o'z sayohatlarida savdo ishlari va Markaziy Osiyo bo'ylab savdo yo'llarini o'rganadi. U rusda ishlab chiqarilgan buyumlarning

xonliklardagi savdosi va unga ehtiyojlik masalalariga ko'proq qiziqdi. Rus mollarning (tovar) Buxoro va yana Afg'oniston, Hindistonga kirib kelishi, ularning ro'yxatini tuzadi.

XIX asrning 20-yillarida Markaziy Osiyoda ingliz mollari paydo bo'ldi. Ingliz sayyohi Konolli o'zining «Shimoliy hindga sayohat» (1834-y.) kitobini yozadi. Unda Osiyo bozorlarida ruslarnikidan arzon bo'lsada ingliz mollari yaxshi, xaridorgir ekanligini ta'kidlaydi. Inglizlar o'z mollarini eski savdo yo'li Balx orqali Osiyoga yetkazgan.

Rus-ingliz savdo raqobati Rus hukmdorlari doirasini tashvishga soldi. Rus sanoati o'sgan bo'lsada Amerika paxtasi savdo bozorida ustun turdi. Osiyo paxtasi atigi 10 %ni tashkil etdi.

Xiva va Toshkent atrofida paxta yetishtirish va ishlab chiqarishni yaxshilash maqsidida ruslar ijaraga (аренда) olishga kirishdi. Shu tarixa Osiyo savdogarlari vositachilariga chek qo'ymoqchi bo'ldi. Ruslarda paxtani ishlab chiqarishda qo'l mehnatidan mashina mexanikaga o'tildi. Bu vaqtda inglizlar o'z mashinalarini bosh chet elga chiqarayotgan edi. 40–50-yillarda turli mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgach, Rossiyada xom-ashyoga muhtojlik sezila boshladi.

1858-yil Ingliz-Xitoy shartnomasi asosida Xitoyliklar Yevropa uchun o'zining beshta portini ishga soldi. Ruslar uchun choy keltirish yopildi.

Osiyodan paxta va yigiruv iplarini keltirish (Orenburg orqali) 2–3 baravar oshirildi.

Rossiya bilan savdo aloqalarining kuchayishi Markaziy Osiyo xonliklarining Rossiyaga bo'lgan qaramligini oshirdi. 1861-yilda Amerikadan keltiriladigan paxta to'xtatilib, Buxoroda paxta ekish maydonlarini kengaytirishga Rossiya rahnamolik qila boshladi. Buxoro, Toshkent, Qo'qon yo'nalishlari bo'yicha Orenburg orqali yangi savdo yo'llari ishga tushdi. Qozog'iston cho'llaridan karvonlar yurishi ochildi. Eng muhimi Orenburg-Toshkent yo'li bo'lib hisoblandi.

Savdo va diplomatik aloqalar kuchayib, keyin harbiy yurishlar ham boshlandi. 1864-yildan 1867-yilgacha Qo'qon xonligi, Xo'jand, Jizzax, Samarqand egallandi. Bosib olingan yerlar Turkiston general-gubernatorligi deb ataldi. Uning tepasi general gubernator Kaufman turar edi. Keyin Buxoro va Xivaning ham mustaqilligi yo'qoldi.

Chor Rosssiyasi Markaziy Osiyoni bosib olishi natijasida savdo, siyosat va madaniyat bo'yicha rus-ingliz raqobati kuchaydi. Bu holati Turkmaniston, sharqiy Turkiston, Jungari va Kuljada ham paydo bo'ldi.

Ingliz hukumati Rossiyaga murojaat qilib, Afg'oniston betaraf qolishini so'radi. Chunki tog' yo'llari va turli faoliyatlarni nazorat qilish bilan o'z maqsadlariga erishishni mo'ljallagan. Bu masalalar 1907-yilga kelib hal bo'ldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida inglizlar Sharqiy Turkiston, Shimoliy Xitoy va Markaziy Osiyoga o'z siyosatini o'tkazishga harakat qildi. Ruslar o'z navbatida bosib olingan yerlarda siyosiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan ta'sirini kuchli ravishda kiritib bordi. Bu ikki buyuk davlat o'rtasida nizolar paydo bo'la boshladi.

1877-yilda inglizlar Afg'oniston chegaralariga bostirib kirdi. Ruslar esa Afg'onistonning shimoliy chegaralarida qo'riqchilikni kuchaytirdi. 1878-yil general Stoletov Afg'onistonga yuboriladi va yashirin ravishda shartnomani imzolaydi. Bunda inglizlar bostirib kirsar ruslar Afg'onlarga yordam berishi va'da qilingan.

Afg'on amiri Sherali inglizlarga qarshi qat'iy javob qildi. Bu holat ikkinchi marotaba ingliz-afg'on urushiga sababchi bo'ldi. Afg'onlar ingliz qaramog'ida (vassal) bo'lib qoldi. Inglizlar Afg'onistonni Hindlarning bir qismi sifatida hisobladi. Shu tariqa Qobul orqali o'tadigan yirik savdo yo'li inglizlar qo'lga o'tadi.

1879-yilda Afg'onistonda xalq qo'zg'oloni boshlanib, unga amir Sheralining jiyani Abdurahmonxon (Turkiston xoni, Toshkentda yashagan) boshchilik qildi. U Afg'on Turkistoni deb tanildi. Buni inglizlar tan olishga majbur bo'ldi. 1880–1901-yillarda Abdurahmonxon Afg'onistonni o'z hokimiyatiga qo'shib oldi.

Afg'onlar ruslarning tahdid solishidan cho'chib, Pendin vohasi va kumka daryosining chap qirg'og'ini egallab olishdi. Afg'onlar harbiy harakatiga ingliz zobitlari rahbarlik qildi. Bu voqealardan Rossiya-Angliya urushi boshlanishiga ozgina qolgan edi.

XX asr boshlarida Rossiyaning siyosati Markaziy Osiyoga chet el moyanasi (kapital) kirib kelmasligiga qaratildi. Faqat Afg'oniston, Eron, G'arbiy Xitoydangina mol keltirishga ruxsat berildi. Hindistondan Afg'oniston va Buxoro orqali Turkistonga salla (boshga o'rash) va shunga o'xshash mollarni savdoga keltirgan xolos. Shu davrda Ruslar paxta- ...dan ishlab chiqargan buyumlari

Xitoy, Eron va boshqa mamlakatlarga yuborilgan. Rossiya o'z manfaatlarini uchun savdo yo'llarini yangidan qurishga kirishdi. 80-yillarda Chor Rossiyasi asosan ikkita magistral temir yo'llarini qurishga kirishdi, ya'ni qaram mustamlakadagi yerlarni metropoliya (Rossiya hokimiyati) bilan bog'lash asosiy maqsad edi. Bular Kaspiy orqali temir yo'li, keyin uni Markaziy Osiyo temir yo'li nomi bilan atalgan. Ikkinchisi esa Toshkent temir yo'li edi.

1899-yilda asosiy yo'l Toshkent va Andijonda qurib bitkazildi. Ikkinchi navbat 1906-yilda tugatilgan. Bu temir yo'l qadimgi «Buyuk ipak yo'li»dan o'tgan edi. 1910–1911-yillarda Farg'ona-Qo'qon-Namangan, 1913-yilda Namangan-Jalolobod, keyin esa Kogon (yangi Buxoro) – Qarshi-Termez, Qarshi-G'uzor, Qarshi-Kitob temir yo'llari ishga tushirilgan.

XIX asrning yarmidagi Buxoro amirligi, Xiva xonligining Rossiyaga qaramligi va Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi xo'jalik, iqtisod va madaniyat sohasida, ayniqsa, 1917-yildagi inqilob va keyingi fuqarolar urushi o'lka hayotini uzaytirib yubordi. Shu sababdan asosiy diqqat-e'tibor ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligini qayta tiklash va rivojlantirish bilan yangi iqtisodiy siyosatga (AEP) qaratiladi.

1923-yilgi Turkiston muxtor (avtonom) Respublikasi, Buxoro, Xorazm Xalq Respublikalari iqtisodiy jihatdan birlashishga harakat qildi. Ular o'zaro iqtisodiy yordam va taraqqiyot Kengashini (Ittifoq) tuzishdi. Lekin 1924-yilda hududiy birlashuv va milliy jihatdan mustaqil davlat tuzish g'oyasi g'alaba qildi.

1924-yil oktabrda Markaziy Osiyoda milliy-davlatlarga ajralishni tashkil qilish amalga oshirildi. Uning o'rnida O'zbekiston, Tojikiston bilan birgalikda (u 1929-yilda ajralib chiqdi), Turkmaniston, Qozog'iston va Qirg'iziston avtonom (muxtor) Respublikasi (Rossiya tarkibida) Ittifoqchi respublikalarga aylantirildi.

O'zbekiston (O'zSSR) 1925-yil Ittifoq (SSSR) tarkibiga kiritildi va o'zining konstitutsiyasini ishlab chiqdi. Shunga ko'ra u boshqa Ittifoqchi Respublikalar qatori mustaqil (cyбeпeн) davlat hisoblanib, Ittifoq (SSSR) tarkibida bo'lishi qayd etildi. Shunga qaramasdan O'zbekiston ham boshqa Ittifoqchi Respublikalar (16–15) qatori sobiq ittifoq siyosati oqimida g'arq bo'ldi. Respublikada ishlab chiqarilgan deyarli barcha zarur mahsulotlardan (paxta, ipak, qorako'l, oltin va h.k.) kelgan foydalarning asosiy qismi Ittifoq

xazinasiga borib tushar edi. Bu holat 70-yil (1917–1991-yy.) davomida muntazam takrorlandi, ya'ni O'zbekiston sobiq Ittifoqning asosiy xomashyo markaziga aylandi.

Sobiq Ittifoq davridagi ijobiy va salbiy jihatlar haqida juda ko'p kitoblar yozildi. «O'zbekiston xalqlari tarixi» (yangi nashri) kitobida batafsil bayon etildi. Bu jarayonlar o'quvchilar va keng jamoatchilikka to'la ma'lum bo'lganligi sababli barcha ma'lumotlarni keltirmadik. Uning oqibatlari Ittifoqning inqirozga uchrashi va mustaqil davlatlarning tashkil etilishi bilan o'Ichandi va baholandi, desa bo'ladi. Bu yo'lda O'zbekiston 1991-yil 31-avgustda o'zining Mustaqil Respublika bo'lib ajralib chiqqanini e'lon qildi. Bunda Respublika Prezidenti I.A.Karimovning dovyurakligi, shijoatli mehnati, aniq maqsad yo'liga to'g'ri, odilona qaray bilganligi e'tiborga molikdir.

2.9. «Buyuk ipak yo'li»ning qayta tiklanishi va xalqaro turizmni tashkil etishda mustaqil O'zbekistonning o'rni

«Buyuk ipak yo'li» (BIY)ning ochilishidan bir necha yuz yillar avval karvon yo'llarining mavjudligi haqida tarixiy ma'lumotlar guvohlik beradi (8–100). Ular xuddi o'rgimchak uyasidek Markaziy Osiyoni o'rab olgan. Savdoda faqat ipak-shoyigina emas, balki ijtimoiy turmushdagi ehtiyojiiy buyumlar, idishlar, oziq-ovqatlar, qurollar ham bo'lgan. Shuningdek, mahalliy ishlab chiqarish mahsulotlari ham bozorda katta o'rin egallagan. Savdo va madaniy aloqalari, sayyohlarning turli izlanishlari va ular qoldirgan yozma ma'lumotlar insonlar ongini rivojlantirishga sabab bo'lgan. Shu sababdan falsafiy jihatdan fikr yuritish, aql-zakovatni taraqqiy qildirish ham takomillashgan.

«Buyuk ipak yo'li» iborasi bugungi kunda tarixchilar, olimlar, sayyohlar, tadbirkorlar, o'tmishga qiziquvchi turli kishilarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etmoqda. Ayniqsa, afsonaviy arxitektura qurilishlariga ega bo'lgan shaharlar, ko'zni qamashtiruvchi

masjidlar, turli xil shakllardagi sharq bozorlari, cho'llarda qurilgan koshonalar, vodiylarda yastanib turgan joylar barchani maftun etmoqda.

YUNESKO tomonidan BIYni o'rganish, e'tiborga molik tarixiy shaharlardagi madaniy obidalarni muhofaza qilishda mamlakatlarning qo'shma ishtiroki va o'zaro hamkorligi haqidagi g'oyalarini arab mamlakatlari, Hindiston va uzoq Yaponiya ham qo'llab-quvvatladi. Shu tariqa BIYni o'rganish bo'yicha dastur loyihalari ishlab chiqilib, ular amalga oshirildi. Bunda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari va o'rni borligi muhim ahamiyatga egadir.

Akademik A.Asqarov rahbarligida so'nggi yillarda arxeologik qazilma ishlari Sherobod (Sopolli tepa, Jarqo'rg'on), Murg'ob, Marv (Turkmaniston), Termiz atrofi (Afg'oniston), Qarshi cho'llarida bo'lib o'tdi. Ulardan topilgan turli xil ashyolarning guvohlik berishicha g'arb va sharq o'rtasida «Buyuk ipak yo'li»ning g'oyat katta va jonli bo'lganligini tasdiqlaydi. O'zbekiston Markaziy Osiyoning magistral yo'li sifatida BIYning rivojlanishi, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Hindiston mamlakatlarini Afg'oniston, Eron, Suriya, Arab mamlakatlari, G'arbiy va Sharqiy Yevropa davlatlarining o'zaro savdo, iqtisod, madaniyat va sayyohlik aloqalarini bog'lashda munosib o'rin egallagan.

O'zbekistonning mustaqilligi (1991-yil 31-avgust) tufayli xalqaro madaniy, siyosiy, iqtisodiy, savdo, texnologiya, havo yo'llari, magistral (poyezd, avtomobil va h.k.) aloqalari yo'lga qo'yildi. Jahonning 160 dan ziyod mamlakatlari bilan diplomatik aloqalar bog'landi. Toshkentda 60 ga yaqin davlatlarning diplomatik elchixonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular orasida Fransiya, Turkiya, AQSH, Germaniya, Xitoy, Hindiston, Mo'g'uliston, Eron, Rossiya, Koreya, Yaponiya kabi yirik hamda iqtisodiy jihatdan taraqqiy qilgan mamlakatlarning borligi e'tiborga loyiqdir. O'z o'rnida


O'zbekiston ham mazkur davlatlar va boshqa mamlakatlarda o'zining elchixonalarini tashkil qildi.

O'zbekistonda chet mamlakatlarning qo'shma korxonalarini tashkil qilish, pul muomalalari va savdo ayirboshlash masalalariga qaratilgan bir qator qonunlar, farmonlar, hukumat qarorlari qabul qilindi. Shu asosda Asakada (Andijon) Janubiy Koreyaning avtomashinalar ishlab chiqarish qo'shma korxonasining tashkil qilinishi va uning mahsulotlari mamlakatning iqtisodiy muvozanatini baland ko'tarib yubordi. Xalqning mushkuli osonlashdi.


1994-yilda Respublika hukumatining muzeylar ishini yaxshilash, 1998-yilda Turizmni rivojlantirish bilan bog'liq maxsus qonun va qarorlar qabul qilindi. Bu tarixiy shaharlar Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlardagi madaniy obidalarni qayta tiklashda katta hissa qo'shdi. Shuningdek, yurtimiz sayohatchilari va xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurayotgan mehmonlarga madaniy xizmat qilishda yangi texnologiya va moddiy jihatdan o'zini tiklash, ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston havo yo'llari, O'zbekturizm kompaniyalari chet mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy, madaniy xizmat qilish yo'llarini ishlab chiqib, ularni hayotga singdirmoqda. Shu tufayli yurtimizning tarixiy-madaniy obidalarga boy bo'lgan shaharlarga say-sayohatlar uyushtirish yaxshi yo'lga qo'yildi.


Qadimgi «Buyuk ipak yo'li» an'alarini amalga oshirishda avtomobilar yo'llari (Osh-Andijon-Qamchiq dovoni-Toshkent, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Urganch, Ashxobod-Turkiya va h.k.) maqsadli ravishda xizmat qilmoqda. Ayniqsa, samolyotlar, poyezdlar orqali dunyoning ko'pchilik mamlakatlari bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarni rivojlantirish tadbirlari tarkib topmoqda. Yaqin kelajakda suv-dengiz yo'llariga (Pokiston, Hindiston, Eron va h.k.) chiqish ham ko'zda tutilmoqda. Bu jarayonlar O'zbekistonning iqtisodiy, siyosiy va madaniy mavqeyini yanada rivojlantirishning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi deb xulosa qilish mumkin. Tarixiy shaharning qadimgi madaniy yodgorliklar va bugungi ko'rki (shamoli) suratlarda (rasmlar) ifoda etilgan.





**Prezident I.A.Karimovning Birlashgan Millatlar Tashkiloti sessiyasida
soʻzlagan nutqi.**



Toshkent. O'zbekiston Milliy banki.




Toshkent. Interkontinental mehmonxonasi.




Toshkent.




Toshkent. Hozirgi ko'rinishi.



Samarqand. Sherdor madrasasi.



Samarqand. Tillaqori madrasasi.



Amir Temur maqbarasi.




Samarqand. Shohizinda.



Bibixonim madrasasi.




Samarqand. Ulug'bek olimlar davrasida.




Buxoro. Hazrat Bahouddin majmuasi.



Buxoro. Savdo timi.





Buxoro. Nodira devonbegi madrasasi. Peshtoq bezaklaridan lavha.




Buxoro. Mag'oki Attoriy masjidi.





Xiva. Islomxo'ja minorasi.



Xiva. Pahlavon Mahmud majmuasi.




Xiva. Asfandiyor ko'rinishxonasi.





Xiva. Tarixiy obidalar/



Xiva. Tarixiy obidalar (Qadimgi ipak yo'li).



Andijon. Hozirgi kundagi ko'rinishi.



Surxondaryo. Tarixiy obidalar.

IKKINCHI QISM

OMMAVIY SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARI

III bob. SAYOHATLARNING TURLARI

3.1. Piyoda yurish sayohatlarining ijtimoiy-tarbiyaviy va sog'lomlashtirish xususiyatlari

3.1.1. Sayohatlarning ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlari

Insoniyat olamida sog'liqni saqlash, chiniqish va umrni uzaytirishda ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlar asosiy o'rinda turadi. Bu jarayonlar bola tug'ilgan daqiqalardan boshlanib, to uning uzoq umr ko'rishlarida maqsadli foydalaniladi. Ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlarda – ta'lim, mehnat, kasb-hunar o'rganish, Vatan tuyg'usini his etish kabi insoniy fazilatlar amalga oshiriladi.

Inson salomatligini tarbiyalash, jismoniy jihatdan chiniqtirishda, ayniqsa, o'quvchi yoshlar va talabalarning ma'naviy hamda jismoniy barkamolligini o'stirishda jismoniy tarbiya mashqlari (sport ham) ustuvor ekanligini inkor etib bo'lmaydi.

Ma'lumki, jismoniy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi turizm (sayohat) hisoblanadi. Sayohatlarning ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlarini o'rganish va bilishdan oldin, uning eng zarur turlari bilan yaqindan turib mantiqiy jihatdan tanishish maqsadga muvofiqdir.

Muqaddimada sayohat (turizm) tushunchasi qisman ifoda etildi. Shunday bo'lsada, bu o'rinda ko'proq piyoda yurish sayohatlari bilan bog'liq faoliyatlar aks ettiriladi.

Turizm – sayohat paytida «tur» (belgi) o'rnatish degan ma'noni bildiradi. Tog', adirlar va uzoq masofalarga sayohat qilish, oxirgi manzilga belgi qo'yib kelish yoki cho'qqiga chiqqanlikni bildirish uchun biron belgi (yozuv, haykalcha va hokazolar) qo'yishni anglatadi.

Qadimgi ajdodlarimiz o'z hayotlarida turli sayohatlar qilganlar, ularning daryo, ko'l sohillarida sayr qilishi, tog' cho'qqilariga

chiqishi, kiyik, yovvoyi qo'ylar (olqor), kaklik, burgut, bedana, qirg'ovul ovlashi ko'pgina tarixiy manbalarda, badiiy asarlarda, shuningdek, xalq og'zaki ijodida keng yoritilgan. Bunday ovlar, maroqli sayohatlar haqida «Alpomish», «Kuntug'mish», «Intizor», «Rustamxon», «Ravshan», «Qirg' qiz» kabi juda ko'p dostonlarda hikoya qilinadi. Shuningdek, bu fikrlarni Afrosiyob, Teshiktosh, Dalvarzin arxeologik qazilmalari natijalari ham tasdiqlashi mumkin.

Turizm shakl jihatdan ekskursiya (sayr) va sayohat (путешествия)lardan iboratdir. Ekskursiya asosan biron e'tiborga molik joylarga (muzey, qurilish, tarixiy obidalar va va h.k.) qisqa va uzoq muddat bilan uyushtiriladi, ya'ni bog'cha bolalari, maktab o'quvchilari, talabalar va aholi bilan o'zlarining istiqomat joylarida tashkil etiladi. Uzoq muddatli (3–5 va undan ortiq kunlar) sayrlar boshqa shaharlar, davlatlarga tashkil etilib, bunda ulovlardan (avtomobil, poyezd, samolyot, kema va h.k.) foydalaniladi. Sayohatlar esa ko'pincha ommaviy ravishda piyoda yurish bilan avvaldan ishlab chiqilgan yo'l (marshrut) bo'ylab o'tkaziladi. Bunda asosan o'lkani o'rganish, jismonan chiniqish kabi ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlar amalga oshiriladi.

Turizmning turlari deganda, piyoda yurish, tog' turizmi, suv turizmi, avto-moto turizmi, chamalab topish (ориентирования) kabilarni tushuniladi. Ta'kidlash lozimki, mazkur turlar xalqaro miqyosda maxsus sport turlari sifatida ular tarkibidan joy olgan. Demak, turizmning barcha turlari ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlarga ega ekanligini e'tirof etish ma'quldir. Shu sababdan mazkur bo'limda faqat piyoda yurish turizmining ijtimoiy-tarbiyaviy va sog'lomlashtirish xususiyatlari borasida mazmunlar bayon qilinmoqda.

3.1.2. Sayohatlarning sog'lomlashtirish xususiyatlari

24 Turizmning (sayohatlar) qaysi turi bo'lmasin o'ziga xos tayyorgarlik, tashkil qilish, kerakli buyumlar, vositalar, oziq-ovqatlar bilan ta'minlash, yurish qoidalarini bilish va boshqa ko'p faoliyatlar talab etiladi. (Bunda ayniqsa, sayohat ishtirokchilarining sihat-salomatligi, jismonan baquvvatligi asosiy o'rinda turadi. Sayohatlar davomida esa jismonan chiniqish, keyinchalik o'z salomatliklarini

maqsad yo'lida rivojlantirib borish masalalari muhim ahamiyatga egadir. /

O'zbekistonda 2005-yilni «Sihat-salomatlik .yili» shiori ostida ko'p tadbirlar amalga oshirildi. Bunda tibbiyot xodimlar kasb-hunar yo'nalishidagi ishlab chiqarish korxonadagi turli muassasalar u yoki bu yo'l bilan faol ishtirok etishdi. Respublika Prezidentining taklifi bilan (dekabr 2005-yil) 2006-yilni «Homiylar va shifokorlar yili» deb atashga qaror qildi.

Bundan asosiy maqsad-aholining salomatligini doimiy ravishda nazorat qilish, zarur joylarda tibbiy va homiylik yordamini ko'rsatishdan iborat. Bu esa o'z navbatida kishilarning o'z salomatliklari uchun harakat qilishlari, o'suvchi yoshlarning ijtimoiy kamolotini o'stirishga da'vat etadi.

Insonlar salomatligi faqat tibbiyotgagina bog'lanib qolgan emas. Ijtimoiy-madaniy turmush sharoitida yaxshi mehnat qilish, doimiy ravishda faol harakatda bo'lish va ayniqsa, biron sport turib bilan mashg'ul bo'lish, hech bo'lmaganda ertalab yoki bo'sh paytlarda jismoniy mashqlar (harakatli o'yinlar) bilan shug'ullanishni hayotning o'zi taqozo etadi (belgilaydi). Bunda sayohatlarning shakllari, mazmunlari va tarbiyaviy jihatlari ancha ustuvor turadi.

Tan olish kerakki, kasallik insonlarni tanlamaydi, ya'ni qaysi joyda, kim bo'lishidan qat'iy nazar, hatto, go'daklar, yosh bolalarni ham ayamaydi. Bunday noxush voqeeliklardan qochish, uning oldini olishda tibbiyot qatorida jismoniy jihatdan faol harakatlar yaqindan yordam beradi.

Dunyoning turli burchaklarida doimiy, surunkali davom etayotgan kasallik turlari haqida Shalkov Yu.A. (Rossiya; 16) ajoyib dalillarni keltiradi. Ularning ba'zi birlari bilan tanishish hech kimga ortiqchalik qilmaydi, balki kasallikning oldini olish, jismoniy mashqlar, ayniqsa, turizm (sayohat) bilan shug'ullanish yo'li orqali salomatlikni tiklash, chiniqishga yordam berish mumkin.

Uning ta'kidlashicha so'nggi 30–40-yil ichida (1987-yilgacha bo'lgan davr) tibbiyotga ixlos, muhtojlik ancha oshgan. Chunki kasalliklar va ularning turlari ko'payishi tufayli insonlar tibbiyotga muhtoj bo'lmoqda. Ikkinchidan esa ommaviy axborot vositalari va boshqa yo'llar bilan salomatlikni yaxshilashdagi tibbiy xizmatlar ko'p targ'ibot qilinmoqda (16–7).

Tibbiy xizmatlar, sog'lom turmush tarzining rivojlanishi tufayli o'lim o'sib borgan.

XIX asrda o'pka kasalligi, yuqumli og'ir kasalliklar (chuma, xolera, yazva va h.k.) ko'p tarqalgan va yalpi aholining qirilishiga sabab bo'lgan. XX asrda tibbiyot sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, yangi ixtirolar tufayli mazkur yuqumli kasalliklar deyarli butunlay bartaraf etilgan.

XX asrning 30–40-yillarida uzoq umr ko'rish o'sgan bo'lsada, yangi kasalliklar, ya'ni yurak, qon tomirlar xastaligi kuchaydi. Bular yurak mushaklari (qorinchalari), qon tomirlari xastaligi, qon bosimining oshishi (gipertoniya), arteroskleroz kabi asr kasalliklari kuchaydi. Bunday xastaliklar Germaniya, Finlandiya, Shvetsiya, Filippin, Avstriya va hatto, AQSHda ham ancha ko'paygan. So'nggi 50 yil davomida sobiq ittifoqda bu kasalliklarga duch kelib vafot etganlar 5 baravar ortgan (16–9). Bularning kelib chiqish sabablari quyidagilar bilan ifodalanadi, ya'ni:

1. **Inson mehnat faoliyatlari.** Inson mehnat tufayli hayotdir. Mehnatning ijobiy va salbiy tomonlari ko'p. Ayniqsa, jismoniy mehnat odam tanasini chiniqtirish bilan bir qatorda uni holdan to'ydiradi ham. Texnik taraqqiyot tufayli jismoniy mehnatlar siqib chiqarilmoqda. O'tgan yuz yil ichida (1987-yilgacha bo'lgan davr) mehnat faoliyatlari 20 marotaba kamaygan. O'tirib mehnat qilish, texnikani boshqarish oqibatlari mushak, qon tomirlari faoliyati susayib, tananing turli joylarida xastaliklar yuzaga keladi. Yana bir tomoni shundaki og'ir mehnatlarni qilishga barcha baravar bo'la olmaydi. Qolaversa, uzoq mehnat qilish ham mushak, qon tomirlari, asablarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yana bir xususiyatli tomoni shundaki, jismoniy jihatdan kuchli, baquvvat kishilar o'z kuch va imkoniyatlarini hisobga olmay og'ir yuk ko'tarish, bilmasdan texnikani ishlatish va boshqa turli sabablarga ko'ra zarar ko'rish, biron joyi sinishi mumkin. Bunday hollarda uzoq vaqt davolanishga to'g'ri kelaadi.

2. **Oziqlanish.** Jamiyat tariqqiyoti va ijtimoiy-madaniyatning o'sishi tufayli, insonlar ehtiyoji ham ko'paymoqda, ya'ni yaxshi ovqatlanish, eng zarur ozuqalarni iste'mol qilishdan iborat. Bu jihatlar ham barchada baravar bo'lmaydi. O'z vaqtida to'yib ovqat yemaslik, kam quvvatli ozuqalarni doimiy ravishda iste'mol qilish

yoki uning aksicha ortiqcha turli ovqatlarni yeyish holatlari ham insonlarda u yoki bu kasalliklarni keltirib chiqaradi. /

3. **Ijtimoiy mehnat va turmush madaniyatda ruhiy (psixologik) ta'sirlarning kuchayishi.** Insonlarning ruhiy holatlari va ba'zi xususiyatlari xursandchilik va xafagarchiliklarni turlicha qabul etadi va ularga o'z munosabatlarini u yoki bu darajada (ruhiy buzilishlar) bildiradi. Mehnat joyi va oila sharoitlarida doimiy ravishda ijobiy hamda salbiy ruhiy kechinmalar yuz berib turadi. Bu esa asablarning charchashi, toliqishi va kasalliklarga chalinishiga sabab bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, ruhiy tushkunlikdagi inson yaxshi mehnat qila olmaydi, oilada muvozanat buziladi, kamharakatchanlik kuchayadi. Oqibatda esa ko'pchilik kishilar spirt ichimliklari, tamaki chekish va giyohvand moddalarni iste'mol qilishga ruju qo'yadi (odatlanadi). /

E'tirof etish lozimki, yuqoridagi salbiy xususiyatlar O'zbekistonning yirik sanoat shaharlarida ham avvallari mavjud bo'lgan.

O'zbekistonning mustaqillik sharoitida ijtimoiy-madaniyatimiz yaxshilanib borishi tufayli aholi o'rtasida turli kasalliklarning oldini olish imkoniyatlari yaratilmoqda. Ayniqsa, «Sport» gazetasi, Respublika teleradiolarida sihat-salomatlikni ta'minlash, aholining bu sohadagi nazariy tushunchalari va amaliy faoliyatlarini kuchaytirish maqsadida targ'ibot ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Ishlab chiqarish korxonalarining mehnatkashlari, barcha turdagi o'quv yurtlarining yoshlari hamda ziyolilarning dam olishi, salomatliklarini yaxshilash yo'lida tarixiy shaharlardagi madaniy obidalarga sayr (экскурсия) uyushtirish, o'quvchi yoshlar va mehnatkashlarning yozgi sog'lomlashtirish oromgohlari faoliyatini yaxshilashda ancha ibratli tadbirlar o'tkazilmoqda.

Sayohatlarning sog'lomlashtirish xususiyatlari shundaki, piyoda yurish, sof havolarda dam olish, tunash, quyosh nurlari hamda tez oqar zilol suvlarda cho'milib chiniqishni ta'minlaydi. Bu esa nafas olish, qon aylanish, ovqatni hazm qilish a'zolarining ish faoliyatini yaxshilab, sihat-salomatlikka yo'llaydi.

Sayohatlarning tashkiliy jihatlarini keyingi bo'limlarda bayon etiladi.

3.2. Tashkiliy tadbirlar

Jamoalarda turistik sayohatlarni mazmunli va ko'ngildagidek o'tkazish uchun quyidagilarga amal qilish lozim bo'ladi:

1. Turizm bo'yicha seksiya tuzish va mashg'ulotlarni planli asosda tashkil qilish.

2. Topografik elementlarni to'la o'rganish, kundalik rejim qoidalarini turistlarga singdirish.

3. Turistik jihozlar bilan mashq qilish va jismonan chiniqish.

4. Marshrutni aniq belgilash va uni chuqur o'rganish, yo'l rejasini tuzish, bu ishga mas'uldor kishilarning vazifalarini aniqlash.

5. Tegishli yo'l xarajatlari, turistik jihozlarni avvalda tayyorlash.

6. Poxod va ekskursiyalar davomidagi asosiy talablar bilan turistlarni to'la tanishtirish va unga qat'iy amal qilishni o'rgatish.

7. O'zaro hurmat, mahalliy kishilar mehnatini ulug'lash, etika normalariga to'la amal qilish.

8. Belgilangan joylarda foydali mehnat qilish, tarixiy voqyealar yoki faktlarni aniqlashda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslik.

9. Sayohat davomida barcha qatnashchilar ruhini ko'tarish, faollik ko'rsatganlarni o'z vaqtida rag'batlantirish, hisobotlarni poxod va ekskursiya jarayonlarida tuzish, barcha ishlarni qayd etib borish.

10. Sayohat uchun zarur bo'lgan vositalarni doimo birga olib yurish, ularni ehtiyot qilish.

11. Sayohat davomida musiqa asboblari, radio, qo'l telefoni, magnitafon, fotoapparat, binokl, to'p va boshqa narsalarning bo'lishiga erishish zarur.

Piyoda yurish turizmi

Piyoda yurish turizmi deganda sayohatchilarning belgilangan marshrut bo'yicha (bir kunlik yoki ko'p kunlik) bevosita piyoda yurishi tushuniladi. Bunday paytlarda turistik qoida va shartlar

asosida keraklik jihozlar, oziq-ovqatlarni sayohatchilar o'zlari bilan birga olib yurishadi.

Piyoda yurish turizmini uyushtirganda yirik sanoat va madaniyat o'choqlari: Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Farg'ona, Navoiy, Qarshi, Chirchiq, Guliston, Yangiyer, Ohangaron, Jizzax kabi shaharlarning tarixi bilan tanishishni albatta rejalashtirish kerak bo'ladi. Respublika sharoitida piyoda yurish turizmini uyushtirish qoidalari va ularning normalari to'g'risida keyingi bo'limlarda gapiramiz.

Tog' turizmi. Turizmning bu turi turistik qoidalarga asosan qiyinchilik kategoriyalari asosida tashkil qilinadi. O'zbekistonning hamma viloyatlarida ma'lum darajada turistik birinchi kategoriyali qiyinchilikdagi tog'lar mavjud. Zarafshon, turkiston tizma tog'larida, Farg'ona, Toshkent viloyatlari atroflaridagi tog'larda turizmning ikkinchi va uchinchi kategoriyali qiyinchilikka to'g'ri keladigan tog'lar hamda dovonlar bor. Demak, Farg'ona, Zarafshon, Chirchiq vodiysida joylashgan kishilar uchun tog' turizmini keng rivojlantirsa bo'ladi.


Tog' turizmi bo'yicha seksiyalar tashkil qilish, turli poxodlar uyushtirish uchun instruktorlar, rahbar kadrlar va havaskor turistlar avvalo, tog' turizmining qoidalarini batafsil o'rganishlari, mutaxassislardan tegishli maslahatlar olishlari shart. Tog' turizmida ishtirok etmagan rahbarlar yoki instruktorlarga jamoani birdaniga baland tog'larga olib chiqish man etiladi. Chunki tog'larda yurishning o'ziga yarasha qonun va qoidalari bor. Ularni izchil o'rganmasdan va tajribada sinamasdan turib poxodlarda yaxshi natijalarga erishish mumkin emas.

Piyoda va tog' turizmini aralash uyushtirishning o'ziga xos xususiyati shundaki, turistlar tog' zonalarida yurish, tartibini to'la bilishlari, kerakli jihozlarni jamg'arishlari lozim. Tezoqar daryo va ko'llar atrofida tunash, yurish, yashash qoidalarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari kerak.

Respublika sharoitida turizmning velosiped, avtomobil, mototsikl, qayiqda sayohat qilish turlari ham mavjud.




1-rasm. Arqonni qoyaga mustahkamlash usullari.



2-rasm. Arqonni tanaga bog'lash usullari.



3-rasm. Oldindagi kishining xavfsizligini ta'minlash.



4-rasm. Chuqur suvdan o'tish tartibi.

Hozirgi paytda respublikaning eng chekka va uzoq tumanlariga asfalt yo'llar qilinib, ular viloyatlar va respublika markazlargacha tutashib ketgan. Shuningdek, tog'li zona rayonlarida ham yo'llar mashinalar uchun qulay ravishda moslashtirilgan. Ana shu sharoitlar velosiped, mototsikl, avtomashinalarda sayohat qilish imkonini beradi. Navoiy, Samarqand, Bekobod, Farg'ona, Toshkent va boshqa ko'pgina shaharlardagi veloturistlar ancha tajribaga egadir. Ular veloturist kartalari, marshrutlarini tayyorlaganlar. Bir necha bor Samarqand – Dushanbe, Bekobod-O'ratepa-Dushanbe, Navoiy-Samarqand-Termiz kabi marshrutlar bo'yicha sayohatlar o'tkazganlar. Samarqand, Navoiy, Toshkent motopoygachilari ham yuqoridagi marshrutlar bo'yicha ko'pgina turistik sayohatlar uyushtirganlar. Toshkent, Yangiyer, Farg'ona turistlari yengil avtomashinalarda faqat respublika shahar va tumanlariga emas, balki qardosh Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, hatto Rossiya shaharlariga ham turli sayohatlar uyushtirmoqdalar.

O'zbekistonda sayohatlar rejali yoki bevosita havaskorlik yo'li bilan uyushtiriladi. Rejali sayohatlar davlat yo'li bilan, maxsus yo'llanmalar orqali o'tkaziladi. Bunday paytlarda respublika yoki xorijiy davlatlariga (Kavkaz, Boltiqbo'yi, Uzoq sharq va h.k.) sayohatlar uyushtiriladi. Bunday sayohatlarda individual va guruh shaklida ham qatnashish mumkin yoki bir jamoa bo'lib uyushtirish mumkin. Bunday sayohatlarni o'tkazishda viloyat, respublika turizm kompaniyalari o'z zimmlariga oladilar.

Ko'pgina maktab, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalari, muassasalar, qishloq mehnatkashlari jamoa bo'lib, ko'ngilli ravishda havaskorlik poxodlari, sayohatlari, ekskursiyalarini mahalliy tashkilotlar va kasaba uyushmalarining rejasi hamda ruxsati bilan uyushtirishlari mumkin.

Sog'lomlashtirish oromgohlari

O'zbekistonning tog'li tumanlarida juda ko'p o'quvchilar dam olish oromgohlari, ishlab chiqarish korxonalarining, o'quv yurtlarining dam olish uylari, sog'lomlashtirish-sport maskanlari joylashgan. Farg'ona vodiysi, Toshkent viloyatidagi tog'lik joylarda oromgohlar ko'p miqdorni tashkil qiladi.

Keyingi yillarda Samarqand viloyatidagi Ohalik, Omonqo'ton, Urgut, Oqsoy tog'lik joylarida 50 ga yaqin oromgohlar tashkil qilindi. Bu joylarda yozgi dam olish, sport bilan shug'ullanish, turistik poxodlar uyushtirish, slyotlar o'tkazish, gulxanlar yoqish,

bayramlar tashkil qilish va turistik texnikaga doir musobaqalar o'tkazish an'anaga aylanib qolgan.

Turizm bo'yicha razryadlar va kategoriyalar qiyinchiligi

Sobiq ittifoq davrida yagona sport klassifikatsiyasida turizm mustaqil sport turi hisoblanadi va boshqa sport turlaridagi razryadlar bunda ham mavjud. Bular quyidagilardan iborat:

Unvonlar va razryadlar	Jinsi .	Sayohatlarning qiyinchilik kategoriyalari										
		I		II		III		IV		V		Barcha sayohatlar
		Qatnashchi	Rahbarlik	Qatnashchi	Rahbarlik	Qatnashchi	Rahbarlik	Qatnashchi	Rahbarlik	Qatnashchi	Rahbarlik	
Sport ustasi	Erlar	1	1	1	1	1	1	1	1	1	2	11
	Ayol- lar	1	1	1	1	1	1	1	2	1	-	10
Sport ustaligiga nomzod	Erlar	1	1	1	1	1	1	1	1	1	2	9
	Ayol- lar	1	1	1	1	1	1	1	1	-	-	8
I	Erlar va ayol- lar	1	1	1	1	1	1	1	-	-	-	7
II	--/--	1	1	1	1	1	-	-	-	-	-	5
III	--/--	1	1	-	-	-	-	-	-	-	-	2
I yoshlar	--/--	1	-	1	-	-	-	-	-	-	-	2
II yoshlar	--/--	1	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1
III voshlar*	--/--	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-

* Dala sharoitida 5 kun tunash sharti bilan 10 marta poxod uyushtirilib, jami 150 km. dan kam bo'lmaganda beriladi.

Ko'rsatkichlar	Qiyinchilik kategoriyalari				
	I	II	III	IV	V
Sayohatlarning muddati (kun hisobida shundan kam bo'lmashligi lozim)	6	8	10	13	13
Sayohat masofasining oralig'i, km:					
Piyoda	150	180	210	230	250
Chang'i	150	180	210	260	310
Tog'	130	130	150	180	180
Suv (sol va eshkak eshib)	150	200	250	275	300
Velosiped	250	350	450	750	1100
Avtomobil	1500	3000	4000	5000	6500
Mototsikl	1000	2000	2500	3200	4000
Moped	500	1000	1500		

Eslatma: agar sayohatlar aralash bo'lganda masofa va qiyinchilik kategoriyalari turizm va ekskursiyalar markaziy sovetining tasdiqlagan ko'rsatmasi asosida alohida hisoblanadi va qiyinchilik kategoriyalariga qarab past yoki baland bitta norma qo'yiladi.

Razryad normalarini qayta bajarish muddati ikki turga belgilanadi va bunda bir kategoriya yuqori normativni bajarish talab etiladi.

Sayohatlar marshrut kvalifikatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangan holda uyushtirilgan va belgilangan talablar to'la bajarilgandagina haqiqiy deb hisoblanadi. Buning uchun:

- I kategoriya qiyinchilikdagi poxod haqida og'zaki hisobot;
- II va III kategoriya qiyinchilikdagi sayohatlar haqida yozma hisobot;
- IV va V kategoriya qiyinchiligidagi poxod uchun rahbar to'la yozma hisobot topshiradi.

Tegishli marshrut kvalifikatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangach, yuqori organlarga tavsiya etiladi va turizm va ekskursiyalar Markaziy Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

IV va V kategoriyali poxodlarning yilda ikki marta o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Razryad va unvonlarni berish qoidasiga ko'ra, I, II, III kategoriyali qiyinchlikdagi poxodlarga rahbarlik normasini II, IV, V kategoriyali qiyinchilikda qatnashish yo'li bilan bajarsa bo'ladi.

Avtomashina, mototsikllarni bevosita boshqargan kishilargina razryad normasini bajargan hisoblanadi. Turizm bo'yicha sport ustasi va sport ustaligiga nomzod unvonini olish uchun instruktorlik normasini ham bajarish lozim.

Turizm bo'yicha instruktorlar

Sobiq SSSR jamiyatlari va tashkilotlari Markaziy Kengashi 1961-yil 7-dekabrda «Turizmdan jamoatchi instruktorlar tayyorlash haqida Nizom»ni tasdiqladi. Bu Nizom hozir ham o'z kuchini yo'qotgan emas. Shunga asosan barcha turizm seksiyalari, asosan markaziy seksiyalarda jamoatchi instruktorlar tayyorlash muhim vazifa qilib qo'yildi. Maktab o'quvchilari, talabalar, mehnatkash yoshlardan jamoatchi instruktorlar tayyorlashda maxsus qo'llanmalar va instruktorlardan foydalaniladi.

Instruktorlar seksiya ishlariga rahbarlik qilish, turistik poxodlarni uyushtirish, poxodlarning mazmunli o'tishini ta'minlash, musobaqa va slyotlarni tashkil qilish uchun universal bilim va tashkilotchilik mahoratiga ega bo'lmoqlari kerak.

Keyingi yillarda turistik ishlarni tashkil qilishda turli ixtisoslar paydo bo'lmoqda: turistik ishlar tashkilotchisi, turistik jamoa rahbari (seksiya, sayohat, dam olish kunidagi poxodlar), konsultantlar (marshrut kvalifikatsiya komissiyasi), turistik musobaqa hakamlari.

Turistik tashkilotchilar jismoniy madaniyat jamoalarida turizm bo'yicha seksiyalar tashkil etish, ularga rahbarlik qilish (komissiya, gruppalar), dam olish kunlari poxodlarini boshqarish va turizmni targ'ib qilishda aktiv ishtirok etadilar.

Jamoatchi konsultantlar turistlar, aktivlarga maslahatlar beradilar, sayohat joylarini tanlash, marshrutlarni belgilashda ularga yordamlashadilar, xilma-xil ko'rsatmalar beradilar. Ular marshrut kvalifikatsiya komissiyasi tarkibida bo'ladilar.

Maktablarda turizmning ahamiyati

Kommunistik tarbiyaning muhim vositalaridan biri bo'lgan turizmni yanada rivojlantirish masalalari kundan-kunga katta ahamiyat kasb etmoqda.

Maktab yoshidagi o'quvchilarning jismoniy va nazariy tayyorgarligi, turistik sayohat shakli va mazmuni katta kishilar turizmidan tubdan farq qiladi. Shu sababdan maktab o'quvchilarining turizmini professional pedagogik turizm deb ayta olamiz.

Jismoniy tarbiya dasturida turizm alohida o'ringa ega. Bu o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi va o'lkani o'rganishga qaratilgan muhim tadbirdir.

Gumanitar va tabiatshunoslik turkumidagi fanlar bo'yicha yangi o'quv rejalari va dasturlariga o'tishning tugallanishi munosabati bilan o'qitishda o'lkashunoslik ishlarining ahamiyati tobora ortmoqda. O'quvchilar poxod va ekskursiyalarda jonajon o'lka tabiati bilangina emas, balki uning tarixi bilan ham tanishmoqdalar. Sayohatlarda to'plangan materiallar maktab muzeylari, fan kabinetlarining mulki bo'lib qolmoqda.

O'qituvchilar tarix, geografiya, biologiya, adabiyot, fizika va boshqa darslarda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanib, o'quv materiallarining puxta o'zlashtirilishiga erishayotirlar.

Bu jarayonlar O'zbekistondagi ko'pgina umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida ham alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'lkashunoslik va ijtimoiy foydali ishlar

Turistik sayohatlarning barcha turlarida ham o'lkashunoslik ishlarini olib borish ko'zda tutiladi. Bu ishning mazmuni va hajmi sayohat o'tayotgan tuman yoki joyning sharoitiga, shuningdek, avvaldan qo'yilgan vazifalarga bog'liqdir. Shu sababli o'lkashunoslik ishlarining asosiy obyekti ishlab chiqarish korxonalari, ishlab chiqarish vositalari, hozirgi zamon ishlab chiqarish texnikalari, tog', o'rmonlar, turli yodgorliklar va boshqalar hisoblanadi.

Odatda, o'z o'lkasini o'rganish birinchi vazifa qilib qo'yiladi. Bu ko'pincha uzoq davom etadigan sayohatlarda amalga oshiriladi yoki shu joyning o'ziga bir necha bor sayohatlar tashkil qilishga to'g'ri keladi.

Turistlarning o'lkashunos ishlari muhim ahamiyatga egadir. Biron rayon yoki joyni kompleks ravishda yozish, geografik, tabiiy ko'rinishlarini chizish, tabiati, hayvonot va o'simlik dunyosini aks ettirish ayrim paytlarda mustaqil ilmiy ishlar qilishni taqozo qiladi. Tabiiy va iqtisodiy geografiya, paleontologiya, o'lka tarixi va boshqa o'lkashunoslik materiallarini ilk o'rganish natijalari ko'p hollarda ular ilmiy tadqiqot institutlarining muhim obyektiga aylanishiga sababchi bo'ladi.

Marshrutni tanlash o'quvchilarning kelajakda yana sayohat qilish havasini orttiradi. Shu sababdan sayohatga tayyorlanishda o'sha joyning butun tarixi va hozirgi sharoitini avvaldan chuqur hamda izchil o'rganish lozim. Ma'lum adabiyotlar, ilmiy maqolalar orqali o'sha joydagi muzey, tarixiy yodgorliklar va muhim ahamiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari, madaniyat o'choqlari va diqqatga sazovor joylarini bilish lozim.

Daryo va ko'llarning sohillarida qadimgi suv izlari, tog' jinslari, turli topilmalarni kuzatish mumkin. Tog'li joylarda turli rangdagi va qatlamdagi toshlar, ohaklar (jinslar), qorning saqlanish sabablari, muzlarning joylashishi, qaysi hayvonlar yoki parrandalar mavjudligi, ularning sonini aniqlash lozim bo'ladi. Turistlar tog' va daryo, ko'l sohillaridagi g'orlar, toshdagi yozuvlar, turli qoldiqlar tarixini o'rganishni ham vazifa qilib oladi. Mehnat maydonida zabardast kishilarning ish usuli, olinayotgan mo'l hosil sirlarini aniqlash o'quvchilarda mehnat qilish havasini uyg'otadi. Oktabr revolyutsiyasi qatnashchilari, ularning avlodlari, boshqalar qarshi kurashda mardlarcha halok bo'lgan qizil askarlar-komsomollar mozorini obodonlashtirish, kolxozlashtirish davrlarda jasorat ko'rsatgan ayollar, erkaklar, yoshlar hayotini o'rganish, Utug' Vatan urushi qatnashchilari, mehnat veteranlari bilan uchrashuvlar tashkil qilish katta ahamiyatga egadir.

Ijtimoiy foydali ishlar, yani bahor paytlarida ko'chat o'tkazish, ekinlarni begona o'tlardan tozalash, pilla qurtlari uchun barglar uzish, yozda pichan to'plash, ho'l mevalarni terish, sabzavotlarni yig'ishtirish hamda boshqa ishlarga aktiv qatnashish turistlarning muqaddas burchlaridan hisoblanadi.

Sayohatlar davomida tabiatni muhofaza qilish, ayniqsa daraxtlarni sindirishga yo'l qo'ymaslik, yong'inga qarshi tadbirlar

uyushtirish hamda ekinzorlarni mollardan saqlash sohasidagi ishlar ham turistlar uchun muhim burch hisoblanadi.

O'rta Osiyo respublikalarida aholining anchagina qismi tog' va tog' yonbag'irlarida yashaydi. Ular turli xo'jalik ishlari bilan band bo'ladilar. Bunday joylarda turistlar sobiq partiya va hukumatning chiqargan qarorlarini amalga oshirish yuzasidan tushuntirish ishlari olib borishlari, suhbat, konsertlar, jismoniy madaniyat va sport temalarida leksiya va ma'ruzalar uyushtirishlari, sport chiqishlari tashkil qilishlari lozim. Jismoniy madaniyat, sport va turizmni xalqning kundalik turmushiga keng singdirish yo'llarini topish kerak.

Tevarak-atrofnı kuzatib borish, turli tarixiy manbalarni o'rganish, xalq xo'jaligi qurilishlarini ko'rish sayohatchilarning bilim doiralarini tobora kengaytiradi. Turistlar sayohat oldidan ilmiy tadqiqot institutlari, muzeylar, tashkilotlardan maxsus topshiriqlar olib, ularni puxta bajarishlari odat tusiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, tabiatni muhofaza qilish, ko'chatlar o'tqazish, ko'kalamlashtirish, qishloq xo'jaligi mehnatkashlariga yordam berish ishlari yaxshi samaralar bermoqda.

O'zbekistonning Zarafshon va Farg'ona vodiylarida, Surxondaryo va Xorazm vohalaridagi juda ko'p maktablarda dam olish kuni uyushtiriladigan turistik poxodlar paxtakorlar, sabzavotkorlar, bog'bonlarga yordam berishga qaratilgan.

O'zbekiston maktablari va boshqa o'quv yurtlari talabalarining sayohatlari asosan bahorgi ta'tilda Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarining tarixiy yodgorliklari bilan tanishish, Toshkent, Navoiy, Qarshi, Yangiyer, Guliston shaharlarini sayr qilishga mo'ljallanib, ular poyezdlar, avtobuslarda va samolyotlarda uyushtiriladi. Bunday joylarda turli sayohatlar uyushtirish o'lkashunoslik ishlarini jonlantirish hamda ijtimoiy foydali ishlarni keng va avj oldirish imkonini beradi.

Yosh o'quvchilar bosqichlarida turistik ishlar

Turistik sayohatlar o'quvchilarning eng sevimli mashg'ulotlaridan hisoblanadi.

Turistik sayohatlar tuganmas zavq manbayi. Gulxan atrofida suhbat qurish, o'yin tashkil qilish, daryo sohillarida sayr etish, tunash, tog' ufqlaridan quyoshning mo'ralab chiqishi va botishini

kuzatish o'quvchilarga zavq va shavq bag'ishlaydi. Shuningdek, mehnat ilg'orlari, urush qatnashchilari, ko'pni ko'rgan keksalar bilan miriqib suhbatlashishning o'ziga xos zavqi bo'ladi. Tarixiy yodgorliklar va muzeylarni tomosha qilish dunyoqarash va bilimlarni oshiradi.

Turistik sayohatlar o'quvchi uchun jismoniy chiniqish estetik va siyosiy tarbiya maktabi hisoblanadi. Bu demak, Ona-Vatan bilan tanishish, kishilar bilan, ayniqsa, mehnat faxriylarining ilg'or ishchilari bilan suhbatda bo'lish, qahramonlar bilan uchrashish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilar bilan suhbat uyushtirish uchun, avvalo, bolalar turistik-ekskursion stansiyalar, turistik klublar yoki turistik bazalar bilan aloqada bo'lish kerak.

Turistik sayohatlarni tashkil qilish va uyushtirishda qism rahbarlari, yoshlar tashkiloti va sinf rahbarlari katta yordamchi hisoblanadi. Buning uchun ularga turizmning tashkiliy formalari va vazifalarini qunt bilan o'rgatish lozim.

O'quvchilarni yig'ib kichik guruh tashkil qilish, bunda asosan faol o'quvchi va yoshlar tashkilotiga tayanish, dam olish kuni sayohatini tashkil qilish kerak. Buni ko'rgan 3-4 va 5-6 sinf o'quvchilari ham asta-sekin sayohatga qiziq boshlaydi.

O'quvchilar soni sayohatda ko'pchilikni tashkil qiladigan bo'lsa, unda o'quvchilarni zvenolarga bo'lish kerak bo'ladi. Bu usullar o'quvchilarni ma'lum joylarga yig'ish, barcha ishlarni tartibli, planli olib borishga imkon yaratadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar (10-11) 5-8 km masofadagi sayohatlarda qatnashadi. Gulxan yoqish, ovqat pishirish, joylarni chamalash, mo'ljallab topish, turistik estafetalarda qatnashish bir kunlik turistik sayohatlarda bajariladi.

O'rta yoshdagi o'quvchilar (11-12 yosh) bir kunlik va ikki kunlik sayohatlarga qatnashishi lozim. Bunga dam olishni tashkil qilish, tunash, azimut bo'ylab yurish, joylarni quyosh, yulduzlar va mahalliy predmetlar bo'yicha mo'ljallab topish, tomonlarni belgilash hamda ovqat pishirish kabi turistik malakalar hosil qilinadi.

Bu yoshdagi o'quvchilar o'z sayohatlari davomida iste'mol qilish mumkin bo'lgan yovvoyi mevalar, o'simliklar va dorivor o'tlarni tanlashlari lozim. Sayohat jarayonida tog' va qo'riq-xonalardagi hayvonlarni, qushlarni, zaharli ilonlar chaqqanda

birinchi meditsina yordami ko'rsatishni bilish ham talab qilinadi. Sayohatlarda qatnashib, o'quvchilar «Yosh turist» nishoni normasini bajaradalar.

Katta yoshdagi o'quvchilar (13–15 yosh) turizm va o'lkashunoslik ishlarida aktiv qatnashib, ko'p kunlik turistik sayohatlarga chiqadilar. Bunda o'z o'lkasini o'rganish, maktab muzeyiga materilalar yig'ish, jismoniy chiniqish, turistik malakalarni mustahkamlash asosiy maqsad qilib qo'yiladi.

Bu yoshdagi o'quvchilar kichik yoshdagi o'quvchilar turistik sayohatlarni tashkil qilishda, shuningdek, turistik slyotlar, turli musobaqalarda ham qatnashadilar.

Yosh o'quvchilarning turistik ishlari bo'yicha bosqichlari maxsus testlardagi turizm talablari bilan deyarli mos keladi. Shuning uchun o'quvchilar tashkiloti turistik ishlarni tashkil qilash va o'tkazishda, seminar va suhbatlar tashkil qilganda bevosita maktabdagi jismoniy tarbiya komissiya a'zolari bilan hamkorlikda ish tutishlari lozim.

O'quvchilar tashkilotlari uyushtirgan turistik sayohatlar, ekskursiyalar va boshqa turistik tadbirlar albatta tegishli rasmiy hujjatlarda qayd etilishi va tasdiqlanishi shart.

«Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarida turizm

Turizm maxsus testlarining muhim talablaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu 2000-yil martda tasdiqlangan maxsus testlar bosqichlarida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Maxsus testlar uch qismdan (6–16 yosh, 17–35 yosh, 36–60 yosh) iborat bo'lib, aholining barcha qatlamlarini o'z ichiga oladi. Kichik yoshdagi o'quvchilar 2–3 kimga sayr, katta yoshdagi o'quvchilar 6–8 kimga sayohat va katta yoshdagi aholi esa 10–12 kimga sayohatda ishtirok eishlari lozim. Bu bosqichdagi turistik poxodlarning avvalgilardan farqi shuki, joylarni chamalab topish musobaqasida o'quvchilar masofani mustaqil ravishda o'tavdilar. Buning uchun azimut, topografik belgilarni aniq bilish, maxsus jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lish kerak.

Maktablarda turistik to'garaklar va seksiyalar. Ko'pgina maktablarda barcha sport turlari kabi turizm bo'yicha ham to'garaklar, seksiyalar tashkil qilingan. O'lkani o'rganish, turli

kolleksiyalar to'plash bo'yicha maxsus kabinetlar tashkil qilingan. Bu kabinetlar huzurida to'garaklar mavjud.

Mamlakatimizda turistik harakatning boshlang'ich asosi ana shu to'garaklardir. Maktablarda turizm bo'yicha to'garak tashkil qilish formasi boshqa turlari kabi, avvalo, o'quvchilar bilan turizm to'g'risida suhbat o'tkazish, ular bilan kichik sayohat uyushtirish, turizm to'g'risida o'quvchilar yig'ilishi, devoriy gazetalarda targ'ibot ishlarni tashkil qilishdan boshlanadi. Natijada, qisqa vaqt ichida poxodlarga qiziquvchilar soni ko'payadi. Shu tariqa to'garakka asos solinadi. O'tkaziladigan sayohatlar rejasi tuziladi. Tematik rejalar geografiya, tarix, ona tili, adabiyot o'qituvchilari hamda o'quvchilar tashkilotlari bilan hamkorlikda tuziladi. Bu ishlarga asosan jismoniy madaniyat o'qituvchilari rahbarlik qiladi. Seksiya jurnali tashkil qilinib, undagi barcha talablar bajarilib borildi.

Turistik to'garaklar o'z maktab atrofi, tuman miqyosida turli sayohatlar uyushtiradi. Tajriba va malaka orttirilgach, to'garaklar o'z seksiyasini tashkil qilish mumkin.

Seksiyaning ish formasi to'garaklardagidek bo'ladi. Lekin, bunga mashg'ulotlarning mazmuni, formasi, talablari shug'ullanuvchilar uchun kengroq, to'laroqdir. Seksiya dam olish kunlari, ta'til paytlari bir kunlik va ko'p kunlik turistik poxodlar tashkil qiladi.

Umumta'lim maktablardagi turistik to'garak va seksiyalar ko'ngilli turizmning asosi hisoblanadi

Bolalar uylarida barcha sport, fan to'garaklari kabi turizm bo'yicha ham to'garak yoki seksiya tashkil qilinadi.

Yozgi sog'lomlashtirish oromgohlari

Yozgi dam olish oromgohlaridagi mashg'ulotlarni turistik poxod va sayohatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yozgi dam olishning asosini sport mashg'ulotlari, turistik sayohatlar, slyotlar va boshqa tadbirlar tashkil qiladi. Shu sababli sog'lomlashtirish lagerlarida bir kunlik va ko'p kunlik turistik sayohatlar qilish rejalashtiriladi. Sog'lomlashtirish oromgohlaridagi sog'lig'ining zaifligi tufayli poxodlardan ozod qilingan o'quvchilar esa kichik sayohatlar bilan chegaralanadilar. Barcha dam oluvchilarga o'lkashunoslik, tog' va piyoda yurish turizmi, turizmning texnik turlari va qoidalari to'g'risida tushuncha beriladi. Sayohat qatnashchilariga yoshlar va bajargan ishlariga qarab «Yosh turistik»

nishonlari, hatto razryad normalarini bajarganliklari uchun nishonlar beriladi.

Turizm ishlarining dastur rejalar

Maktablarda, bolalar muassasalarida tashkil qilingan turizm seksiyalarining dastur rejalar har bir jamoa imkoniyatiga qarab tuziladi. Maktab o'quvchilarining O'zbekiston sharoitidagi turistik poxodlarni tashkil qilishning namunaviy dasturi va rejalarini quyidagicha tuzish mumkin:

Turistik tashkilotlar va turistlarni tayyorlash o'quv rejasi

T/r	Mavzu nomi	Soatlar soni			
		Jami	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulotlar	
				Audi-to-riya-da	Dala sharo-itida
1	Ommaviy turizm	2	2	—	—
2	Jismoniy madaniyat haqida jamoalardagi turizm seksiyalarini tashkil qilish va uning mazmuni	9	4	2	3
3	O'lkamizning turistik imkoniyatlari	4	4	—	—
4.	Turistlarning ijtimoiy foydali ishlari. Tabiatni muhofaza qilish	1	1	—	—
5	Dam olish kunlari turistik poxodlarni tashkil qilish	13	3	2	13
6	Turistlar topografiyasi	9	2	2	5
7	Turistlar gigiyenasi. Poxodlarda nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish va birinchi meditsina yordami (vrachgacha)	6	2	2	2
8	Turistlarni jismoniy tayyorlash	1			
	Jami:	50	18	8	24

Jamoalardagi turizm seksiya ishlarining dasturi

Ommaviy turizm jismoniy tarbiyaning muhim vositalaridan biri. Jismoniy tarbiya sistemasida turizmning o'rnini. O'zbekistonda turizmni tashkil qilish. Kasaba uyushmasining turizmning rivojlantirishdagi o'rnini. O'zbekistonda havaskorlik turistik sayohatlarini tashkil qilish qoidalari. Yo'llanma bo'yicha sayohatlar. Turizmning turlari va uning xususiyatlari. «Yosh turist», «Turist» nishonlari va turizmning klassifikatsion normalari.

Jamoalarda turizm seksiyalarini tashkil qilish va uning mazmuni. Havaskorlik ommaviy turizmning asosidir. Ommaviy turizmni rivojlantirishda turizm seksiyalarining roli. Seksiyalarning vazifalari, uni tashkil qilish va mazmuni. Tashkiliy byuro, uning funksiyalari. Seksiani tashkil qilishda jamoat tashkilotlarining roli. Tashkiliy yig'ilishlar. Seksianing byurosi, vazifalarni taqsimlash. Komissiyalar, seksiyalar, ularning funksiyalari.

Seksiya ishlarining mazmuni: dam olish kuni turistik poxodlari, sayohatlari, ekskursiyalarni tashkil qilishda, ko'p kunlik sayohatlar, slyotlar, turistik musobaqalar uyushtirish, seksiya a'zolarining malakasini oshirish, turizmni targ'ib qilish, faollarni tayyorlash, mahalliy jamoat tashkilotlarining tadbirlarida qatnashish.

Seksiyaning tarbiyaviy ishlari, uning forma mazmunlari. Turizmning tarbiyaviy ta'siri haqida tushuncha. Faollarning roli va ularning tarbiyadagi namunalari.

1. Seksianing ish rejalari (yillik, kvartal-chorak, oylik), ularning taxminiy forma va mazmuni. Moliyaviy taminot va uning asoslari. Pullarni sarflash smetasi (plani), mablag'lardan unimli foydalanish. Seksianing moddiy bazasini tayyorlash. Turistik-sog'lomlashtirish lagerlarini tashkil qilish. Turistlar klubi, turistlar seksiyalari va boshqa jamoalar bilan aloqada bo'lish. Homiylik ishlari. Ishlarni hisobga olib borish. Slyotlarni tashkil qilish va seksiya ishlarining rejasini tuzish.

2. O'lkaning turistik imkoniyatlari. O'lkaning tabiiy-geografik hamda iqtisodiy xarakteristikasi: ob-havo, relyefi, o'simlik va hayvonot dunyosi, foydali qazilmalar, ishlab chiqarish korxonalari, qishloq xo'jaligi va transport aloqalarining rivojlanishi. Ekskursiya obyektlari: tarixiy arxitektura va boshqa yodgorlik joylari, muzeylar, ilg'or tashkilotlar, kolxozlar, sovxozlar. Dam olish

kuni poxodning marshruti haqida tavsiyalar. Turizm bo'yicha yo'l boshlovchi, ma'lumotnoma va boshqa adabiyotlar.

3. Turistlarning ijtimoiy-foydali ishlari. Tabiatni muhofaza qilish. O'lkashunoslik sohasidagi vazifalarni bajarish, aholi o'rtasida otaliqdagi ishlarni bajarish, targ'ibot va boshqalarni ijro etish. Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun. Zararkunandalar bilan kurashish. Ekologik muvozanatlar.

4. Dam olish kuni turistik poxodlarni tashkil qilish va uni o'tkazish. Poxod oldidan ko'rgazmalar olish, konsultatsiya qilish. Guruhni tuzish va ularning aniq vazifalarini belgilash. Marshrutni ishlab chiqish, uning yo'nalishi, sxemasini chizish va grafignini tuzish, moliyaviy xarajatlar smetasi. Guruh va shaxsiy jihozlar. Oziq-ovqatlar. Poxod qatnashchilariga yuklarni taqsimlash. Ryukzakni taxtlash. Yo'l hujjatlarini rasmiylashtirish. Poxod qatnashchilarining yig'ilish joyini belgilash.

Marshrutdagi yurish tartiblari, boshlovchi va saf oxirida yuruvchining vazifalari. Kunlik rejim. Dam olishlarni tashkil qilish: joyni tanlash: lagerni tashkil qilish plani; palatkalarni o'rnatish; ishlarni taqsimlash. Gulxan yoqish va uning ishlatilishi, gulxanda ovqat pishirish. Kiyimlarni quritish. Dam olishni tugallash va atroflarni to'la yig'ishtirish, tozalash.

Tabiiy to'siqlardan o'tish tartiblari. Dam olish kuni poxodlarida xavfsizlikni ta'minlash. Oddiy tugunlar va ularni ishlatish tartibi. Dam olish kuni poxodi rahbarning vazifalari.

5. Turistik topograflar. Turistlar uchun topografiyaning ahamiyati. Dam olish kuni poxodlarida ishlatiladigan xaritalar. Joylarning plani, sxemasi. Masshtablar (sanoq va chiziq). Asosiy shartli belgilar. Xaritalarni o'qish va sxemalarni tuzish. Kompas. Mahalliy magnit og'ishlari.

Joylarda xarita, kompas va mahalliy predmetlar orqali chamalash. Mahalliy sharoitlardagi predmetlarga qarab ufqni belgilash, soatlar, tungi yorug'lar, osmon yoritqichlari bilan ufqni belgilash. Azimut bo'ylab yurish.

6. Turistlar gigiyenasi. Poxodlarda nazorat. O'z-o'zini nazorat qilish va birinchi meditsina (shifokorgacha) yordami. Turistlarning shaxsiy gigiyenasi. Muntazam meditsina ko'rigining ahamiyati. Poxodda o'z-o'zini nazorat qilish, qishki sharoitlarda nazorat

qilishning xususiyatlari. Terlash, quyosh va issiqlikdan saqlanish hamda sovuq urishning oldini olish.

Poxodlarda birinchi meditsina yordami ko'rsatish: ko'ygan, teri ustlari zararlangani, qon ketish, bo'g'inlarning zararlanishi, chiqishi, sinishi, quyosh nuri va sovuq urishi, zaharlangan paytlar. Bog'lashlar. Sun'iy nafas oldirish. Kasallanganlarni jo'natish. Dam olish kuni poxodlarni dori qutisidagi dorilar tarkibi.

7. Turistlarni jismoniy tayyorlash. Jismoniy tayyorgarlikning ahamiyati va uni mukammallashtirish yo'llari. Ertalabgi gimnastika, dam olish kuni poxodlarida jismoniy tayyorgarlik, organizmni chiniqtirish. Tavsiya qilinadigan jismoniy mashqlar. Sport turiari bo'yicha mashg'ulot o'tkazish.

Turistik seksiyalarda o'tkaziladigan mashg'ulotlarda, jamoatchi turistik tashkilotchilar tayyorlashda yuqorida ko'rsatilgan dastur materiallaridan foydalanish kifoya qilinadi.

Turizm seksiyalarni tashkil qilish va undagi tashkiliy ishlar formasini quyidagicha tuzish:

Jismoniy madaniyat jamoalaridagi turizm seksiyalarining ish rejasi

T/r	Qilinadigan ishlar nomi	Bajarilish muddati	Bajaruvchi shaxs
I. Tashkiliy ishlar			
1	Turizm bo'yicha seksiya tuzish	10.IX gacha	Jismoniy tarbiya o'qituvchisi
2	Turistik jihozlarni olish va ta'mirlash	15.IX gacha	Jamoa kengashi
3	Turistlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish, seksiya byurosi va faollari saylash	17.IX gacha	Seksiya byurosi
4	Turistlar kabineti (muzeyi)ni tashkil qilish	Yil davomida	Seksiya byurosi
5	Turistik poxodlar rejasi va marshrutlarini tuzish	20.IX gacha	Seksiya byurosi
6	«Fan sportga» jurnaliga obuna qilish	25.IX gacha	Seksiya byurosi
7	Seksiya ishlarini hisobga olib boradigan jurnal va boshqa zarur hujjatlarni tuzish	Doimiy ravishda	Seksiya byurosi

8	Turistlarning yig'ilishini o'tkazish	Har oyda bir marta	Seksiya byurosi
II. Ommaviy ishlar			
1	Dam olish kunlari, ta'til paytlarida bir kunlik va ko'pkunlik turistik poxodlar uyushtirish	Har oyda bir marta	Seksiya byurosi
2	Tuman (shahar), viloyat turistik musobaqalar va slyotlarda qatnashish	Kalendar reja bo'yicha	Seksiya byurosi
3	Turistlarni jamoat turistik tashkilotchilar tayyorlash seminarlariga jalb qilish	Kalendar reja bo'yicha	Seksiya byurosi
4	«Yosh turist», «Turist» nishondorlarini tayyorlash	Muntazam	Seksiya byurosi
5	Turizm bo'yicha yoshlarning III, II, I va kattalarning III, II razryad normalariga turistlar tayyorlash	Muntazam	Seksiya byurosi
6	Turizm bo'yicha kichik instruktorlar tayyorlash	Muntazam	Seksiya byurosi
7	Turizm bo'yicha kechalar tashkil qilish	May	Seksiya byurosi
8	Qilingan ishlar yuzasidan hisobot tuzish	Iyun	Seksiya byurosi

Joylarni chamalab topish elementlari bo'yicha musobaqa tashkil qilish

Sport klassifikatsiyasida joylarni chamalab topish maxsus sport turi hisoblanadi. Lekin bu piyoda yurish, tog' turizmida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, turistik texnika, estafeta va turli musobaqalarda ham ko'p qo'llaniladi. Bunday paytlarda chamalab topishning ayrim elementlarigina foydalaniladi.

Joylarning chamalab topishning eng muhim vositalaridan biri xarita hisoblanadi. Odatda, turistlar 1:25000 masshtabli topografik xaritadan ko'proq foydalanadilar.

Chamalab topuvchilarning alifbesi shartli belgilardir. Shu sababdan aholi yashaydigan joylar, xabar beruvchi yo'l belgilari,

tuproq va o'simlik qatlamlari, relyefning tasviri, suv obyektlari shartli belgilar, ranglar va boshqa turli xil belgilarni turistlar albatta bilishlari shart.

Turistlarning yana bir ajralmas yo'ldoshi kompasdir. Keyingi yillarda kompaslarning turlari ancha ko'paydi. Lekin uzoq yillardan buyon qo'llanilib kelinayotgan Andrianov kompasini hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Bu kompas o'zining oddiyligi, ixchamligi bilan ham maktab o'quvchilari uchun asosiy qurol bo'lib xizmat qila oladi.

Joylarni chamalab topish elementlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarda turistlarning maxsus kiyimlari, turistik jihozlar zarur bo'ladi. Musobaqalarni tashkil qilish tartibi taxminan quyidagicha bo'ladi:

1. Musobaqa nizomini tuzish va tasdiqlash.
2. Hakamlar tarkibini aniqlash va tegishli vazifalarni berish.
3. Marshrut kvalifikatsiya komissiyasini tuzgan marshrutlari.
4. Komandalarni avvaldan to'la tayyorlash.
5. Maktab va muassasalar rahbarlarning ruxsati bilan musobaqa joyiga yetib borish.
6. Musobaqa bosh hakami talablarini bajarish.

Musobaqa dasturi sharoitga va qatnashchilari tarkibiga qarab har xil bo'lishi mumkin. Bu musobaqalarda maxsus testlar nizomiga ko'ra faqat katta yoshdagi o'quvchilar qatnasha oladilar. Shunga asosan musobaqa o'tkaziladigan joyning umumiy masofasi 8–11 nazorat punktlarga bo'linishi maqsadga muvofiqdir. Har xil nazorat punkt orasi 500–800 metrdan oshmasligi zarur. Maxsus marshrut kvalifikatsiya komissiyasining qaroriga asosan to'siqlar, balandliklarga chiqish, undan tushish joylari turistlarning jismoniy va texnik tayyorgarligiga qaratilishi lozim. Klassifikatsion musobaqalarda esa chamalab topish elementlarining murakkabroqlaridan foydalaniladi. Ayniqsa, arqonga osilib suv, jar yoki boshqa to'siqlardan o'tish, chiqish, tushish elementlarini bajarishda xavfsizlik to'la ta'minlanishi kerak. Aks holda arqon uzilishi, yechilib ketishi, qoziq, tosh, daraxtlar sinishi, ko'chib ketishi va boshqa ko'ngilsiz hollar yuz berishi mumkin. Bunday paytlarda birinchi meditsina yordami manbalari tayyor bo'lib turishi lozim.

Chamalab topish elementlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqa asosan, past-baland yerlarda yugurish, qirrali tosh, jarliklardan o'tish,

«shikastlangan kishi»ni ko'tarish, chodirlarni tez o'rnatish, azimut bo'ylab yurib, belgilangan joylarni topish, ovqat pishirish, o'z seksiyasining tajribalari (albom, fotomontaj, devoriy gazeta va h.k) namoyish qilish kabi turlardan tashkil qilingan.

Turistlarni jismoniy jihatdan tayyorlash

Turistik sayohatlarda qatnashuvchi o'quvchilarni jismoniy jihatdan tayyorlash ishlari asosan quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarning epchilligi, chidamligi va kuchlilikini umumjismoniy tayyorgarlik bilan oshirish.

2. Turizmning turi, masofasi va xarakteriga qarab turistlarni maxsus jismoniy tayyorlash.

3. Organizmni yo'ldagi turli qiyinchiliklarga, yuqumli kasalliklarga va boshqalarga chidamli qilib chiniqtirish.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda maktabdagi «Jismoniy tarbiya dasturi» materiallari to'la xizmat qila oladi.

O'quvchilarning epchilligi, chidamligi va kuchini tarbiyalash, mukammallashtirishda yengil atletika, gimnastika, sport o'yinlari, suvda suzish turlari bo'yicha o'tkaziladigan barcha mashqlar muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, arqonda osilib chiqish mashqlari, yengil atletikaning sakrash, o'rta masofalarga yugurish mashqlari o'quvchilarning chidamliligi, kuchini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya darslarida o'tkaziladigan mashqlarni miqdorini oshirib borish, ertalabki gimnastika mashqlarini turli xil predmetlar, yani arg'amchiq, gantel, gir, prujina, rezina va boshqalar bilan bajarish, muntazam ravishda sakrash, yugurish, sovuq suvda yuvinish, cho'milish organizmni chiniqtiradi.

Eng muhimi, ob-havoning qanday bo'lishidan qat'iy nazar har oyda bir-ikki marta turistik poxodlar tashkil qilish, bunda 10–12 km dan kam bo'lmagan masofani 10–15 kg yukni yelkaga ortib piyoda o'tish lozim. Turistik poxodlar turli marshrutlarda bo'lishi (jarlik, tepalik, daryo qirg'og'i bo'ylab) maqsadga muvofiqdir. Bunday mashqlar va poxodlar bilan o'pkada havo sig'imining ortishi, yurak va nerv sistemalarining mustahkamlanishini ta'minlaydi.

Turistlarni jismoniy jihatdan chiniqtirish va tarbiyalash sayohatga tayyorgarlik paytlarda ham sayohat jarayonida olib boriladi.

Poxodlarga tayyorlanish

Poxodlarga tayyorlanish avvalo, gruppani tashkil qilishdan boshlanadi. Poxodda qatnashuvchi o'quvchilarning yoshi, jismoniy tayyorgarligi, saviyasi bir xil bo'lishi sayohatning ko'ngilli, qiziqarli o'tishini ta'minlaydi.

Guruhlar tashkil qilingach, umumiy qoidalar asosida mashqlar o'tkaziladi. Bu mashg'ulotlarda turizmning maqsad va vazifalari, uning turlari, shuningdek maktab o'quvchilari bilan tashkil qilanadigan sayohatlar haqida suhbat o'tkaziladi. Xarita, kompas va turizmning texnik elementlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Turistik seksiyalarni tashkil qilish, uning mashg'ulotlarini o'tkazish avvalo, jismoniy tarbiya o'qituvchisiga yuklatiladi. O'quvchilarni seksiyaga jalb qilish, qiziqtirish, jismoniy chiniqtirish, poxodlar tashkil qilishda jismoniy tarbiya o'qituvchilari va fan o'qituvchilari katta rol o'ynaydi. Shuning uchun turizm, sayohat va o'lkani o'rganish to'garaklari, seksiyalari o'qituvchilar bilan doimo mustahkam aloqada bo'lishlari kerak.

IV bob. PIYODA YURISH SAYOHATINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH YO'LLARI

4.1. Sayohatlarga tayyorgarlik ishlari

Barcha turizm seksiyalarida sayohatlarga tayyorlanish arafasida kerakli turistik jihozlar, oziq-ovqatlar va boshqa yuklarni har bir qatnashchiga, ularning jismoniy tayyorgarligiga qarab teng taqsimlash odat tusiga aylanib qolgan.

Yosh o'quvchilarning dam olish, bayram kunlarida uyushtiriladigan bir kunlik (1-bosqich) sayohatida aytarli ortiqcha yuk bo'lmaydi. Faqat oziq-ovqati, to'p, musiqa asbobi, shuningdek, agar palatka o'rnatish, gulxan yoqish mo'ljallangan bo'lsa, kerakli jihoz va asboblarni bir necha aktiv o'quvchilarga topshirish rejalashtiriladi.

O'quvchilarning birinchi va ikkinchi bosqich sayohatlariga tayyorlanish tartibi bir-biridan unchalik farq qilmaydi.

Birinchi bosqichda maktab ma'muriyatidan ruxsat olish va ikki-uch kun avval poxod rejasini tayyorlash kifoya. Poxod marshruti va rejadagi talablar 6–8 km masofani piyoda o'tish, yo'lida kolleksiya va gerbariylar to'plash, sayr qilish, joylarning qisqa tarixi bilan tanishish, poxodda yurish tartibiga rioya qilishdan iboratdir.

Ikkinchi bosqichdagi poxodga esa (tunash sharti bilan) ancha vaqt tayyorlanishga to'g'ri keladi. Buning uchun birinchi navbatda marshrut planini tuzish va uni tasdiqlash, sayohat davomida suhbat, leksiyalar o'tkazish, topografik belgilar bilan izchil tanishish, sxemalar tuzishni o'rganish, turizmning maxsus turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish rejasini tuzish, o'quvchilarni meditsina ko'rigidan o'tkazish, kerakli jihozlarni taxt qilish, oziq-ovqatlar

uchun smetalar tuzish kabi muhim ishlarni avvaldan ishlab chiqish va to'la tayyorlash talab etiladi.

Turistik sayohatlarning taxminiy plani:

1. Sayohatning asosiy vazifalarini aniqlash.
2. Qatnashchilarning guruhini aniqlash va tuzish.
3. Qaysi joylarda bo'lishni belgilash.
4. Sayohat qilinadigan joylar to'g'risida axborot to'plash.
5. Marshrut ishlab chiqish.
6. Sayohat uchun qancha vaqt ketishini hisoblash.
7. Kalendar-reja tuzish.
8. Nima olish kerakligini aniqlash.
9. Ovqatlanish tartibini va sharoitini belgilash.
10. Sayohat uchun sarf bo'ladigan smetani tuzish.

Razryadli turistik poxodlar, ya'ni kategoriyaga ega bo'lgan sayohatlarga, yo'llarga tayyorlanishda har bir qatnashchiga alohida vazifa beriladi:

1. Guruh sardori (har 10–15 kishiga 1ta).
2. Siyosiy rahbar.
3. Oziq-ovqat bo'yicha xo'jalik mudiri.
4. Turistik jihozlar uchun javobgar kishi.
5. Kotib.
6. Ta'mirlash ishlari bo'yicha usta.
7. Sanitar-instruktor.
8. Tashkilotchi.
9. Korrespondent (muxbir).
10. Fotograf (suratchi).
11. Komendant (dam olish va tunash paytlarida tayinlanadi).
12. Gruppa rahbari (o'qituvchi).

Sayohatlarni tashkil qilishning turlicha forma va metodlari mavjud. Maktab o'quvchilari, talabalarning kunlik sayohatlarini tashkil qilish tartibi quyidagicha:

1. O'quv yili boshida marshrutni aniqlash va umumiy yig'ilishda tasdiqlash.

2. Marshrut tuzishda tarix, geografiya o'qituvchilari maslahatlariga amal qilish.

3. Sayohatga seksiyaning aktiv turistlarini va jamoatchi o'quvchilarni jalb qilish.

4. Yil davomida ko'p kunlik sayohat uchun kerakli turistik jihozlarni tayyorlash.

5. Turistik bazalar va bolalar turistik stansiyalarining tajribali xodimlaridan tegishli maslahatlar olish.

6. Ilmiy tadqiqot institutlari va boshqa tashkilotlardan qidiruv ishlari bo'yicha vazifa olish.

7. Turistlarning jismoniy tayyorgarligini yil davomida nazorat qilib borish.

8. Birinchi meditsina yordami ko'rsatish, o'tish xavfli bo'lgan joylarda o'zaro yordam shartlari, qoidalarini o'rganib borish.

O'quvchilar poxodga to'la tayyor degan xulosaga kelgach, fizkultura o'qituvchisi, turizm seksiyasining raisi, poxod rahbari hamkorlikda marshrut varaqasini tuzadilar va u ma'muriyat tomonidan tasdiqlanadi.

Ko'p kunlik turistik poxod oldidan poxod rahbari, sinf rahbari har bir o'quvchining ota-onasi bilan uchrashishi, ularning roziligini olish kerak.

Poxod oldidan qatnashishlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladi. Bunda vazifalar qayta ishlatiladi. Barcha jihozlar va kerakli narsalarning tayyorligi tekshiriladi. Shuningdek, o'quvchilardagi salbiy xususiyatlar, kamchiliklarni bartaraf qilish, poxod davomida umumiy qoidalarga to'la amal qilish, ahil bo'lish, maktab direktori, sinf rahbarlari va boshqa rahbar xodimlar tomonidan uqtiriladi.

Sayohatlar uchun shaxsiy turistik jihozlar:

1. Ryukzak (yuk xalta).
2. Turistik ko'rpa (yoki odevalo).
3. Krujka, qoshiq, kosa, pichoq, ochqich.
4. Oyoq kiyimlari (botinka, keda)
5. Sochiq, sovun, tish cho'tkasi, pasta.

6. Sport kostumi.
 7. Issiq yoki soyabonli bosh kiyimi.
 8. Quyoshga qarshi ko'zoynak.
 9. Jun va oddiy paypoqlar.
 10. Ichki kiyimlar, sviter.
 11. Shtormovka (yomg'irga qarshi kostum).
 12. Yon daftarcha, ruchka qalamlar.
 13. Fotoapparat.
 14. Flaga.
 15. Ledorub (muz va qorli joylarda ishlatiladigan asbob).
- Guruh (8–10 kishi) uchun ishlatiladigan turistik jihozlar:
1. Palatka (chodir) – «Pamirka» yoki «Gimalayka» 2–3 ta.
 2. Xavfsizlikni oldini oladigan arqonlar (30–40m) 1–2 ta.
 3. Ovqat tayyorlash idishlari (qozon, cho'mich, chelak va h. k.) 1–2 ta.
 4. Boltachalar (bolg'a, tesha) 2–3 ta.
 5. Karta yoki sxemalar 1–2 ta.
 6. Kompaslar 2–3 ta.
 7. Poxod dori qutilari 1–2 ta.
 8. Gugurtlar 10–15 ta.
 9. Remont materiallari (ip, igna, qaychi va h.k.) 3–4 ta.
 10. Fonarlar, shamlar 5–6 ta.
 11. Kundalik daftari (ruchka, rang, qalamlar, rezinka, olmos.) 2–3 ta.
 12. Durbin 1–2 ta.
 13. Tranzistor yoki magnitafon 1–2 ta.
 14. Fotoapparat (kinoapparat) 2–3 ta.
 15. Karabinlar 2–3 ta.
 16. Kerogaz (gaz plita) 1 ta.

(Turizm bo'yicha maslahat)

MARSHRUT VARAQASI

(Dam olish kunlari va I kategoriyagacha bo'lgan poxodlar uchun) guruhi

_____ kishi _____

_____ marshruti bo'yicha (asosiy punktlar) _____

_____ Dala sharoitida tunash yo'li bilan

« _____ » _____ dan

« _____ » _____ 200 __ yilgacha

Guruh rahbari _____

(familiya va ismi)

Marshrut varaqasini beruvchi tashkilot _____

Mas'ul kishining imzosi

« _____ » _____ 200 __ y. _____

GURUH RO'YXATI

[illegible]

POXOD REJASI

[illegible]

SAYOHAT MARSHRUTINING SXEMASI

Turistlar. Dam olish paytlarida daraxtlar va uning shoxlarini sindirmang. Gulxan uchun faqat quruq shoxlarnigina ishlatang. Jo'nash oldidan qog'ozlarni yoqib, konserva qutilari va chiqindilarni to'lab, bir joyga ko'ming hamda olovni suv sepib o'chiring. Tabiatni qo'riqlang va muhofaza qiling.

marshrutda qilingan ijtimoiy foydali ishlar

Guruh rahbari _____

imzo

« _____ » _____ 200 _____

Sayohatdan keyin marshrut varaqasi tegishli tashkilot yoki o'quv yurtiga qaytib topshiriladi.

Ta'kidlash zarurki, yuqoridagi talablar va tashkiliy usullar akademik litseylar hamda kasb-hunar kollejlari ham shu tarzda qo'llanilishi lozim.

4.2. Yo'lda yurish qoidalari

Bahorgi yoki yozgi ta'til paytlarida yuqori sinf o'quvchilarining ko'p kunlik turistik sayohatlarida yurish tezligini poxod rahbari belgilaydi. Uncha baland bo'lmagan tog' yoki adirlarda yurish o'rtacha tezligida, yani soatiga 4-5 km ni tashkil qiladi. Yo'l unchalik qiyin bo'lmaganda har 20-25 minutdan keyin 5-10 minut dam olinadi. Yo'l sharoiti og'irlashganda, ortiqcha toliqish sezilsa, har 10-15 minut dam olishni tashkil qilish lozim.

Oddiy yo'lak yoki so'qmoqlardan bir qatorda tizilib yurish, oraliqlar 2-3 metrdan ortiqcha bo'lmاسligi shart. Bu yo'l harakatining me'yorda bo'lishiga yordam beradi. Chunki yo'llarda turli butalar, shoxlar, tikanli g'iyohlar, toshlar va hokazolar uchrashi, to'siq bo'lishi aniq.

Turistlar daraxt shoxlarini sindirmaslik, foydali ekinzor va o'tloqlarni payxon qilmasliklari, shuningdek, ko'chma toshlarga beparvo bo'lmاسliklari lozim. Aks holda bu ko'ngilsiz hodisalarga olib kelishi muqarrar.

Balandliklarga ko'tarilish, qiyaliklarda yurish, pastliklarga tushishda ayrim texnik qoidalarsiz yaxshi natijalarga erishish qiyin.

Balandliklarga, jumladan, uncha katta bo'lmagan tepa, qir, tog'liklarga chiqishda oyoqlarni ozroq yon tomonlarga yozish, gavdani oldinga engashtirish, qo'llarni erkin holda saqlash, shuningdek, nafas olishni normallashtirish kerak. Balandlikka tik, to'g'ri chiqish og'ir. Shu sababdan ilon izi qilib yurish foydalidir.

Agar yo'nalish qiya bo'lsa, chap (o'ng) oyoq tomonga gavdani ozroq egibroq, tayoq bo'lganda unga tayangan holda yurish lozim.

Balandlikdan tushishda ko'p hollarda yoshlar yon tomonlab, ya'ni qo'sh oyoqlab sakrab-sakrab tushishadi. Lekin bu hol 300-500 m balandlikdagi joylarda bajarilishi mumkin. Agar masofa 500 m va undan ortiq bo'lgan hollarda esa qo'sh oyoqlab sakrab tushishdan ko'ra ilon izi shaklida, oddiy tushish o'ng'aydir. Maysa va o'tlar ko'p bo'lgan taqdirda to'g'ri yurish, sakrash, qiyinroq bo'ladi. Oyoq toyishi natijasida yiqilib tushish mumkin. Yo'llar qumloq yoki quruq yer bo'lganda yurish sharoiti qiya joylarda birmuncha murakkablashadi. Bu hollarda yo'nalish sharoitiga qarab sekin yurish, qo'ldagi tayoqlardan yaxshi foydalanish, daraxt ildizlari, shoxlaridan, toshlardan ushlash zarur.

Dovonlar oshish, undan tushish, qisqa va qiyin to'siqlardan o'tishda tabiiy sharoitlar (ildiz, daraxt, tosh va h.q) bo'lmaganda arqonlarni ishlatish zarur. Buning uchun arqonning uchi qator boshida va oxiri qator oxiridagilarda bo'lib, hamma arqonni ushlab olishi shart. Jarlik, botqoqlikdan kechib o'tishda arqon katta rol o'ynaydi.

Yo'llarda kichik va katta dam olishlar, qisqa to'xtalishlar tashkil etiladi. Kichik dam olishlarda ryukzaklarni yechmaslik ham mumkin. O'tirish oldidan nafasni rostlab olish, yuklarni ixchamlashtirish mumkin. Dam olishni tashkil qilish va kichik to'xtalishlar sayohat rahbarining ruxsati bilan tashkil qilinadi. Poxod paytida rahbar qator oxirida bo'lsa, to'xtash yoki yurish haqidagi buyruq har bir turist orqali oldingilarga yetkaziladi. Yo'lda vaqtincha to'xtalish paytlarida birdaniga o'tirib olish, salqin paytlarda ustki kiyimni yechish, suv ichish mumkin emas. Biroz yurib, harakatlar qilib, keyin o'tirish, dam olish keraq yurak va o'pkaning normallashtirishini ta'minlash zarur. Juda charchaganda oyoqlarni balandroq ko'tarib yotish yoki o'tirish qon aylanish sistemasini yaxshilaydi.

Tushki ovqatlanish uchun doimo tekis, salqin, suvlik joylar tanlanadi. Turistlar o'z vazifalariga ko'ra tezlikda ovqat pishirishadi. Choy, kisel, kompot, kofe tayyorlashadi, ovqat uchun o'tin terishadi. Umuman, vazifasiz kishi bo'lmaydi. Navbatchilar idish-kosalarni yuvadilar, gulxan o'chiriladi. Jo'nash oldidan qog'oz, konserva qutilari va boshqa keraksiz narsalarni to'plab, chekkaroq joyga ko'miladi. Dam olish joyini to'la tozalab, keyin yo'lga chiqiladi. Bunday dam olishlar 1-2 soat, agar havo issiq bo'lsa, quyosh issig'i pasayguncha (manzilga borish sharti hisobga olingan holda) dam olinadi va keyin yana yo'lda davom etiladi.

Tunash uchun dam olish paytlarida avvalo, chodirlar quriladi. Bekorlar o'tin to'plashadi. Kechki ovqatdan keyin voleybol, futbol, badminton, shaxmat yoki shashka va boshqa o'yinlar tashkil qilinadi.

Kechasi gulxan tashkil qilinib, uning atrofida suhbatlar, bahslar o'tkaziladi. Turistlar o'z taassurotlari, orzulari bilan o'rtoqlashadilar. Dam olish paytida sho'x qo'shiq va o'yinlar tashkil qilish yaxshi hordiq chiqarishga ko'maklashadi.

Sayohatlar bir necha kun davom etganda yo'lda yurish, tunashlar ko'p bo'lishi mumkin. Shu sababli poxod davomida yo'lda yurish tartibi o'zgarishi, turistlar toliqishi mumkin. Shunga ko'ra bir qatorda tizilib yurish, charchamaslik uchun vaqt-vaqti bilan dam olishni tashkil qilish lozim.

Qator boshida yo'l boshlovchi va qator oxirida eng kuchli, tajribali o'quvchi bo'lishi lozim. Yurish davomida toliqqan o'quvchilarning yukini yengillashtirish yoki unga yordam berish talab qilishganda qator oxiridagi turist signal beradi. Keyin hamma to'xtaydi. To'liqqan o'quvchi oldinga o'tkaziladi. Umuman, tez-tez charchaydigan o'quvchilar qatorning oldingi qismida bo'ladi. Charchagan yoki xastalangan o'quvchi 3-4 kishi bilan yo'lda (qishloqda) qoldirilishi mumkin. Chakalakzorlardan o'tishda ilon va boshqa zaharli hasharotlar, yirtqich hayvonlardan saqlanish uchun ustki kiyimlarni, oyoq kiyimlarini qalinroq kiyish, qo'llarda tayoq bo'lishi kerak. 2-3 kishi 20-30 m oldinda yurishi, yo'l sharoitini aniqlashi kerak. Botqoqliklar tayoq botirib ko'rib o'lchanadi.

O'rmon sharoitida esa kompas yoki xarita (sxema)ni qo'lda tutish, aniq belgilar asosida yurish talab etiladi. Bunday paytlarda yuqorida aytilganidek, xavfsizlikni ta'minlashga to'g'ri keladi. Suvi ko'p qo'riqlardan o'tayotganda oyoq kiyimlarini aslo yechmaslik, suv chuqurliklarini tayoq bilan aniqlash kerak.

Piyoda yurish sayohatlarida ham dovon oshishga to'g'ri keladigan sharoit bo'lishi mumkin. Dovonlardan oshishda ham turistlar bir qatorda tizilib yurishlari, zarur signallarni hamda yurish texnikasini-bilishlari lozim.

Agar yurish va dam olish paytlarida tosh ko'chsa, tezlik bilan «tosh» deb baland ovoz bilan xabar qilish, uni tezda to'xtatish ilojini qilish kerak. Toshni to'xtatish imkoni bo'lmaganda undan saqlanish uchun tezda uni ko'rgan kishi o'zini chekkaga olishi kerak. Tog'lik joylarning toshini ko'chirish, ataylab uni dumalatish qat'iyan man qilinadi. Ko'chgan toshlar ko'payishi katta nurashlarga sabab bo'ladi. Natijada, dam olish oromgohlari, kishilarning uylari yoki o'tayotgan, dam olayotgan yo'lovchilar, turistlarga baxtsizlik keltirishi aniq.

O'zbekiston sharoitidagi deyarli barcha daryolar, katta ariq-kanallar tezoqar hisoblanadi. Bu turistlar uchun birmuncha qiyinchilik yaratadi. Sirdaryo, Chirchiq, Zarafshon va boshqa daryolarning yuqori

qismlaridan faqat ko'prik orqaligina o'tiladi. Daryolarning hatto boshlanishlarida ham doimo kechib o'tish amri mahol. Bunday joylardan erkin va xavfsiz o'tish uchun kunning birinchi yarmida o'tishga tayyorlanish zarur. Chunki quyosh issig'idan qor, muzliklar erib, suv ko'payishi, toshqin tez-tez yuz berishi aniq. Suvlardan o'tishda oyoq-kiyimini yechish man etiladi. Chunki toshlar oqishi, toshlarning o'ta silliq, toyg'oqligi (sirg'anchiq) tufayli kishi o'tishda urilishi, surilishi, toyishi mumkin. Shuningdek, daryo, soylardan o'tishda 3-4 kishi bo'lib, suvning oqishi tomonga qarab, yelkama-yelka bo'lib yurish lozim. Buni «tojikecha usul» deyishadi.

Tog' sharoitida turistlarning, ayniqsa, maktab o'quvchilarining yuk ko'tarib yurishi ancha qiyin. Zarur bo'lganda mahalliy imkoniyatlardan, ya'ni ot, eshak va boshqa transportlardan yuklarni suvlardan, katta dovonlardan olib o'tishda foydalanish mumkin.

4.3. Sayohatlarda o'qituvchining roli

Maktablarda turistik harakatlarni yaxshi yo'lga qo'yish, uni rivojlantirishda pedagogik jamoaning roli benihoya kattadir. O'qituvchilar o'z fanlari bo'yicha yaxshi bilim beribgina qolmasdan, balki ularning darsdan tashqari mashg'uloti, kasb tanlash, sport va sayohatlar bilan shug'ullanishlariga yaqindan yordam berishadi.

O'quvchilarni turizm va o'lkashunoslik to'garaklariga jalb qilish, sayohatlar uyushtirish va uni o'tkazishda geografiya, botanika, tarix hamda jismoniy madaniyat o'qituvchilari birinchi navbatda katta faollik ko'rsatadilar.

Sayohatlar davomida o'qituvchining ham, o'quvchilarning ham kayfiyati doimo bir xil bo'lavermaydi. Ba'zan turli bahslar, tortishuvlar, ranjishlar, hatto arazlashlar yuzaga keladi. Bu holning oldini olish uchun sayohat rahbari aybdorlarni topadi, ularni koyiydi, ko'pchilik oldida tanbeh beradi. Natijada, umum-maqсад yo'lida turistlar jamoasi o'z ahilligini to'la tiklaydi, sayohat ko'ngilli o'tadi.

Sayohatda pahlbapga quyidagicha talab va vazifalar qo'yiladi hamda huquqlar beriladi:

1. Gruppani tashkil qilish va uning to'la javobgarligini olish.
2. Tog' turizmi sayohatiga rahbarlik qilish uchun «Alpinist» nishondori va yuqori kategoriyali (III—IV) sayohatlarda ishtirok etgan yoki rahbarlik qilgan yuqori malakali kishi bo'lish.

3. Sayohat rahbarlarining huquqlari:

a) sayohat tartibini buzganlarga chora ko'rish, guruhdan chiqarish;

b) zarur bo'lganda marshrut yo'llarini o'zgartirish;

d) sharoit talab qilganda o'z gruppasini tajribaliroq instruktor yoki mutaxassisga topshirish.

4. Rahbar quyidagilarni bajarishga majburdir:

a) turistlarni munosib darajada sayohatga tayyorlash;

b) sayohat marshrutlari, ijtimoiy-foydali ishlar, qidiruv va o'lkani o'rganish bo'yicha planlar bilan tanishtirish;

d) xarita yoki sxema tuzish, yo'ldagi xavfsizlikni ta'minlash;

e) yo'ldagi to'siqlarni o'rganish, zarur bo'lsa, ehtiyotdan boshqa yo'llarni belgilash;

f) gidrometereologik o'zgarishlar bilan tanishtirish;

g) tegishli jihozlarni avvaldan tayyorlash, yo'l xarajatlari, oziq-ovqatni hisoblash, yig'ish;

h) marshrut daftarchasini tutish va marshrut kvalifikatsiya komissiyasiga (MKK) topshirish;

i) yo'lda ob-havo, geologiya, o'rmon xo'jaligi va boshqa idoralardan ruxsatnoma, tegishli konsultatsiyalar olish;

j) gruppaning tartib va intizomini muntazam nazorat qilib borish;

k) yo'llarda tashkil qilingan xavfsizlikni saqlash va qutqarish nazorati idoralaridan ko'rikdan o'tish;

l) marshrut daftarchasini ma'lum joylarda belgilash;

m) sayohat davomida o'tilgan joylar to'g'risida telefon yoki radio orqali MKK yoki uning xavfsizlik va qutqarish nazorati punktlariga xabar berib borish;

n) shikastlanganlarni tezlikda tegishli joylarga yetkazish;

o) baxtsiz hodisa yuz berganda tezlik bilan xabar berish;

p) xavfga uchragan boshqa guruh yoki mahalliy aholiga yordam ko'rsatish;

r) sayohat tamom bo'lgach, tegishli idora va tashkilotlarga xabar berish.

5. MKK ruxsatisiz guruhdagi kishilarni o'zgartirish yoki qo'shish qat'iyman man qilinadi.

6. Sayohat rahbari o'tgan marshrut va qilingan ishlar

yuzasidan yozma hisobot tuzadi.

Ana shunday muhim burchlarni faqat eng tajribali turist va o'qituvchigina bajara oladi. Shuning uchun o'qituvchi sayohatni o'tkazishda asosiy kuch hisoblanadi.

Sayohat rahbari butun poxod uchun yozma hisobot tuzadi. Unda o'tilgan marshrutlar, qilingan asosiy ishlar ko'rsatiladi. Marshrut varaqasi hamda fotosuratlar hisobotga ilova qilinadi, MKKga topshiriladi. Sayohat xotiralariga bag'ishlab kecha uyushtiriladi, fotoalbom, fotomontaj, devoriy gazeta tayyorlanadi.

4.4. Yozgi dam olish oromgohlarida sayohatni tashkil qilish

Yozgi dam olish oromgohlarida yoz bo'yi, avvalo, lager atrofida, keyin 2–3 kunlik sayohat, ayrim paytlarda 6–8 kunlik poxodlar ham tashkil qilinadi.

O'quvchilar lagerlarida turistik sayohatlarni tashkil qilishning ahamiyati shundaki, ularda o'lkani o'rganish, tabiat manzaralarini tomosha qilish, jismoniy chiniqish, GTOning turizm bo'yicha normativlarini topshirish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Sayohatlarning shakl va mazmuni lager joylashgan territoriya sharoitiga bog'liq bo'ladi.

V bob. SAYOHATDA TURISTIK TURMUSHNI TASHKIL QILISH


5.1. Turli yumushlar

Sayohatchilar marshrut davomida qulay kelgan joylarda to'xtab, dam olib, ovqatlanib, hatto tunab ham ketaveradilar. Shuningdek, zarur bo'lgan paytlarda aholi yashaydigan punktlarda, maktab, kolxoz klubida, joylarda to'xtash, tunash mumkin. Bunday hollarda mahalliy kishilar bilan aloqa bog'lash, o'zaro kelishish zarur. Hovli yoki maktablarda tunaganda davlat mulkini ehtiyot qilish, mahalliy kishilarga yordam berish choralarini ko'rish lozim.

Chodirlarni o'rnatishda mahalliy sharoit, ya'ni daraxtlar, toshlar va hokazolardan unumli foydalanish kerak. Chodirlarni bir-biriga yaqin va qator qilib qurish kerak (2-rasm).

Chodirlarni joylashtirish va uning atrofida o'tirish, ovqatlanish, uyin tashkil qilish, gulxan yoqish kabi tadbirlarni faqat grupp rahbarining ruxsati yoki ko'rgazmasi bilan bajarish sayohatning mazmunli bo'lishini ta'minlaydi.

Turistlarning gulxan yoqish tajribalari ko'p. Gulxan yoqish usullari xilma-xil. Ular ichida «Kapa» (chayla) usuli keng qo'llaniladi: bunda shoxlar katta-kichik hajmda (30–50 sm) sindirilib, avval kichiklari yondiriladi (6-rasm). Gulxanning yorug'ligi



5- rasm Chodirlar

chodirlarga tushishi, o'tinlarning ko'mirsiz bo'lib yonishi uchun yog'ochlar ustma-ust, tikroq qilinadi.



6-rasm. Gulxan turlari: a – «Chayla»; b – «Quduq»; d– «Taygalik».

Gulxan yoqishning «Quduq» usuli ham mavjud. Bunda yog'och va shoxlar kichik g'o'lachalar shaklida (30–40 sm) kesiladi va avvalo, kichik shoxlarni kvadrat shaklida oraliqlarini ochib, ustma-ust qo'yiladi, alanga kuchaygach, yirikroq shoxlar qalanadi. Ana shu usulda yoqilgan gulxan alangasi o'rtadan to'p bo'lib ko'tariladi va atrofni yaxshi yoritadi, hatto gulxan ustida choy qaynatish imkonini ham bo'ladi. «Taygalik» gulxani ko'pincha yirik va uzun shoxlar, bolorlardan yoqiladi (yogochlar uzunligi 2–3 m). Bu katta alanga beradi va katta guruhga ovqat tayyorlash, ho'l kiyimlarni quritishga mo'ljallangandir.

«Nodya» usulida yoqiladigan gulxanda yer ozroq kavlanadi, uning bir tomoni pana qilinadi (devor shaklida). Chuqurchaga avval cho'q solinib, keyin ustiga uncha katta bo'lmagan g'o'lachalar (50–60 sm) juft shaklda qo'yiladi. Yog'ochlar asta-sekin yonib, bir tekis alanga beradi. Pana (devor) tomonda kiyimlarni quritish, ovqatni isitish uchun duxovkaga o'xshash moslama qilinadi. Bunaqa gulxan asosan o'rmonda, yog'ingarchilik ko'p bo'ladigan joylarda ishlatiladi.

Bahor yoki yoz vaqtidagi tog' sayohatlarida yomg'ir yog'ishi, qattiq shamol esishi mumkin. Shu sababdan gulxan joyini tanlash katta ahamiyatga ega. Gulxanni devor yaqini yoki panaroq joyda, chodirdan uzoqroqda tashkil qilish kerak. Shuningdek, gulxan alangasi, uchqunlar quruq xashaklarga tushmasligi uchun gulxan atrofini tozalash kerak. Ehtiyot sharti bilan gulxan yaqinida har

ehtimolga qarshi suv to'ldirilgan chelaklar, ho'l o'tlar saqlanishi kerak.

Qishki sayohatlarda tunash uchun aholi yashaydigan joylar (maktab, klub va h.k.), yozgi dam olish oromgohlarini tanlash maqsadga muvofiqdir.

Barcha sayohatlarda, ayniqsa, qishki tunashlarda yong'in va sovuq urishdan saqlanish uchun kechasi navbatchilik uyushtirish lozim.

Navbatchilar gulxan yoqish, ovqat pishirish, barcha turistik jihozlarning o'z o'rnida turishi uchun javobgardirlar. Navbatchilarni har 1-2 soatda almashtirish zarur.



7- rasm. Tog' sharoitidagi o'choq.

Chodirlarni ko'chirmasdan sayohat qilinganda «Lager» uchun komendant tayinlash va hamma joyni gigiyenik talablar asosida tutish, yashash qoidalariga amal qilishga odatlantiriladi.

5.2. Sayohatlarda ovqatlanish turi

Sayohatlarning turi, muddati va qatnashchilarning yoshiga qapab, hap bir kishiga sarflanadigan oziq-ovqatlar kaloriyasi va uning miqdori avvaldan hisoblab chiqilishi zarur. Buning uchun quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin:

Katta sayohatlarda bir kunlik ovqat miqdori (bir kishiga gramm hisobida)

T/r	Oziq-ovqatlar nomi	Miqdori
	Non (oq va qora)	400 – 600
	Quritilgan non (suxari)	250 – 350
	Ushoq yoki lapshadan qilingan mahsulot (grechixa, guruch, bug'doy, no'xat, vermishel, lapsha, rojki va b.q.)	200 – 220
	Sho'rva uchun tayyorlangan mahsulotlar, quruq mevalar	40 – 50
	Konservalangan go'shtlar	100 – 130
	Kolbasa mahsulotlari	50 – 80
	Sariyog' (eritilgan yog')	50 – 80
	Sut (quyultirilgan sut)	50 – 80
	Pishloq	30 – 40
	Shakar (qand), nordon konfetlar	130 – 150
	Tuz, maxsus ichimliklar (choy, kofe, kisel va h.k.)	40 – 60

O'rta Osiyo sharoitida, bahorgi va yozgi paytlarda sut, qatiq, sarig' yog', go'sht va turli ho'l mevalar hap bir qishloq va yaylovda uchraydi. Ana shularni hisobga olgan holda ho'l mevalarni yo'lda olishni planlashtirish foydalidir.

Ma'lumki, har bir oziq-ovqatda ma'lum darajada kaloriya bor. Shu tufayli turistlar ko'p kaloriya beruvchi va uzoq masofalarda olib yurishga qulay oziq-ovqatlarni jamg'arishlari lozim. Maktab o'quvchilari va barcha turistlarga zarur bo'lgan oziq-ovqatlar kaloriyasini aniqlash uchun quyidagi jadvaldan foydalanish tavsiya etiladi.

5.3. Tibbiy ko'rik va shifokor nazorati

Maktab o'quvchilari va barcha turistlar poxod, ayniqsa ko'p kunlik yurishlar oldidan maxsus meditsina ko'rigidan o'tib, sayohat uchun ruxsat olishlari talab etiladi. Uzoq sayohatga borish uchun mo'ljallangan o'quvchilarni maktab yoki uchastka shifokori avvaldan kuzatib, nazorat qilib borishi, ularning kartochkalariga tegishli xulosalarni muntazam yozib borishi lozim.

Shunga qaramasdan, sayohat davomida uzoq yurib charchaganligi, ob-havo ta'sirida ayrim o'quvchilarda shamollash, yo'talish, isitma chiqarish, bosh yoki qorin og'rig'i paydo bo'lishi muqarrar. Buning oldini olish uchun maxsus dorilardan foydalanish mumkin. Dorilar sayohatchilarda individual ravishda hamda grupp uchun olingan aptechkalarda mavjud bo'ladi.

Bolalar organizmi yoshga qarab turli xil rivojlanish xususiyatiga ega. Tabiatning go'zalligi, sayohatning qiziqarliligi tufayli ayrim o'quvchilar charchaganligini tezda sezmasliklari mumkin. Shu sababdan ularning yoshi, jismoniy tayyogarliligiga qarab nagruzka berish lozim.

Har bir turist poxodgacha va poxodda o'z sog'lig'i, jismoniy chiniqishini nazorat qilib borishi kerak.

Oziq-ovqatlar va ularning kaloriyalari

T/r	Oziq-ovqatlar nomi	Hazm qilinuvchi moddalar soni (100 g. ovqatda gramm hisobida)			Kaloriyalar soni (100 g ovqatda)
		Oqsil	yog'lar	Uglevodlar	
1	Dimlangan go'sht	25,0	32,8	0,5	223
2	Dimlangan cho'chqa go'shti	13,4	27,8	0,4	315
3	Quyultirilgan shakarli sut	7,1	8,6	54,9	334
4	Shakarli qaymoq	8,1	18,5	46,6	396
5	Quruq sut	27,1	24,6	25,8	480
6	Qora non	4,7	0,8	39,2	187
7	Bug'doy unidan qilingan qattiq non (suxari)	10,5	1,2	68,5	335
8	Shakar	—	—	93,9	405

jadvalning davomi

9	Grechixa ushog'i (yormasi)	8,6	2,3	02,4	312
10	Manna yormasi (oqshoq)	9,5	0,7	70,4	331
11	Arpa yormasi	6,3	1;2	66,2	310
12	Suli yormasi	8,9	5,9	59,8	335
13	Suk yormasi	8,2	2,2	63,8	316
14	Guruch	6,4	0,9	72,0	330
15	Makaron	9,6	0,8	71,2	338
16	No'xat	15,2	2,1	49,3	286
17	Yarim quritilgan kolbasa	14,5	31,1		349
18	Quritilgan kolbasa	18,9	36,4	—	420
19	Cho'chqa yog'i	1,8	78,6		739
20	Sariyog'	0,5	79,3	0,5	742
21	Eritilgan yog'	—	91,1		875
22	Pishloq	19,2	27,0	3,4	348
23	Tuxum urpog'i (uni)	49,9	34,2	—	523

5.4. Jarohatlanganda birinchi yordam

Avvalgi bo'limlarda qayd qilinganidek, sayohatlar jarayonida o'quvchilar kasallanishi, yiqilib shikastlanishi mumkin. Bunday hollarda turistlar birinchi meditsina yordami kursatish tartib va qoidalarini bilishlari, uni amalda qullashlari talab etiladi. Bu yerda birinchi meditsina yordamiga taalluqli bo'lgan ayrim holatlarga to'xtalindi.

Turistlarning ehtiyotsizligi natijasida gulxanda, ovqat pishirishda, primusda kuyib qolish mumkin. Bunday hodisalar bo'lmisligi uchun

sayohatda tashkil qilingan navbatchilar (oshpazlar, choy qaynatuvchilar va h.k.) doimo to'la kiyingan, qo'llarida maxsus moslamalar bo'lishi shart. Umuman, kuyganda uni tez o'chirish chorasini ko'rish kerak. Buning uchun kiyimlarni tezda yechish, suvga botirish, tuproq yoki qum bilan ishqalash zarur. Biron joyingizni kuydirib olganda o'sha joyni 10–15 minut sovuq suvga solib turish tavsiya qilinadi. Undan keyin dokani namlab, spirt yoki margansovka surtib, bog'lab qo'yish kerak. 1–2 darajali kuyishlarda terini sulfidin emulsiyasi bilan moylash, qishloq joylarga kelganda vrachga murojaat qilish kerak.

Kuyish terining ustki qismi yoki to'qimalarning ichki tomoniga o'tganda (III–IV darajali kuyish) tezlik bilan shifokorga murojaat qilish kerak bo'ladi.


Tunash paytlarida o'tkir uchli (bolta, pichoq, qoziq, tosh va b. q) narsalarga urilish va undan yaralanishlar yuz beradi. Bunday hollarda yaralangan joyni yuvish, yod surtish va uning ustiga streptotsit kukunini sepib yara ustini plastir bilan yopishtirib qo'yish mumkin.

Yaralanish natijasida qon to'xtovsiz ketgan taqdirda qon tomirini (arteriya) markam bosish kerak (8-rasm).


Qon otilib chiqishi susaymagan paytlarda yaraning yuqoriroq qismidan qattiq bog'lash (9- rasm) zarur bo'ladi. Yaralangan joy jgut bilan bog'langan holda 1–2 soat turishi mumkin. Qon to'xtamagan holda 3–4 minut bo'shatib, keyin yana qattiq bog'lash kerak.

Oshqozon zaharlanganda uni yuvish, ya'ni bir necha stakan iliq suvga soda solib ichish, to qayt qilib tashlamaguncha davom ettirish, bu holni bir necha marta takrorlash kerak. So'ng parhezga qattiq rioya qilish zarur.

Ko'p yo'l yurish, og'ir yuk va yiqilishlar natijasida organizm tilinishi, tirnalishi va qavarishi mumkin. Bu hollar ko'proq oyoq, yelka va bellarda bo'ladi. Bunday hollarda tez uning oldini olish va bolalar kremi surkash kifoya.



8- *rasm.* Arteriyalarni bosib, qonni to'xtatish joylari.



9- *rasm.* Bog'lab qonni to'xtatish.

Yiqilishlar natijasida oyoq va qo'lning eti ezilishi, shilinishi mumkin. Bunday hollarda zararlangan joyga yod quyib surtish, sovuq suv (muz) bilan kompress qilish kerak. Undan keyin qattiqroq bog'lab qo'yish tavsiya etiladi.

Bo'g'inlarning cho'zilishi va uzilishi qattiq og'riq bilan seziladi. Keyin u joy shishishi, qimirlatganda qattiq og'rishi mumkin. Bunday hollarda sovuq suvga botirilgan bint (material) bilan bosib turish, keyinroq elastik bint yoki uning o'rmini bosadigan biror narsa bilan bog'lab qo'yish kerak.

Tirsak, yelka, tizza va oyoq bo'g'inlaridan suyaklarning chiqishi, qattiq og'riq turib, harakat qilish mumkin bo'lmay qoladi. Bunday paytlarda bo'g'inlarni o'z joyiga solish uchun qo'l (oyoq)ni ushlab tortish, sekinlik bilan joylashtirish talab qilinadi. Bo'g'inlar o'z joyiga tushgach, shina bilan bog'lab qo'yish kerak.

Qo'l yoki oyoq suyaklari singanda ham xuddi chiqqandagidek qilib shinalar bilap qo'shib bog'ash, og'riqni qoldiradigan dori berish va tezda shifokorga yuborish shart.

Ayrim hollarda bo'g'inlarning chiqishi, suyaklarning sinishi yoki qattiq urilish natijasida turistlar hushdan ketishi, esankirashi mumkin. Bunday hollarda bemorni yotqizish, bosh oyoqqa nisbatan pastroq qo'yilishi lozim. Kiyim tugmalari yechilishi kerak. Bemor hushiga kelgach, achchiqroq choy, kofe va yurakka malham bo'ladigan dori berish lozim.

Qishki poxod yoki yozgi poxodlarning muzlik zonalarida qo'l, oyoq, quloq yoki yuzni sovuq urishi mumkin. Bunday hollarda ishqalash, tez harakat qildirish, turli gimnastika mashqlarini bajartirish, yurish holatini yo'qotganda esa ug'alash (massaj qilish), biron material (odeyal, ko'rpa va h.k.) bilan o'rab dumalatish, bu ham foyda bermaganda spirt bilan artish kerak bo'ladi, issiq choy ichirish, bir necha bo'lak glukoza tabletkasini S vitamini bilan qo'shib ichirish ancha foyda beradi. Sovuq urgan joyda pufakchalar paydo bo'lsa, pennitsilin mazi yoki sintomitsin emulsiyasi surkab, bog'lanadi. Bemorga tetratsiklin ichirish, agar ahvoli og'irlashsa, analgin, amidolirin, kofein ichirish va bemorni meditsina punktiga yetkazish lozim.

Quyosh nuri urmasligi uchun, avvalo, tegishli bosh kiyimlarni, ko'zoynakni olib yurish va o'z vaqtida ishlatish kifoya. Qorin och bo'lganda, shuningdek, issiq ob-havoga o'rganmagan turistlarga yarim yalang'och yoki yalang'och bo'lib yurish, issiqda toblanib yotish mumkin emas. Quyosh vannasini faqat asta-sekinlik bilan qabul qilish kerak.

Qorning yarqirashi, aks nurdan ko'z tez zararlanadi. Shuning uchun qorli zonalarda doimo bir nuqtaga qarash, ko'z oynaksiz yurish man etiladi. Bunday hollarda zararlangan ko'z borniy kislota aralashmasining kam miqdorligi, sodalar, margansovka kaliyining oq-qizg'ish holatiga kelgan suyuqligi hamda sovuq choy bilan yuviladi, turist bir necha kun yurishdan ozod qilinadi.

Yovvoyi mevalarni yuvmasdan yeyish, har bir gul va daraxtlarni ushlash, hidlash yaramaydi. Qo'ziqorin, zamburug' va boshqa yeyiladigan narsalar solingan idishlarni ham yuvish kerak.

Tog' va cho'l zonalarida quturgan yovvoyi cho'chqa yoki bo'rilar duch kelishi mumkin. Ular odamga hujum qiladigan bo'lsa, qulog'ini qisib irillab opqasiga tisariladi. Bunday hollarda turistlar juft holda bo'lishi, qo'llarida tayoq va qurollarini tayyorlab turishi kerak.

Tog'liq va cho'llar zonasida zaharli ilonlar xavfi bo'ladi. Ilonni ko'rganda unga tegmaslik, o'ldirmaslik kerak. Buning sababi shundan iboratki, avvalo, zaharli ilonlar meditsina uchun keraklidir. Keyingi paytlarda zaharli ilonlarni ko'paytirish tadbirlari ko'rilmogda.

Turistlar ehtiyotsizlik natijasida o'tlar, shoxlar, butalar orasida yotgan ilonni ko'rmasligi va uni bosib o'tib ketishlari mumkin. Shu sababli qahr-g'azabga to'lgan ilonlar, albatta, chaqishga intiladi, «o'ch oladi». Dam olish yoki o'tirish joyida to'satdan ilonga ko'z tushsa, u qochmasa, bunday hollarda cho'p yoki tayoq yordami bilan uni ilib olib, uzoqroqqa eltib tashlash kerak.

Agar ilon chaqqanligi tezda sezilsa, birinchi navbatda o'sha joyni so'rib tashlash kerak. Qon aralash zaharni og'izdan tezda tuflab tashlash lozim. Agar og'izda yara izi bo'lsa, boshqa kishi so'rishi kerak. Chaqqan joyning yuqorirog'ini joydan mahkam qisib, shina qo'yib bog'lash kerak va zudlik bilan shifokorga murojaat qilish lozim. Birinchi yordam ko'rsatilishida bemorga suyuq va issiqroq ichimlik, ovqat yegizish tavsiya etiladi. Chunki zahar suyuqliklarga aralashib, o'z kuchini kamaytiradi. Siydik va oshqozon yo'llari orqali zahar chiqishi mumkin.

Turistlar hayotida, umuman kishilar hayotida ham suvga cho'kish hollari bo'lib turadi.

Suvda cho'kish natijasida hushdan ketganlarning tezlik bilan ichidan suvni chiqarish usullarini qo'llash (10-rasm) kerak.



10-rasm. Havo va oshqozon yo'llaridan suvni chiqarish.




11-rasm. Sun'iy nafas oldirish:
a — og'izga puflash; b — nay bilan burunga puflash.

Tajribaga ko'ra, ilon chaqqan joyni ortiqcha qisib bog'lash (ayniqsa, jgut bilan) mumkin emas. Chunki zahar qon tomirlari bilan emas, balki limfa suyuqliklari orqali tarqaladi. Shuningdek, chaqqan joyni kuydirish yoki kesib tashlash ham kutgandagidek natija bermaydi. Chunki kuydirganda ilon chaqqan joy yaralanishi, yiringlab ketishi natijasida tezda og'ir ahvolga tushib qolish mumkin. Chaqqan joyni kesib tashlash esa juda xavfli. Qonni to'xtata olmaslik natijasida bemor og'ir sharoitga tushib qolishi mumkin. Zahar qonni suyultirishini yodda saqlash kerak.

Bemorni tizzaga qorni bilan yotqizib, uning yelkasidan bosish, og'zini kattaroq ochish, og'iz yopilmasligi uchun toza qo'l ro'molcha, bint yoki biron qattiqroq narsani tishlatib qo'yish lozim. Ichidan suv chiqqach, uni boshini pastroq qilib yotqizish kerak. Agar u hushidan ketgan bo'lsa, sun'iy nafas oldirish kerak. Sun'iy nafas oldirish forma va usullaridan tezda va aniq foydalanish bemorni yengillashtirishga olib keladi. Bemorning og'ziga og'izni yoki burniga orizni qo'yib qattiq puflash, nafasni tortish yo'li bilan nafas olish yo'llarini ochish kerak bo'ladi. Shuningdek, qo'llarini yozib va egib, ko'krak qafasini uqalash, bosish kerak.

Yurishga hol bo'lmagan va hushdan ketgan bemorlarni olib yurish (9-rasm), ularni mashina yoki boshqa transportlarga chiqarish usullari va ehtiyot choralarini turistlar albatta bilishlari lozim.



12-rasm. Bemorni olib yurish.

VI bob. TURISTLARNI TOPOGRAFIK JIHATDAN TAYYORLASH

6.1. Topografiya va shartli belgilar

Yer va uning tuzilishini qog'ozda rejali ravishda aks ettirish topografiya deyiladi. Bu geodeziyada ko'proq ishlatiladi.

Xaritada yer va undagi asosiy belgilar aniqq va qisqartirilgan holda beriladi.

Sonli masshtab xaritada tasvir etilgan to'g'ri chiziqlar oraliq'ini aniqlab beruvchi belgidir. U quyidagicha ko'rsatiladi:



















1:A, yoki $\frac{1}{A}$; A – chiziqlar xaritada necha marta qisqartirilganini ko'rsatuvchi son. Misol, 1:50000, 1:100000, 1:250000, 1:1000000, 1:42000, $\frac{1}{84000}$.

Chiziqli masshtabda joyning biror bo'lagi aniq sonlar asosida chiziq bilan belgilanadi va bu aniq belgi xaritaning tagida to'g'ri chiziq bilan taqsimlab ko'rsatiladi.

Chiziqli masshtab sonli masshtabga nisbatan oraliqni hisoblashga birmuncha qulay. Chunki sonlarni ko'paytirib turmasdan aniq chiziq belgilari asosida ma'lum oraliqni o'lchab, masofani tez belgilash mumkin. Turistlar ko'proq 1:25 000 masshtabli xaritadan foydalanadilar.

Shartli belgilar xaritani o'qish kalitidir, shartli belgilar asosida uch xil xaritalar mavjud: masshtabli, masshtabsiz, izohli.

Shuni hisobga olish kerakki, xaritadagi ayrim shartli belgilar faqat yoz mavsumiga moslab olinadi (10, 11, 12-rasmlar).

	Quduqlar		O'tli to'siqlar
	Buloqlar		Ikki tomonlama temir yo'llar
	G'orlar		Bir tomonlama temir yo'llar
	Chamalab topish uchun bo'lgan alohida daraxtlar		Tor izli temir yo'llar
	Mevali bog'lar		Balandlik
	O'tloqlar		Temir yo'llarning eski tasviri
	O'tib bo'lmay qamishli botqoqlik		Shasse (katta yo'l)
	O'tish mumkin bo'lgan botqoqlik		Tosh terilmagan yo'l
	Butazor		Dala va o'rmon yo'llar

13-rasm. Xaritadagi shartli belgilar.

	Aralash o'rmon		Trubali zavod, fabrikalar
	Ninabargli o'rmon		Machit
	Keng bargli o'rmon		Yodgorlik
	Kesilgan o'rmon		Suv chiqargich
	Yongan o'rmon		Suv tegirmoni
	Shamol- dan yiqilgan daraxtlar		Shamol tegirmoni
	Daraxtni kesib ya- salgan yo'l		Trigono- metrik punkt
	O'rmon qorovuli- ning uyi		Teligraf idoralari
	Trubasiz zavod, fabrikalar		Yo'l ko'rsatgichlari

14-rasm. Xaritada shartli belgilar.

	Qishda yuradigan yo'flar		Tik qoyalar
	Ko'priklar		Qo'rg'onlar
	Kemalar to'xtaydigan joy		Katta va eski chuqurliklar
	Daryoning sayoz joylari		Bir tekis qumliklar
	Odamlarni o'tkazuvchi yassi sol		Balandlik, gorizonttal va dovonlar belgisi
	Tundralar		Jarliklar

15-rasm. Xaritadagi shartli belgilar.

Joylarning relyefi yirik masshtabli xaritalarda ko'rsatiladi, bunda dengiz sathiga nisbatan balandliklar aniq o'lchov bilan belgilanadi. Balandliklarning yo'nalishi, nishabligi uning tuzilishiga qarab aks ettiriladi.


Ayrim hollarda, ayniqsa, sxemalarda joyning balandligi yoki pastligi oddiy chiziqchalar bilan ham ifodalanadi.

Marshrutga tegishli bo'lgan joylarning sxemasini tuzish yoki uni aynan ko'chirishda xaritaning masshtablarini o'zgartirmaslik zarur. Ayrim hollarda xaritadan ko'chirishda fotosurat usulidan foydalanish mumkin, imkoni bo'lsa erasnimka qilish kerak. Xaritadan foydalanishda uning chiqqan yiliga e'tibor berish, faqat yangisini ishlatish lozim.


6.2. Joylarni chamalab topish usullari

Biror joyni chamalab topish uchun xaritani gorizontol holatda saqlab, uning ustiga kompasni qo'yish lozim. Keyin xarita kompasning ko'rsatgichi meridianga to'g'ri kelguncha aylantiriladi.

Magnit ko'rsatgichi geografik qutbni to'la ko'rsatmaganligi tufayli shunday qilinadi. Umuman ikki meridian, ya'ni geografik (haqiqiy) va magnit meridianlari mavjud va magnit meridianlarning oralig'ini magnit og'ish burchagi deb ataladi. Bu og'ishning farqi $10-20^\circ$ va undan ham ko'proq bo'lishi, shuningdek, turli belgilarga ega bo'lishi mumkin (13-rasm). Turgan joyni aniq belgilash-uchun xaritada belgilangan og'ish burchaklarini bilish zarur. Shuningdek, turgan joyni qutb yulduzi orqali ham aniqlash mumkin.



16-rasm. Magnit chizig'i va azimutning og'ishi.



17-rasm. Andrianov kompassi.

Agar magnit og'ish burchagi sharqiy tomonda bo'lsa, unda xaritada plyus (masalan $+7^\circ$) bilan belgilanadi. Demak, haqiqiy Shimol yo'nalishning shimoliy chap tomonida ekanligi ma'lum bo'ladi. Shunda kompas (14-rasm) ko'rsatgichini 7° ga to'g'rilash zarur va ko'rsatkich Sh-J kesishmasi haqiqiy geografik meridiandan o'tadi. Agar og'ish burchagi g'arb tomonda bo'lsa, unda haqiqiy meridian chizig'ini topish uchun xarita magnit og'ish burchagiga qarab o'ng tomonga

buriladi. Shu tariqa shimolni aniq belgilab olishga erishiladi. Kompas orqali xaritaning shimoli aniqlangach, turist o'zi turgan joyni belgilab, yo'nalish tomonni va aniq joyni belgilaydi. Shartli belgilar orqali marshrut o'rganiladi va yo'lga tushiladi.

Kompassiz xarita orqali chamalash joylarning chizig'i yoki shartli belgilar orqali amalga oshiriladi.

Joylarni chiziq orqali chamalashda, yo'l, daryo yoki boshqa obyektlar belgilab olinadi. Bunday paytlarda qo'ldagi xaritaga tez-tez qarab va belgilarni solishtirib borish kerak.


Joylarni ayrim hollarda yulduz, quyosh hmda ayrim predmellarga qarab ham chamalab topish mumkin.

Soatga va quyoshga qarab yurish yo'nalishi va tomonlarni aniq belgilash mumkin. Buning uchun soatning ko'rsatuvchi strelkasini quyoshga qaratiladi. Soatning 1 raqami bilan quyosh tomondagi son o'rtnasidagi farq aniqlanadi (15- rasm). Bunday hollarda soat mahalliy vaqtlarga to'g'rilanishi zarur. Bu usul bilan yozgi sharoitlarda tomonlarni belgilash uncha qiyin bo'lmaydi va unda ko'pi bilan 20–25° ga xato qilish mumkin.

Qutb yulduzi bo'yicha chamalash usuli quyidagicha: kechalari havo ochiq bo'lganda samodagi yulduzlarni belgilash juda oson. Katta ayiq yulduzi oldidagi qator ikki yulduz ustidan to'g'ri chiziqni fikran Kichik ayiq yulduzining oldidan o'tgan cho'michsimon yulduzlarning eng chekkasidagi (dumli) yulduzga o'tkazish lozim. Fikran qo'shilgan to'g'ri chiziq qutb yulduzini bildiradi va uning geografik meridiandan og'ish burchagi 2° dan oshmaydi. Qutb yulduzi topilganda tomonlarni aniq belgilash mumkin bo'ladi.

Turistlarning oy harakatini bilishi ham tomonlarni belgilashga yordam beradi.

Joylardagi predmetlar orqali chamalash usuli ham turistlar uchun qo'l keladi, Tabiatda uchraydigan turli



18-рasm.

predmetlar tomonlarni belgilashda foydalidir.

Atrofni chamalab belgilab olgach, uzoq va yaqinda ko'ringan predmet yoki masofalarni aniqlash zarur bo'lib qoladi. Buning uchun quyidagicha ish tutish kerak: har bir kishi o'zining qadami va uning kengligini chamalay bilishi lozim. Odatda, bir juft qadamni 1,5 m bilan belgilashadi. Shunga asoslanib, ma'lum oraliqni qadamlar bilan o'lchash va masofani belgilash mumkin. Agar masofa uzoq bo'lsa, har yuz qadamda ma'lum sonlarni yozib borish kerak, yozish imkoni bo'lmaganda barmoqlarni bukish bilan hisob qilib boriladi.



19-rasm. Tomonlarni qor erishiga qarab chamalash usullari.

Oraliqlarni qadamlab o'lchashning aniq bo'lishiga quyidagi jadval yordam bera oladi.

Uch qadamni metrga aylantirish (S.V.Obruchev usuli)

Uch qadam sonlari								
Egilish burchagi	100	200	300	400	500	600	700	800
Metrlar								
Tushish 20	198	396	594	792	990	1188	1386	1584
Tushish 10	214	428	642	856	1070	1284	1498	1712
Tushish 0	228	456	684	912	1110	1368	1596	1824

Chiqish 30	185	370	555	740	925	1110	1295	1480
Chiqish 20	148	296	444	592	740	888	1026	1184
Chiqish 30	312	224	336	448	560	672	784	895


Masofalarni o'lchash va chamalashning turli usullari mavjud. Bulardan eng qulayi uchburchak shaklida o'lchashdir. Buning uchun gugurt cho'ri o'lchov vositasi bo'lib xizmat qiladi. Gugurt cho'pi imkonni boricha millimetrlarga bo'lib chiqiladi. Shuningdek, o'lchanadigan joygacha bo'lgan masofada turgan narsaning (daraxt, tosh, uy va h.k.) taxminiy balandligini bilish zarur. Masalan, odamning uzunligi 1,7, velosiped g'ildiragining balandligi 0,75, ot ustidagi kishi – 2,2, telegraf ustuni – 6, shifr yoki tunukalanmagan oddiy uylarning balandligi 2,5 – 44 metr bilan belgilanadi.

Aytaylik, telegraf ustunigacha bo'lgap oraliqni o'lchash kerak. Buning uchun qo'limizdagi gugurt cho'pini barmoqlarda ushlab, qo'lni to'la oldinga uzatamiz va uning uchini, ustun bilan baravarlashtiramiz (bir ko'z bilan qaraladi). Katta yoshdagi kishining qo'li taxminan 60 sm uzunlikka ega. Gugurt cho'pi bilan ustun ufqda tenglashtirilganda (17-rasm) ustun gugurt cho'pining ikki chizig'iga (4 mm) teng keldi deylik. Oraliqni belgilash va hisoblash uchun quyidagi proporsiyadan foydalaniladi:

$$\frac{\text{qo'l uzunligi}}{\text{ustun oraliq'i}} = \frac{\text{gugurt cho'pi chizigi}}{\text{ustun balandligi}}$$

$$= \frac{0,60}{X} = \frac{0,04}{6,0}$$

$$X = \frac{0,60 \times 6,0}{0,04} = 900$$



20-rasm. Oraliqni gugurt cho'pi bilan o'lchash.

Shunday qilib, ustungacha bo'lgan masofa 900 metrni tashkil qiladi.

Sayohat jarayonida masofalarni o'lchashning turistik o'lchov, ya'ni andozalarini bilib qo'yish kerak. Turistik andazalar quyidagi belgilar bilan aniqlanadi:

- qarich (bosh va kichik barmoqlar oralig'i) 18–22 sm;
- bosh barmoqning asosidan ikkinchi barmoq uchigacha 11–13 sm;
- uchinchi barmoqning asosidan ikkinchi barmoq uchigacha 7–8 sm;
- bosh barmoq bilan ikkinchi barmoq uchlari yozilganda uning oralig'i 16–18 sm bo'ladi; ikkinchi va uchinchi barmoqlar yozilganda ularning oralig'i 8–10 sm ni tashkil qilishi mumkin.

Ikki qo'lni yozganda (quloq) uning uzunligi odatda, bo'y bilan baravar bo'ladi. Ikkinchi barmoqning eni 2 sm va tirnoq eni 1 sm. To'rtta barmoqning juft holdagi eni 7–8 sm ni tashkil qiladi.

Ma'lumki, havo ochiq paytda yuqorida ko'rsatilgan narsalarni belgilangan km yoki m hisobida har bir sog'lom kishi bemalol ko'ra oladi va shu sababli marshrutdagi masofalarni ko'z bilan chamalash mumkin bo'ladi.

Joylarning tuzilishiga qarab predmetlar turli xilda ko'urinishi ham mumkin. Masalan, cho'l sharoitida kichik predmetlar (daraxt, uy va boshqalar) juda katta va uzoqda bo'lib ko'rinadi. Tog' sharoitlarida eng katta toshlar, tepaliklar, cho'qqilar juda yaqin bo'lib ko'rinadi. Bu narsa pastdan ham, yuqoridan ham qaraganda shunday seziladi. Kanal, daryo juda uzunga o'xshab ko'rinadi.

Oraliqlarni ko'z bilan chamalash miqdorlari

Predmetlarning nomi	Oraliq
Katta minora, g'alla ombori, machitlar	16–21 km
Shamol tegirmonlari	11 km
Qishloq va katta imoratlar	9 km
Fabrika turbalari	6 km
Alohida uylar	5 km
Uy derazalari	4 km
Tom ustilaridagi trubalar	3 km
Alohida daraxt, odamlar	2 km

jadvalning davomi

Kilometr, ko'rsatkich va yo'l ustunlari	2 km
Otlarning oyog'ni qurish	700 km
Oynalardagi turli bezaklar, belgilar	530 km
Odam boshi	400 km
Kiyim va uning rangi	270 km
Tom ustidagi taxtalar, tuyanaklar	210 km
Tugmalar	160 km
Odam yuzi	160 km
Chehraning o'zgarishi (kulish, qovoq solish)	110 km
Ko'zlar	60 m
Ko'zning oqi	20 km

VII bob. SAYOHATLARDA O'LKASHUNOSLIK VA QIDIRUV ISHLARI

Sayohatlar jarayonida turli xil o'lkashunoslik va qidiruv ishlari olib boriladi. Buning uchun maktab jamoasi, asosan, sayohat rahbari o'quvchilarning ko'p kunlik turistik sayohati davomida qanday qidiruv yoki o'lkashunoslik ishlari olib borish kerakligini avvaldan rejalashtirishi va tegishli mutaxassislardan maslahat olishi kerak. Bu sohada ilmiy tekshirish institutlari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi kafedralar, kabinetlar, muzeylar va muassasalar tegishli yordam ko'rsatishi yoki bevosita topshiriqlar berishi mumkin.

7.1. Metereologik kuzatishlar

Tabiatda uchraydigan turli hodisalar, jumladan, meteorologik o'zgarishlar turistlar hayotida muhim o'rin tutadi.

Ob-havoning o'zgarishini bilish uchun bir necha kun davomida aniq bir vaqtda mahalliy vaqt bilan soat 1, 7, 13, va 19 da kuzatish olib borish kerak.

Bulutlarni kuzatish balandroq va ochiq joyda bo'lishi kerak. Ko'z bilan kuzatishda bulutlar 10 ball bilan o'lchanadi, bulutsiz osmon-0, osmon bulut bilan to'la qoplangan bo'lsa 10 ball. Agar bulutlar osmonni 1/10, 2/10, 3/10, 4/10 miqdorda qoplangan bo'lsa, unda 1, 2, 3, 4 ball deb hisoblanadi.

Bulutlar past, o'rta va baland qatlamlardan iborat. Yuqori qatlamdagi bulutlar yupqa, oq bo'ladi va soya tashlamaydi. Bunday bulutlar ob-havoning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. O'rta qatlamdagi bulutlar zangori-sarg'ish tusda bo'lib, tuman va to'lg'inni eslatadi. O'rta qatlamdagi bulutlar quyosh nurini o'tkazmaydi.

Bulutning pastki qatlami quyuvq sarg'ish tusdadir.

Bunday bulutlar osmonni to'la qoplab oladi.

Ob-havoda bo'ladigan o'zgarishlarni oldindan bilishning ayrim belgilari:

1. Odatda, quyoshning chiqish va botishida osmon qizaradi. Bunday hollarda havo o'zgarishi mumkin. Osmon zangori, ko'kroq bo'lganda esa ob-havoning uzoq muddatgacha o'zgarmasligini bildiradi.

2. Yoz paytida osmon bulutli bo'lib, shamol pasaysa kechasi salqin bo'lishidan darak beradi.

3. Quyosh chiqishi bilan bulutlar paydo bo'la boshlaydi va kunning yarmiga borib ko'payadi. Kech kirishi bilan bulutlar yana yo'qoladi.

Havo yaxshi bo'lishning belgilari:

Qaldirg'ochlar baland uchadi.

Chumolilar juda tez harakat qiladi.

Kechqurun chigirtka va boshqa hasharotlar chirillashi.

Asalarilar dalalarga juda erta uchib ketadi.

Burchaklar, o't oralari, tosh kavaklari o'rgimchak uyasi bilan to'la qoplanadi.

Qoqilarning hamma gullari, suv ko'lmak, havzalarida oq nilufarlar ochilgan bo'ladi.

Shamol bo'lmaganida changlar tik yuqoriga ko'tariladi.

Gulxan cho'g'larining usti oqarib, o'chganday bo'lib ko'rinadi.

Ob-havo buzilishining belgilari

Yulduzlar qizg'ish yoki tiniq, zangori bo'lib yarqiraydi.

Qaldirg'och va boshqa qushlar past uchadi.

Boyqushlar kunduzi sayray boshlaydi.

O'rdaklar, oqqushlar suvga ko'p sho'ng'iydi.

Kaltakesaklar iniga yashirinadi.

Baqalar suv, balchiqdan chiqib qurullay boshlaydi.

Asalarilar kechgacha uchadi va kechqurun faollashi.

Itlar kam ovqat yeb, ko'p uxlaydi, bekorchi yugurishadi.

Mushuklar yuz-qo'llarini «yuvadi».

Tovushlar tez eshitiladi va hidlar tez tarqaladi.

Telegraf ustunidagi simlar guvullaydi.

Gulxan ochiq va tiniq ko'rinadi.

7.2. Topografik kuzatishlar

Topografik kuzatishning eng qulay turi o'tgan marshrutni rasmga olish yoki sxemaga tushirishdir. Shuningdek, masofa yoki oraliqlar qadamlab o'lchash yo'li bilan, yo'nalish esa kompas bilan aniqlanadi. Agar arxeologik yoki foydali qazilma boylik va h.k. ni chizish kerak bo'lsa, unda uning aniq planini tuzish lozim. Bunday hollarda aniq o'lchov asboblari (metr va boshqa asboblari) ishlatish kerak.

Ko'p hollarda turistlar o'zlari turgan joyning balandligini o'lchashga urinib ko'radilar. Bunday paytlarda eklimetr (joylarning nishabligini o'lchaydigan asbob) yoki barometr (барометр) kabi asboblardan foydalaniladi.

Joylarning sxemasini chizish va shartli belgilarni ko'chirish, turistlarning topografiya sohasidagi malakalarini mustahkamlaydi.

7.3. Geologik kuzatishlar

Sayohatchilarning geologik kuzatishi marshrutning geologik suratga olishni taqozo qiladi. Geologik kuzatishlarda turistlar yer tuzilishi, uning qatlamlari, foydali qazilmalar bilan tanishadilar. U yoki bu joyning sxemasini chizish, muhim topilmalar tavsifini yozishda ularning hajmi, aniq joyi, uzunligi, kengligi aniq ko'rsatilishi kerak. Topilmalardan hajmi 3x3 sm va qalinligi 2 sm dan kam va ortiq bo'lmagan hajmda namuna olish lozim. Geologik kuzatishlarga chiqqanda geologik bolg'a, arra, o'lchov lentasi (bechevka), tog' kompassi (eklimetrli), 10 %li tuz kislotasi solingan shisha (tog' jinslarining qaynashini aniqlaydi), matodan qilingan xalta va boshqa kerakli asbob hamda jihozlarni olish lozim.

7.4. Yer tuzilishini o'rganish

Geomorfologiya kuzatishlarda sayohatchilar yer tuzilishdagi o'zgarishdagi o'zgarishlarni o'rganadilar. Buni quyidagi plan asosida olib borish mumkin.

1. Obyektning nomi.
2. Uning aniq yo'nalishlari.
3. Dengiz sathiga nisbatdan uzunligi va balandligi.

4. Kesib o'tish chizig'i bo'yicha (eniga) uchraydigan turlar, bo'linmalar to'g'risida xarakteristika.
5. Yo'nalish bo'yicha xarakteritska.
6. Ayrim o'simliklarni qamrab olgan o'simliklar.
7. Territoriyaning xalq xo'jaligi uchun ahamiyati.

7.5. Hidrologik kuzatishlar

Gidrologik kuzatishlarda hali to'la o'rganilmagan ko'l, daryolar tadqiq qilinadi. Bunda ko'l yoki daryoning boshlanishi oqish tezligi, kengligi, atrofdagi sharoiti, tabiatning o'zgarishiga qarab uning ham o'zgarishi, qirg'oqlarning tuzilishi, daryo suvining oqish xususiyatlari to'g'risida materialar yig'iladi. Ayrim holarda mahalliy kishilar bilan ana shu mavzularda suhbat qilishga to'g'ri keladi.

Turistlar bunday kuzatishlar uchun 20–30 metr uzunligi ip, planshetili kompas, belgili lineykalalar, yengillangan cho'p, sekundomer, boshqa asboblalar bilan ta'minlashlari lozim.

7.6. Botanika va zoologiya kuzatishlar

Sayohat jarayonida joylarning o'simlik dunyosini o'rganish yoki biron o'simlikni izlash uchun botanika kuzatishlar olib boriladi. Bunday paytlarda tegshli o'simliklardan gerbariy yasaladi, ular turlarga ajratilib, nomlari aniqlanadi. O'simliklarni terishdan oldin mahalliy kishilar bilan maslahatlashish, uning rangi, bargi, bo'yi, tuzilishi va boshqa xususiyatlarni aniqlash, shuningdek, ularni quritish, joylashtirish quyidagilarni ham belgilash talab etiladi. Ayrim o'simlik va gullarni yig'ishni florizim deyiladi. Rassomlar tasviriy sa'nat ishlarida bu gullarning tuzilish, rangi, umumiy formulalardan foydalanadilar. Sayohat paytida zoologik kuzatishlar asosan hasharotlarning turlarni belgilash va ularni yig'ishdan iborat. Hasharotlar zarali va foydaligiga ajratib o'rganiladi. Hasharotlarni yig'ib uni saqlash juda oson. Buning uchun maxsus banka yoki shishalardan foydalanadi. Hasharotni tergan joyning nomi, maydon kengligi va ularning miqdorni maxsus daftarda qayd etish lozim. Hasharotlarni izlash unchalik murakkab emas, oddiy durbinlarni ishlatish kifoya.

7.7. Fenologik kuzatishlar

Fenologiya biologiya fanning o'simliklar hamda hayvonlar hayotidagi o'zgarishlar qonuniyatni, ularning iqlim sharoitiga bo'lgan munosabatini o'rganuvchi sohasi hisoblanadi. Fenologik kuzatishlar uchun maxsus jihoz yoki asbob talab qilinmaydi. Lekin maxsus kundalik tutish lozim.

Fenologik kuzatishlarda hisobga olinishi kerak bo'lgan ba'zi belgilar (А. Менчуковнинг «В Мире ориентиров» М. 1960 г. kitobidan)

Oylar	Tabiatdagi kuzatishlarning taxminiy muddati			Mavsum sharoitlarning nomi
	eng erta	kechki	o'rtacha	
mart	7/III	31/III	19/III	Birinchi quzg'un kelishi
	—	15/IV	30/III	Chug'urchuq (mayna)ning kelishi
aprel	18/III	15/IV	15/IV	To'rg'aylarning kelishi
	24/III	18/IV	15/IV	Qayin daraxtida suvning harakat qilishi
	25/III	17/IV	11/IV	Turlarning shimolga o'tishi
	17/III	10/V	17/IV	Gullardagi changlanish
	30/III	5/V	19/IV	Tog' teragining gullashi
	5/IV	7/V	22/IV	Olmaning (zirk daraxti) gullashi
	4/IV	13/V	24/IV	Baqalarning qurillay boshlashi
	8/IV	12/V	24/IV	Cheremuxaning kurtak otishi
	6/IV	14/V	25/V	Yong'ogning gullashi
	24/IV	9/V	30/IV	Kakkuning birinchi sayrashi
	15/IV	24/V	7/V	Navro'z gulining gullashi
	22/IV	23/V	9/V	Qayinlarning gullashi

<i>jadvalning davomi</i>				
may	1/V	18/V	10/V	Bulbulning birinchi sayrashi
	26/IV	24/V	11/V	May qo'ng'izlarning uchishi
	29/IV	1/VI	12/V	Qaldirg'ochning kelishi
	2/V	27/V	13/V	Qoqining gullashi
	4/V	4/VI	18/V	Cheremuxaning gullashi
	2/V	5/VI	24/V	O'rmon yertutining gullashi
	6/V	5/VI	22/V	Olchalarning gullashi
	6/V	6/VI	24/V	Olmalarning gullashi
	10/V	12/VI	26/V	Marvaridgulning gullashi
	8/V	14/VI	27/V	Nastarinning gullashi
iyun	11/V	17/VI	29/V	Ryabinaning gullashi
	17/V	28/VI	12/VI	Itburunning gullashi
	25/V	3/VIII	16/IV	Javdar bug'doyning gullashi
iyul	24/VI	20/VII	5/VII	Javdarning boshqolanishi
	28/VI	28/VII	12/VII	Javdarning sarg'ayishi
avgust	15/VI	30/VII	13/VII	Lipa gullashi
	1/VIII	17/VIII	10/VIII	Barglarning tusha boshlashi
sen- tabr	26/VIII	26/X	3/IX	Quzg'unlarning ketishga hozirlanishi
	14/VIII	21/X	27/IX	Tumalarning qaytishi

Yuqorida tibiiy belgilar O'zbekiston sharoitida qariyb bir yoki bir yarim oy oldin paydo bo'ladi. Toponomik kuzatishlarda daryo tog' ko'llar aholini yashaydigan punktlar va joylarning nomlari ularning kelib chiqish tarixi o'rganiladi. Iqtisodiy-geografik kuzatishlarda esa xo'jaliklarni tuzlishi, tashkil qilishi, ishlab chiqarish mahsulotlarning hajmi bilan tanishiladi.

7.8. O'zbekistonning chegaralari va aholisi

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining mintaqasi shimoliy kenglikning 37 10/ bilan 45 35/ va sharqiy uzunlikning 56 bilan 73-10 oralig'ida joylashgan. O'rta dengiz bo'yidagi Ispaniya, Gretsiya, Bolgariya, Yugoslaviya mamlakatlari ham taxminan xuddi shu geografik kengliklar orasida joylashgan subtropik tabiatli mamlakatdir.

Ammo O'zbekistonning tekislik yerlari bu subtropik mamlakatlardan tubdan farq qilib, cho'llardan iboratdir. Chunki respublika iliq okean va dengizlardan nihoyatda uzoqda, materik ichkarisidagi berk havzada joylashgan, nam va iliq havo massalari keladigan janubdan baland tog'lar bilan to'silgan, aksincha, quruq va sovuq havo oqimlari keladigan shamol tomoni esa ochiqdir.

O'zbekiston mintaqasining katta qismi Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida, qolgan oz qismi shu daryo havzalarida joylashgan. Eng shimoliy chekkasi Ustyurtning sharqiy chekkasidan Termiz shahrigacha 925 km ga, g'arbiy chekkasi – Ustyurtning o'rta qismidan o'tgan 56-meridiandan Farg'ona vodiysining sharqiy chekkasigacha 1400 km ga cho'zilgan. Respublikaning g'arbiy chekkasi bilan sharqiy chekkasi oralig'idagi tafovut 1710 ga yoki 1 soat 8 minutga tengdir.

O'zbekiston maydoni 447,4 ming kv. km. Xorijiy davlatlar bilan taqqoslaganda, respublika maydoni Buyuk Britaniyadan sal kam ikki, Polshadan 1,5 marta, Belgiyadan qariyb o'n marta kattadir. O'zbekiston chegaralarining ko'p qismi quriqlikdan iborat. O'zbekiston O'rta Osiyodagi barcha respublikalar va Qozoqiston bilan, janubdan esa Avg'oniston bilan chegaradosh. O'zbekiston aholisi o'tgan asrning 70-yillarida 12,5 mln. dan ortiq edi. Hozir esa 26 millonga yaqin horijiy davlatlar bilan taqqoslaganda, Norvegiya aholisidan 3 baravar, Shvyesiyadan 1,5 marta ko'p.

Bunday umumdavlat ishida maktab o'quvchilari, o'rta va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari va ishlab chiqarish korxonalarning turistlari aktiv qatnashishi, amaliy yordam berishilari lozim.

***VIII bob.* TURIZM BO'YICHA OMMAVIY TADBIRLAR VA MUSOBAQALAR**

Turistik sayohatlar, poxodlarda xilma-xil musobaqalar, slyotlar tashkil qilinadi. Katta yoshdagi kishilarning sayohatlari jarayonida sportning voleybol, futbol, badminton, suvda suzish kabi turlaridan oddiy qoidalar bo'yicha musobaqalar, ko'ngil ochish tadbirlari tashkil qilinadi. Turli harakatli o'yinlar uyushtiriladi. Balandliklarga chiqish, tushish, chodirlarni tez o'rnatish, ovqat pishirish kabilar bo'yicha ham musobaqalar, estafetalar tashkil qilinadi. Turistik sayohatlar davomida tashkil etiladigan turli musobaqalar ham avvaldan tayyorlangan bo'lib, maxsus reja yoki nizom asosida o'tkaziladi.

Maktab o'quvchilarining barcha sayohatlarda yo'lda yurish tartibi, atroflarni ko'zdan kechirish, joylarni o'rganish, muzey va diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish, sxema tuzish kabi tadbirlar bilan birgalikda turistik musobaqalar tashkil qilinadi. Maktab o'quvchilarining turizm bo'yicha musobaqalari turistik texnika va slyot hisoblanadi.

Turistik texnikaning asosiy elementlari past-baland joylarda yugurish, to'siqlardan arqon va oddiy moslamalardan qilingan vositalar yordamida o'tish, shikastlangan paytda birinchi yordam berish, xarita (sxema) bo'yicha joylarni belgilash, azimut bo'yicha yurish, chodirlarni vaqtida qurish, ryukzakka kerakli buyum va jihozlarni joylashtirish, ovqat pishirish, choy qaynatish, devoriy gazeta tayyorlash, fotoalbomlarni namoyish qilish kabilardir. Ana shu elementlar turistik musobaqa yoki slyotlarda bajariladi.

Turizmning elementlari bo'yicha musobaqani bir kollektivning o'zi ham tashkil qilishi mumkin. Bunda bir necha komanda tashkil qilishga to'g'ri keladi. Komandalar tuzish imkoni bo'lmaganda namuna sifatida 10–15 turistning ishtirokida musobaqa tashkil qilinadi. Bunday musobaqalar o'quvchi va turistlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, turistik malaka hosil qilish, yirik musobaqa

yoki slyotlarga tayyorlanish maqsadida maktab turizm seksiyalarida yil davomida muntazam o'tkaziladi. Bunday musobaqalar talabga javob beradigan tabiiy sharoitlarda tashkil qilinadi.

Musobaqalarni yaqinroq daryo sohillari, jar, tepa yoki uncha baland bo'lmagan tog' zonalarida o'tkazishni mo'ljallash lozim. Bunday sharoitlar bo'lmagan paytlarda, bahor, kuz hamda ta'til vaqtlarida 2-3 kunlik sayohat tashkil qilish asosiy manzilga yetgach, musobaqalarni uyushtirish kerak bo'ladi.

Turistik texnika bo'yicha musobaqa tuman yoki shahar miqyosida tashkil qilinadi. Turistik musobaqalarning eng yirigi slyot hisoblanadi.

Slyot turistlarning katta anjumani, yig'ini hisoblanadi. Slyot asosan tuman, shahar, viloyat, respublika va xalqaro miqyosida maxsus nizom asosida o'tkaziladi. Maktab o'quvchilarining turistik slyotlari, xalq maorif organlari tomonidan tashkil qilinadi. Boshqa tashkilot, muassasa va o'quv yurtlarida tashkil qilingan turistik slyotlarga ham tegishli sport jamiyatlari rahbarlik qiladi. Slyot o'tkazishdan bir necha oy ilgari nizom ishlab chiqiladi va tegishli joylarga yuboriladi. Nizom asosida o'quv yurtlari, tashkilotlari, muassasalar komanda tayyorlaydi.

Slyotni o'tkazish uchun tashkiliy komissiya tuziladi. Komissiya hakamlar va slyotda xizmat qiladigan mas'ul xodimlarni tayinlaydi, xavfsizlik va qutqarish komandalarini avvaldan ogohlantiradi. Marshrut kvalifikatsion komissiyasi (MKK) musobaqa o'tkaziladigan joy sxemasi va planini ko'rib chiqib, uni tasdiqlaydi. Bu komissiya hakamlarni belgilangan trassa va kontrol punktlarga taqsimlaydi, musobaqa oldidan esa bevosita ko'rib chiqadi. Slyot kuni hakamlar o'z joylariga ertaroq borib joylashadilar. Oriyentirlash (chamalash) elementlari bo'yicha musobaqa bo'lganda bu jarayonlar asosan yashirin (sirli) ravishda amalga oshiriladi.

Chunki, komanda vakili yoki uning a'zolari noma'lum trassani avvaldan bilmasliklari kerak. Sxema yoki azimut belgilari faqat start oldidan qatnashchilar qo'lga beriladi.

Slyot dasturida asosan quyidagi tadbirlar bo'ladi.

1. Umumiy parad, raport.
2. Turizm to'g'risida ma'ruza yoki biron kollektivning ish tajribasi joriy qilinadi (qisqacha mazmunda).
3. Musobaqa estafetalar.

4. Chamalash elementlari bo'yicha musobaqa.
5. Mazali ovqat pishirish, choy qaynatish bo'yicha musobaqa.
6. Jamoa hayotni aks ettiruvchi stend (fotoalbom, muzey materiallari, devoriy gazetalalar va h.k.).
7. Badiiy havaskorlik tanlovi.
8. Gulxan tayyorlash va uni yoqish.
9. G'oliblarni mukofotlash.

Slyotlar 2–3 kun va undan ortiq vaqtga mo'ljallanadi. Slyotlar davomida, ya'ni kechki paytlarda katta gulxanlar tashkil qilinadi. Gulxan atrofida turli suhbat, ma'ruzalar, konsertlar uyushtiriladi. Badiiy havaskorlar tanlovi, turli raqslar, tajriba almashtirish, ilg'or tajribalarni joriy qilish to'g'risida ko'pgina ishlar qilinadi.

Har bir o'qituvchi yoki turizm seksiyasining rahbari turistlarga slyot nizomi, dasturi va tashkiliy ishlar formasini izchil o'rgatishi va ularni to'la amalga oshirish uchun biror imkoniyatlardan foydalanish kerak.

Slyotlar yoki turistik musobaqalar zarur bo'lgan barcha shart-sharoitni (oziq-ovqat, transport, turistik jihozlar) maktab jamoasi, tuman kasaba uyushmasi tashkiloti va xalq maorifi organlari yaratib beradi. Ko'pchilik sport jamiyatlari bunday slyotlarni o'tkazganda tashkiliy ishlarni o'z zimmalariga oladilar.

Dam olish oromgohlarida o'tkaziladigan tadbirlarning katta qismini turistik sayohat va poxodlar tashkil etadi. Shu sababdan yozgi mavsumda va doimiy ishlaydigan o'quvchilar lagerlarida kalendar reja asosida turistik sayohat va poxodlar uyushtiriladi.

Lagerning har bir patogi oxirida turizm bo'yicha slyot tashkil qilinadi. Slyotni tashkil qilinadi. Slyotni tashkil qilish va uyushtirish umumiy qoydalarga ko'ra o'tkaziladi. Slyot dasturi lager sharoitiga moslashtirib tuziladi. Slyotga qo'shni lager yoki qishloq yoshlari hamda rasmiy kishilar taklif qilinadi. Slyot oxirida umumiy gulxan tashkil qilinadi. «Yosh turist» turist razryad nomlarni yoki maxsus taktlar talablarni to'la bajargan o'quvchilarga ko'krakka taqiladigan nishon va guvohnomalar tantanali ravishda topshiriladi. Gulxanda turizmga va lager ishlariga ham yakun yasaladi.

O'quvchi yoshlarning turistik musobaqa va slyotlari jarayonida meditsina xizmati tashkil qilinadi. Shunga qaramasdan markaziy turizm seksiyalari, turistik klublar va bolalar turistik-ekskursiya

stansiyalarida qutqarish otryadlari tuzilib, ular eng tajribali turistlar, alpinistlar, jamoatchi instruktoriyalaridan tashkil topadi.

Har bir turistik yoki o'quvchi turistik texnika elementlarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa-da, ayrim hollarda baxtsizlikka uchrashi mumkin. Shuning uchun slyot va musobaqalarda qutqarish komandalari doim tayyor holda turadi. Ayniqsa, toshlardan, jarlardan, kanal yoki katta suvlardan arqon bilan o'tishda chiqish va tushishda xavfsizlik va qutqarish komandalari shay turadi, tegishli choralarni ko'radi.

Qutqarish komandasi yoki otryadlari a'zolari yil davomida, ayniqsa qiyin ob-havo sharoitida murakkab trassa yoki obyektlarga borib, muntazam mashq qiladi, malaka oshiradi va o'z mahoratlarini mustahkamlab boradi.

Maktablarda, barcha o'quv yurtlarida, shuningdek, korxona, tashkilot va muassasalardagi turizm seksiyalari bir yilda ikki marta, ya'ni o'quv yili va kalendar yil oxirida o'z jamoasi va yuqori tashkilotlar uchun yozma hisobot tuzadi. Yozma hisobot tuzish uchun yil davomida qilingan ishlarni ko'zdan kechiradi, tahlil qiladi. Hisobot tuzish uchun quyidagi hujjatlarni yuritish va ularni sistemali ravishda hisobga olib borish tavsiya etiladi:

1. Umumiy ish rejasi.
2. Seksiya ishining rejasi.
3. Turistik poxodlarning kalendar rejasi.
4. Seksiya jurnali.
5. Jamoatchi instruktorlar, tashkilotchilar, faollar tayyorlash jumallari.
6. Maktab direktori, tuman xalq ta'lim bo'limi, sport jamiyati, sport bo'limi va boshqa yuqori tashkilotlardan kelgan ko'rgazmalar, buyruqlar, nizomlar, rejalar va boshqalarni hisobga olish jurnali.
7. O'tkazilgan poxod, sayohatlarning marshruti, rejasi, sxemasi, tegishli tashkilotlar tasdig'idan o'tgan marshrut varaqalari, bayonnomalar hisobi.
8. Ko'p kunlik turistik poxodning rejasi, sxemasi, hisoboti, rasmlar.
9. Tayyorlangan fotogazeta, fotoalbom, fotomontajlar.
10. O'z jamoasi haqida gazetalarda bosilgan materiallar, maqola va xabarlar.

11. Turizm seksiyasi, maktab jamoasining turizm to'g'risidagi umumiy yig'ilishlar qarorlari to'plami.

12. Turistik faollar ro'yxati.

13. Turizm bo'yicha razryad va boshqa normalarni bajarganlik haqidagi hujjatlar, talabnomalar.

14. Turistik jihozlar ro'yxati

15. Maktab yoki homiylik tashkilotlar, fermerlar tomonidan ko'rsatilgan moddiy yordamlarga doir hujjatlar.

16. Yoshlar ijtimoiy harakati va boshqa tashkilotlarning turizmga bevosita qatnashishini aks ettiruvchi hujjatlar.

17. O'tkazilgan tadbirlarni hisobga olib boradigan daftar.

18. «Yoshlik», «Talaba», «Paxtakor» va boshqa sport jamiyatlari, tuman va viloyat sport bo'limlarining tuman xalq ta'limi bo'limlari, kasaba uyushmalari tashkilotlarining ko'rsatilgan yordamlarini aks ettiruvchi daftar.

Hisobotda quyidagilarga e'tibor berish kerak bo'ladi:

1. Tashkiliy ishlar:

a) rejalashtirish;

b) seksiyani uyushtirish;

d) sayohat va poxodlarga kerakli jihozlarni to'plash;

e) turizmga doir umumiy yig'ilishlar o'tkazish;

f) amaliy tadbirlarda mas'ul kishilar, ya'ni jismoniy tarbiya, biologiya, geografiya, tarix o'qituvchilari, yoshlar tashkilotlarining faol ishtiroki va to'la tahlili.

2. Umumiy tarbiyaviy, ommaviy va targ'ibot ishlari:

a) turizm to'g'risida suhbat, ma'ruza, kechalar o'tkazish;

b) devoriy gazetalar chiqarish, tanqidiy materiallar, uning natijalari, fotomontaj tashkil qilish;

d) sayohatlar, poxodlar, slyotlar o'tkazish va uning natijalari;

e) o'quvchilarning bir kunlik, ko'p kunlik poxodlari, poxod davomida ijtimoiy foydali ishlar;

f) o'lkani o'rganish, qidiruv ishlari yakuni;

g) turizm bo'yicha muzey (burchak) ishlariga tavsifnoma.

3. Moliyaviy va xo'jalik ishlari:

a) turistik jihozlarning soni, yangidan olish ish tahlili;

b) sarflangan pul otaliqdagi tashkilotlar yordami;

d) jihozlar bilan ta'minlashdagi kamchilik yoki ilg'or tajribalar, maktab rahbarlari faoliyati.

4. Xulosalar:

a) o'quv yurti (mehnat jamoasi)da erishilgan yutuqlar yoki kamchiliklar sababi;

b) asosiy yutuqlar va kamchiliklar, uni tugatish yo'llari;

d) navbatdagi rejalarni amalga oshirish tadbirlari.

Umuman, hisobot qilingan ishlarni aniq va obyektiv yoritishi, tanqidiy bo'lishi, jamoani turizmga jalb qilish yo'llarini topishga qaratilmog'i kerak. Hisobotni ilmiy metodik shakllar va yo'nalishlarga qaratish, undan foydalanish zarur.

Keyingi vaqtlarda geografiya, botanika, zoologiya, tarix o'qituvchilari hamkorligida ko'pgina maktablarda o'lkashunoslik kabinetlari tashkil qilinmoqda. Ularda o'lkashunoslikning muhim tarmog'i bo'lgan turli gerbariyar, tabiatda uchraydigan xilma-xil toshlar va boshqa narsalar mavjud. Qisqasi, o'quvchilar sayohat va poxodlarda uchratgan qiziqarli narsalarni olib kelib, o'z muzeylariga yig'ishadi, ularni avaylab saqlashadi. Bunda jismoniy tarbiya o'qituvchilari, aktiv turistlarning hissasi katta. Chunki, sayohat va poxodlarda kolleksiyalar to'plashib, keyin bu kabinet yoki burchaklarga topshirishadilar. Lekin shuni ham qayd qilish kerakki, ayrim sayohatchilar kolleksiya yoki gerbariy to'plashga unchalik e'tibor berishmaydi, buni o'z vazfalari deb qaramaydilar. Natijada, maktablarda turizm bo'yicha maxsus muzey yoki burchaklar juda kamchilikni tashkil qiladi.

O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi maktablarda o'lkashunoslik, turistik ishlarni yaxshilash, bu bilan o'quvchilarning yaxshi hordiq chiqarish, sog'lig'ini mustahkamlash, fan olamini chuqur o'rganish, bilim, saviya va o'zlashtirishni shu yo'l bilan mustahkamlash yo'llarini ko'rsatib bermoqda. Bu holatlar oliy ta'lim vazirligida ham maqsadli o'tkazilmoqda.

Shularni nazarda tutib, har bir maktab, kasb-hunar kollejlarida o'lkashunoslik va turistik seksiyalarni jonlantirish, ish faoliyatini kuchaytirish, tegishli jihoz va imkoniyatlar bilan ta'minlash, maxsus muzeylar (burchak) tashkil qilish lozim bo'ladi.

Yana shuni e'tiborga olish kerakki, o'lkashunoslik va turistik muzeylar birinchi navbatda, geografiya, tarix, biologiya, jismoniy tarbiya o'qituvchilari hamkorligida tuzilishi lozim. Muzeyda faqat o'lkashunoslikka oid materiallarga emas, balki quyidagi turistik materiallar ham mavjud bo'lishi lozim:

a) asosiy turistik jihozlarning (chodir, ryukzak, arqonlar, idish-tovoqlar, turistik kiyimlar, binokl) namunalari;

b) turizmga oid adabiyotlar, plakatlar, videotasvirlar, targ'ibot vositalari;

d) ko'p kunlik sayohatlarda ishlatiladigan turistik jihozlar hamda oziq ovqatlarning turlari, normalari, meditsina dori qutisidagi dorivorlar, turistik normalar ro'yxati;

e) jarohatlanganda birinchi yordam ko'rsatish tadbirlari, shakllari va ularning vositalari (rasmlar);

f) arqon bilan ishlash, uning tugunlari (rasm va sxemalar shaklida);

g) turistlar hayoti, musobaqalari, turistik texnikalar aks ettirilgan fotomontaj, plakatlar va fotoalbomlar;

h) sayohatlar, mashg'ulotlar davomida yozib olingan magnit lentalar, sayohat xotiralari yozilgan daftarlar, gazeta, jurnal materiallari;

i) sayohatni aks ettiruvchi hujjatli filmlar;

j) faol turistlar, faxriy turistlar, jamoatchi instruktorlar va tuman, shahar hamda viloyat chempionlarining fotosuratlar, ularning erishgan yutuqlari, biografiyalari.

Barcha jamoalarda turistik muzeyning mazmunini ilg'or tajribalar asosida boyitish, kengaytirish zarurdir.

ILOVALAR

«Umumta'lim maktablarida o'tiladigan turistik sayohatlari uchun turistik anjomlar

Anjomlar nomi	IV–VIII sinflar uchun norma, dona	IX–X sinflar uchun norma, dona
Ikki o'rinli chodir	10	5
Yuk xalta	20	10
Kurpa qop	20	10
Shishirma to'shak	10	5
Tibbiy dorixonacha	2	1
Ovqatga ishlatiladigan qopqoqli alumin chelak (10–12l)	4	2
Katta bolta	2	1
Saplar belkuragi	1	1
Geografik xarita (o'z respub- likasi, viloyati, tumani xaritasi):		
ma'muriy xarita –I		
Fizik xarita –I		
Turistik xarita –I		
Suyuqlik to'ldirilgan kompas	1	1
Adrianov kompassi (geografiya kabinetidan olinadi).	1	1

12–15 kishidan iborat guruh uchun ko'p kunlik sayohatga mo'ljallangan tibbiy dori-darmonlar ro'yxati

Shaxsiy paketlar	8–10
Sterillangan kambar va enli bintlar	10–12
Termometr	3
Rezina bog'lagich (jgut)	2
Ingilizcha to'g'nag'ich	10
Qaychi	1
Pinset	1
Xantal (gorchichnik)	100
Tomizg'ich	2
Sterillangan paxta	800 gr

Vishnevskiy surtma moyi	100 gr
Medsina spirti	150 gr
Osh sodasi	200 gr
3 foizli yod (shisha idishchada 25ml.dan)	150 gr
Novshatil spirti	40 ampula
Kaliy permanganat	2-quticha
Rivanol	1-quticha
3 foizli (40, 0, № 5) vodorod oksidi	200gr
Valerian tomizmalari	2 shishacha
Volkardin (korvalol, kordiamin) 40,0	2 shishacha
Tosh tomizmalari	1 shishacha
Naftizin	2 shishacha
Aspirin	40 tabletka
Analgin	50 tabletka
Yo'tal dorisi	10 tabletka
Vazelin (siqma idishda)	4-6 dona
Oftob urganda ishlatiladigan moy upasi	
5-10 foizli sintomitsin eritmasi	
Yopishqoq enli va ensiz plastir	
Shina	
Ko'k dori	
Muhofaza ko'zoynaklari (tog'dagi poxod uchun)	

Sayohatda o'quvchilar cho'milishini tashkil etish yuzasidan rahbarga yo'l-yo'riq

1. Turistik yurishda va lagerda cho'milish nihoyatda mas'u-liyatli ish bo'lib, guruh rahbaridan unga jiddiy munosabatda bo'lishni taqozo etadi.

Poxodda cho'milishda sport muddaosi emas, gigiyena va salomatlik maqsadigina ko'zlanadi.

2. Maxsus jihozlangan plaj bo'lmagan barcha hollarda rahbar cho'milish uchun tanlangan joyning chuqurligi va xavfsizligini, eski novdalar, ildiz, tosh va xarsanglar yo'qligini shaxsan tekshirib ko'rishi shart.

3. Cho'miladigan joyda suv oqimi sekundiga 0,5 metrdan oshmasligi, chuqurligi esa 1,5 metrdan ko'p bo'lmasligi lozim.

4. Cho'milish uchun tanlangan joy chuqurligini tekshirgan paytda sohildan tikkasiga yurish bilan kifoyalanmasilik kerak. O'sha joyda hamma yo'nalishlar bo'yicha bir necha marta u yoqdan bu yoqqa yurib ko'rish zarur. Cho'milish mumkin bo'lgan joy chegarasini hamma cho'milivchilarga ko'rsatish darkor.

Cho'milish paytida suvning $^{\circ}\text{C}$ bo'yicha 18° dan past bo'lmasligi kerak.

5. Agar turistlar guruhining qayig'i bo'lsa, cho'milishga ajratilgan joyda shu qayiq bilan soqchilik qilib turish kerak.

6. Har bir cho'milish guruhi rahbarning ruxsati bilan va albatta uning ishtirokida amalga oshiriladi. Kuzatib turish va o'z vaqtida yordam berish uchun rahbarlardan biri albatta sohilda bo'lishi zarur.

Mabodo guruhda razryadli suzuvchilar bo'lsa, ularning rahbariga yordam uchun navbatchilikka jalb etish kerak, ammo cho'milishga rahbarlik qilishni ularga topshirib bo'lmaydi.

7. Bir vaqtning o'zida 8 dan ortiq o'quvchi cho'milmasligi, cho'milish vaqti 10 daqiqadan oshmasligi lozim.

8. Cho'milishi vaqtida baqiriq-chaqiriq va qichqirishlar bo'lmasligi kerak. Qatnashchilarga baqiriq yordam to'g'risida murojaat nishonasi ekanligini tushuntirish zarur.

9. Quyidagilar qat'iyman etiladi: a) qayiqda turganda cho'milish, ko'prikdan, qayiqdan, tik qirg'oqdan suvga sho'ng'ish, shuningdek, qosh qorayganda va kechasi cho'milish; b) ovqatlangandan keyin bir yarim soat o'tgunga qadar cho'milish.

Sayohatda cho'milish joyini tanlash yuzasidan rahbarga yo'l-yo'riq

1. Aholi punktida yoki unga yaqin joylarda poxod vaqtida bolalar uchun maxsus joy ajratilgan, muhofaza chetdan devorlari hamda navbatchi qutqaruvchi qayiq-lari bo'lgan plajlarda cho'milish kerak.

2. Maxsus jihozlangan plajlar bo'lmagan barcha hollarda cho'milishga tanlangan joy kanalizatsiya suvlari, jala va sel suvlari kelib qo'shiladigan hamma suvni ifloslantiruvchi boshqa

manbalardan oqib chiqayotgan suv kelib qo'shiladigan joydan yiroqroq bo'lishi zarur.

3. Daryoda cho'milish uchun oqova suvlar kelib qo'shiladigan, kir yuvib chayqaladigan, chorva mollar og'ilxonalari va jonivorlar suv ichib cho'miladigan joydan yuqoriroqdan tanlanishi zarur.

4. Gidrotexnika inshootlari, to'g'on, shluz va dambalar yaqinidagi suv havzasida: sanitariya muhofazasi zonasining birinchi mintaqasi, xo'jalik maqsadlarida ichimlik suv ta'minoti uchun obihayot olingan joylar chegarasida cho'milish qat'iyan man etiladi.

XULOSA

O'zbekistonning mustaqillik istiqbollari xalq xo'jaligini iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, aholining ijtimoiy turmush madaniyatini yanada yaxshilash, ayniqsa, yosh avlodni va talabalarni kasb-hunarga o'rgatish, ularning aql-zakovatlarini yanada o'stirish eng ustuvor muammolardan biriga aylanmoqda.

Respublika aholisini, ayniqsa o'quvchi yoshlar va talabalarni uzoq o'tmish tariximiz bilan tanishtirish, shu asosda buyuk kelajak sari dadil borish yo'llarini ko'rsatishga doir ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish vazifasi qo'yilmoqda. Bunda Respublika Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, nutqlari, muloqotlari muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston eng qadimiy va madaniy obidalarga boy bo'lgan davlatlardan biridir. Qadimgi «Buyuk ipak yo'li»ning Markaziy Osiyodan o'tishi (eradan avvalgi II asr) O'zbekistonning sharqiy va g'arbiy hamda shimoliy va janubiy chegaralari bilan tutashganligi jahondagi ko'pgina davlatlarni qiziqtirib kelgan. Shu sababdan xalqaro nufuzli tashkilotlardan biri YUNESKO rahbarligida o'tkazilgan xalqaro ekspeditsiya ishlari, O'zbekistonga kelib taqaladi. Bu haqdagi muhim ma'lumotlar, B.M.Xusanboyev, L.A.To'laganov va V.G.Razina tomonidan tuzilgan «Дорогами Великого шелкового пути» (T., 1995-y.) ilmiy ommabop risolasi (I-qism) muhim ahamiyatga molikdir. Unda faqat savdo karvonlarining savdo iqtisodiy faoliyatlarigina emas, balki O'zbekiston hududlari hamda uning atrofidagi aloqador mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari ham atroficha mazmun topgan. Shuningdek, Xitoy, Hindiston, Arab mamlakatlari, Rossiya, Angliya, Fransiya kabi mamlakatlarning elchilari, sayyohlari yozib qoldirgan esdaliklari ham ifoda etilgan. Shu asosda aytish mumkinki, «Buyuk ipak yo'li»dagi karvonlarga ergashib shoirlar, solnomachilar, sayyohlar, olimlar, darveshlar

yurtimizga qadam ranjida qilishgan. Bu esa sayr-sayohatlarning qadimgi davrlardan boshlanganligining dalolatidir.

Yaqin o'tmishimizda mahalliy xalq, shuningdek xorijiy sayyohlar Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa tarixiy shaharlarga sayr-sayohat qilishlari ommaviy tus solgan. Bu jarayonlar mustaqillik yillari davrida shaklan va mazmunan ancha yangilanib, tobora boyib bormoqda.

O'quvchi yoshlar, talabalar va mehnatkash omma dam olish kunlari, ta'til paytlarida salomatlikni yaxshilash, jismoniy barkamollikka erishish, o'lkani o'rganish maqsadida piyoda yurish sayohatlariga qiziqish uyg'otmoqda. Piyoda yurish sayohatlari inson tanasidagi barcha a'zolarining faol harakat qilishini ta'minlashda o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Shu sababdan o'tgan asrning ikkinchi yarmidagi turistik tadbirlar va an'analarni qayta tiklash, ularni davr talablari asosida rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalariga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.Abdumannonov. «Turizm». O'quv qo'llanma. –T., «O'qituvchi», 1988-y.
2. R.G.Ryabov. «Maktabda turizm» (sayohat rahbari kitobi). –T., «O'qituvchi», 1990-y.
3. R.Abdumalikov, T.Xoldorov. «Turizm». Darslik. –T., 1978.
4. R.Qosimova. «Talabalarni ommaviy sog'lomlashtirish tadbirlarida xalq milliy o'yinlaridan foydalanish masalalari». O'quv qo'llanma, I-qism. Samarqand, SamDU nashri, 2001-y.
5. R.Qosimova. «Talabalarni ommaviy sog'lomlashtirish tadbirlarida xalq milliy o'yinlaridan foydalanish masalalari». O'quv qo'llanma, II-qism. Samarqand, SamDU nashri, 2002-y.
6. R.Qosimova, E.Ermatov. «Turizm (sayohat) va uni o'qitish metodikasi». Ma'ruzalar kursi. Samarqand, SamDU nashri, 2003-y.
7. R.Qosimova. «Barkamol avlod» sportini takomillashtirish yo'llari». O'quv qo'llanma. –T., «Fan», 2005-y.
8. К.Бардин. «Азбука туризма». –М., 1987 г.
9. А.Берман. «Юний турист». –М., 1977 г.
10. А.Куприн. «Умей ориентироваться на личности». Метод. указания. –М., 1972 г.
11. О.Архангелекская. «Как vybrat туристическая маршрут». –М., 1967 г.
12. А.Потресов. «Спутник юннова туриста». –М., 1967 г.
13. Г.Элкин. «Школадний музей». –М., 1972 г.
14. И.Юней. «Кравадинее и туризм». –М., 1974 г.
15. R.Qosimova. «Harakatli o'yinlar (ommaviy tadbirlar)». O'quv qo'llanma. Samarqand, SamDU nashri, 2006-y.

MUNDARIJA

KIRISH	3
---------------------	---

BIRINCHI QISM

I bob. SAYOHATLARNING TARIXIY RIVOJLANISH YO'LLARI

1.1. Sayohat haqida umumiy tushuncha	6
1.2. O'zbekiston ipak yo'lining markazi	9

II bob. «BUYUK IPAK YO'LI»DAGI BA'ZI MANZILLAR VA FAOLIYATLAR HAQIDA

2.1. Manzillar haqida qisqacha bayon	15
2.2. Kushon podsholigi va Eftalitlar davlati davrida savdo hamda iqtisodiy-madaniy aloqalar.....	20
2.3. Turk qozonati davrida «Buyuk ipak yo'li»ning yo'nalishlari	22
2.4. Arablar istilosi davrida «Buyuk ipak yo'li»ning sayohat manzillari	25
2.5. XI-XIV asrlarda savdo va sayohat yo'llari.....	27
2.6. Temuriylar davrida «Buyuk ipak yo'li»da savdo-iqtisodiy aloqalarning gullab yashnashi.....	32
2.7. Movarounnahrda Shayboniylar hokimiyatining o'rnatilishi davrida savdo sayohat yo'llari	35
2.8. Qadimgi karvon yo'llarida savdo-iqtisodiy aloqalarning susayishi	37
2.9. «Buyuk ipak yo'li»ning qayta tiklanishi va xalqaro turizmni tashkil etishda mustaqil O'zbekistonning o'rni.....	42

IKKINCHI QISM

III bob. OMMAVIY SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARI. SAYOHATLARNING TURLARI.

3.1. Piyoda yurish sayohatlarining ijtimoiy-tarbiyaviy va sog'lomlashtirish xususiyatlari	58
3.1.1. Sayohatlarning ijtimoiy tarbiyaviy-xususiyatlari.....	58
3.1.2. Sayohatlarning sog'lomlashtirish xususiyatlari	59
3.2. Tashkiliy tadbirlar	63

Piyoda yurish turizmi.....	63
Sogʻlomlashtirish oromgohlari.....	67
Turizm boʻyicha instruktorlar.....	70
Maktablarda turizmning ahamiyati.....	71
Oʻlkashunoslik va ijtimoiy foydali ishlar	71
Yosh oʻquvchilar bosqichlarida turistik ishlar	73
«Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarida turizm	75
Yozgi sogʻlomlashtirish oromgohlari	76 ✓
Turizm ishlarining dastur va rejalari	77
Jamoalardagi turizm seksiya ishlarining dasturi	78
Jismoniy madaniyat jamoalaridagi turizm seksiyalarining ish rejasi.....	80
Joylarni chamalab topish elementlari boʻyicha musobaqa tashkil qilish.....	81
Turistlarni jismoniy jihatdan tayyorlash	83
Poxodlarga tayyorlanish	84

IV bob. PIYODA YURISH SAYOHATINI TASHKIL QILISH VA OʻTKAZISH YOʻLLARI

4.1. Sayohatlarga tayyorgarlik ishlari.....	85
Marshrut varaqasi.....	89
Guruh roʻyxati.	90
Poxod rejasi.....	90
Sayohat marshrutining sxemasi	91
4.2. Yoʻlda yurish qoidalari	92
4.3. Sayohatlarda oʻqituvchining roli	95 ✓
4.4 Yozgi dam olish oromgohlarida sayohatni tashkil qilish	97 ✓

V bob. SAYOHATDA TURISTIK TURMUSHNI TASHKIL QILISH

5.1. Turli yumushlar.....	98
5.2. Sayohatlarda ovqatlanish turi	100

5.3. Tibbiy ko'rik va shifokor nazorati	101	✎
Ozik-ovqatlar va ularning kaloriyalari	102	
5.4. Jarohatlanganda birinchi yordam	103	

VI bob. TURISTLARNI TOPOGRAFIK JIHATDAN TAYYORLASH

6.1. Topografiya va shartli belgilar	109
6.2. Joylarni chamalab topish usullari	113

VII bob. SAYOHATLARDA O'LKASHUNOSLIK VA QIDIRUV ISHLARI

7.1. Metereologik kuzatishlar	119
7.2. Topografik kuzatishlar	121
7.3. Geologik kuzatishlar	121
7.4. Yer tuzilishini o'rganish	121
7.5. Hidrologik kuzatishlar	122
7.6. Botanika va zoologiya kuzatishlar	122
7.7. Fenologik kuzatishlar	123
7.8. O'zbekistonning chegaralari va aholisi	125

VIII bob. TURIZM BO'YICHA OMMAVIY TADBIRLAR VA MUSOBAQALAR

Ilovalar	133
Xulosa	137
Foydalanilgan adabiyotlar	139

QOSIMOVA RA'NO AHMEDOVNA


TURIZM VA UNI O'QITISH METODIKASI

Toshkent – «ALOQACHI» – 2008

Muharrir:	M.Mirkomilov
Tex.muharrir:	A.Moydinov
Musahhih:	G.Karimova
Kom.sahifalovchi:	G.Arifxo'jayeva

**Bosishga ruxsat etildi 15.08.2008-yil. Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$.
«Times New Roman» garniturasini. Ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 12,0. Nashr bosma tabog'i 11,0. Tiraji 500.
Buyurtma №**

«ALOQACHI matbaa Markazi» bosmaxonasida chop etildi.
700000, Toshkent shahri, A.Temur ko'chasi. 108-uy.



ISBN 978-9943-326-22-4



9 789943 326224